

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI



FORS TILI

fanidan

o‘quv - uslubiy majmua

Bilim sohasi:	100000 –Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5120100 –Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi)

Dehqonova L.A.Sharq(fors) tili fanidan o‘quv - uslubiy majmua.Guliston, 2018. 144 bet.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishida o‘qiyotgan bakalavrlarga mutaxassislik doirasida o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2017-yil 1-martdagi 107-sonli “Yangi o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmani tavsiya etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida, “Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 09.01.2016 yil BD 5120100-3.05 raqamli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

O‘quvqo‘llanmada talabalar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish tartiblari bayon qilingan.Har bir mavzu boshida fanni o‘qitish texnologiyasi,har bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni,qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida bayon qilinadi, mavzu oxirida mustaqil ish topshiriqlari, test va adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Ushbu o‘quv- uslubiy majmua GulDU o‘quv- metodik kengashi (

1-bayonnoma) tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: filolog.fan.nomzodi Sharipov F
filolog .fan.nomzodi dots Abdullayev J.

Mundarija:

Kirish.....	5
Fors tili fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.....	6-9
Arab-fors alifbosi.....	9-13
Alif harfining o‘qilishi va yozilishi.....	13-15
ب shaklidagi harflari va ularning xususiyatlari.....	15-17
ح shaklidagi harflari va ularning xususiyatlari.....	17-19
د (dol) va د (zol) harflarining yozilishi va o‘qilishi	19-21
ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari va ularning xususiyatlari.....	21-23
س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari	23-26
ط (to) va ظ (zo) harflari	26-27
ع (ayn) va غ (g`ayn) harflar	28-29
ف (fe) va ق (qof) harflari	30-31
ک (kof) va گ (gof) harflari	31-33
ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflarining yozilishi va o‘qilishi	33-35
و (vov) va ی (yo) harfining yozilishi va o‘qilishi	35-37
ه (hoi havvaz) harfining yozilishi va o‘qilishi	37-39
Mo‘ttasil va mo‘nfasil harflar	39-42
Fors tilida harakatlar	42-45
Fors tilida arab satr usti belgilari	45-47
Shamsiy va qamariy harflar.....	47-48
Fors tilida raqamlarning ifodalanishi	49-50
Ot kesimli sodda yig‘iq gap.....	50-53
Kishilik olmoshlari va bog ‘lamaning tuslanishi.....	53-56
So ‘roq gaplarning yasalishi.....	57-60
Izofa va izofa zanjiri.....	60-62
Fors tilida son kategoriyasi.....	63-65
Egalik affikslari.....	65-67
Miqdor sonlar. Tartib sonlar.....	67-71
Matn ustida ishlash.....	71-72
Fe’l negizlari. O‘tgan zamon aniq fe’li.....	72-75
Fors tilida predloglar.....	75-77
Izofali predloglar.....	78-80
Yosh va vaqtning ifodalanishi.....	80-81
Matn ustida ishlash.....	81-82
Hozirgi-kelasi zamon fe’li.....	82-83
Buyruq fe’li.....	83-87
Fe’lning shart-istak mayli.....	87-90

Modal fe'llar va modal so'zlar.....	91-93
Matn ustida ishlash.....	93-96
Maqsad ergash gap.....	96-98
To'lduvchi ergash gap.....	98-100
O'tgan zamon davom fe'li.....	100-101
Numerativlar.....	102-103
Fors tilida arabcha ko'plik.....	104-105
Sifat darajalari.....	106-107
Payt ergash gap.....	108-110
Murakkab predloglar.....	110-111
Sifatdosh.Hozirgi zamon sifatdoshi	111-114
Matn ustida ishlash.....	114-115
O'tgan zamon sifatdoshi.....	115-118
Umar Hayyom ruboiylari.....	118-119
Fors tilida yo-ye masdari.....	120-121
Harakat va holat otlari.....	121-122
Chistonlar.....	122-123
Sa'diy Sheroziy she'rlari.....	124-126
Yangi va eski yil hisoblari.....	126-130
Abjad hisobi.....	131-143
Fors tilidan testlar.....	143-147
Nazorat savollari.....	147-148
Fors tili bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.....	148
Glossariy	150-153

Ilovalar:

Fan dasturi

Ishchi fan dasturi

Xorijiy o'quv materiallari (elektron shaklda)

Taqdimotlar va multimediya vositalari (elektron shaklda)

Qo'shimcha didaktik materiallar

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, boy milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma'naviy merosimizni o'rganish dolzarb vazifa ekani davlat hujjatlarida o'z ifodasini topdi. Ma'lumki, ana shu boy manba'larning ma'lum qismi fors tilida bitilgan.

Fors tili kursining asosiy maqsadi ana shu tilni mukammal egallagan, uni ilmiy izlanishlarda qo'llay oladigan, mazkur tilda bitilgan tarixiy manbalarni o'qib tadqiq eta oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Shuningdek, kursning vazifalari: talabalarda fors tilida so'zlasha olish, so'zlarni qo'shib gap tuzish, amaliy ko'nikmalari bilan qurollantirish; fors tili fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisi bo'yicha aniq va sistemali bilim berish; talabalarning lug'at boyligini oshirish va uni shakllantirish; talabalarni tarixiy qo'lyozmalar tili, yozuv turlari, qo'lyozma asarlar va ularning xususiyatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Egallangan bilimlar eski o'zbek tili va yozuvi fanidan olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, arab yozuvida bitilgan qo'lyozma manbalarni o'qish va ularni tahlil qilishda asosiy hamkor bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar fors tilini o'rganish jarayonida quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi lozim: fors va o'zbek tillarida yozilgan mazkur qo'llanma talabalarda qo'lyozma asarlarni o'qish, lug'at yordamida tarjima qilish, fors tilidagi matnlarda grammatik hodisalarni kuzatish, tahlil qilish va tushintirib bera olish, fors tili grammatikasining asosiy qoidalarini o'zlashtirish, talab darajasida lug'aviy boylikka ega bo'lish, o'zbek tiliga o'zlashgan forscha so'z va so'z birikmalarining ma'nosi va tarkibini tushintira olish, o'zlashtirilgan mavzular doirasida o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish va arab-fors yozuvida yoza olish, o'qilgan matnlarni fors tilida mustaqil ravishda bayon qilib bera olish, shuningdek, turli mavzularda erkin savol-javob qila olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Talabalar eski o'zbek yozuvi, o'zbek mumtoz adabiyoti, g'azal tahlili, o'zbek adabiy tili tarixi, o'zbek tilining tarixiy grammatikasini o'rganish jarayonida forscha atama va iboralarga duch keladilar. Shunday kezlarda fors tilidan olingan bilim va ko'nikmalar katta va samarali yordam berishi shubhasizdir.

Qo'llanmani yaratishda ta'limning interaktiv metodlari nazarda tutilib, fors tilidagi audio-video yozuvlar, turli ko'rgazmali qurollar, fors tilini o'rgatishga mo'ljallangan elektron darslik va teledasturlar, bundan tashqari, E. L. Gladkovaning „Uchebnik persidskogo yazika“, I.K. Ovchinnkovaning „Uchebnik persidskogo yazika“, A. Quronbekov, M. Abdusamatov, L. Xalilovlarning „Fors tili“ darsliklaridan ijodiy foydalanildi.

Mavzu: Fors tili fani o‘qitishning maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Fors tili va uning eroniy tillari orasida tutgan o‘rni, fors tilining taraqqiyot davrlari haqida ma’lumot berish.
2. Fors-arab yozuvining ayrim xususiyatlari, fors tili o‘qitishning muhim ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Ho‘rufe mo‘nfasele va mo‘ttasele, madda, diakritik belgi.

Darsning maqsadi: Talabalarni fors tili fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish, fors –arab yozuvining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.1. Fors tilini hind-evropa tillariga mansub eroniy tillar guruhiga kirishi va ba’zi bir fonetik va grammatik xususiyatlariga ko‘rag‘arbiy va sharqiy gurppa eroniy tillariga bo‘linishini so‘zlab beradi.
- 1.2. Fors tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini uch asosiy davrini ayta oladi.
- 2.1. Til o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.
- 2.2. Fors-arab yozuvining ayrim xususiyatlarini biladi.

1-savolning bayoni:

Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tilidir. Fors adabiy tilining tayanch dialekti Tehron dialektidir.

Fors tili o‘zaro qarindosh bo‘lgan boshqa tillar bilan birgalikda hind-evropa tillariga mansub eroniy tillar gruppasiga kiradi.

Eroniy tillar ba’zi bir fonetik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra g‘arbiy va sharqiy gurppa eroniy tillariga bo‘linadilar:

1. G‘arbiy gurppa eroniy tillariga fors, tojik, baluchi, kurd va Kaspiy bo‘yi tillari (gilon, mozandaron, semnon, tolish, tot) va boshqa tillar kiradi.
2. Sharqiy gurppa eroniy tillariga afg‘on (pushtu), osetin, yag‘nob va pomir tillari (shug‘non, voxon, sanglichi, yazg‘ulom, ishkamish, zeboki, munjon) va boshqa tillar kiradi.

Eroniy tillar o‘zlarining tarixiy taraqqiyoti namunasida grammatik qurilish va leksik sostav jihatidan bir-birlaridan ancha farq qiladilar.

Hozirgi fors tili o‘z yozuviga ega bo‘lgan eng qadimiy tillardan biridir.

Fors tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini uch asosiy davrga bo‘lish mumkin:

1. Qadimgi fors tili (eramizdan ilgari VI-III asrlar).
2. O‘rta davr fors tili (eramizning III –VII asrlari).
3. Yangi yoki hozirgi fors tili (IX asrdan shu kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi).

Har bir davr tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari lug'at o'zgarishlari va ma'lum yozuv sistemasi bo'lgan.

Qadimgi va o'rta davr fors tili o'lik til hisoblanib uning grammatik qurilishi va lug'at sostavi haqida bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklar orqaligina tushuncha hosil qilishimiz mumkin.

Ma'lumki VII asrda arablar Eron, O'rta Osiyo va ularga qo'shni bo'lgan bir necha mamlakatlarni zabt etadilar. Arablar islom dini bilan bir qatorda o'z madaniyati, tili va yozuvini keng halq ommasiga zo'rlik bilan sindirishga kirishdilar. Shu tariqa bu o'lkalarda arab alifbosi hukmron yozuv bo'lib qoldi.

VII asrning oxiriga kelib yerli xalqlar arab tilida diniy, falsafiy hamda huquq va adabiyotga, meditsinaga oid kitoblar yoza boshlaydilar. Ilmiy va adabiy kitoblarni boshqa tillardan arab tiliga tarjima qilish keng avj oladi. O'qishlar arab tilida olib boriladi. Yozuvda arab alifbosi mustahkam o'rnatiladi.

Arablar O'rta Osiyo va Eron xalqlariga o'z til va madaniyatlarini yoyishga va bu xalqlar tilini aloqadan siqib chiqarishga qanchalik jon-jahdlari bilan harakat qilmasinlar, O'rta Osiyo va Eron xalqlari doimo o'z davlat va til mustaqilligi uchun kurashib keldilar va o'z til asoslarini saqlab qoldilar.

IX asrda Eron va O'rta Osiyo xalqlari o'z davlat mustaqilligi va o'z huquqlarini tiklash uchun olib borgan kurashlarida g'olib chiqadilar va arab xalifaligi hukmronligidan ozod bo'lib, o'zlarining markazlashgan Somoniylar davlatini vujudga keltirdilar.

Somoniylar davriy yoki forsiy nomi bilan atalgan mahalliy tilni o'zlarining davlat va adabiy tili deb e'lon qildilar. Davriy tili qadimgi va o'rta davr fors tilining tarixiy taraqqiyoti davomi sifatida shakllandi va arab so'zlari hisobiga o'z leksik sostavini boyitdi. Shunday qilib fors tili tarixida III davr- yangi fors tili davri boshlandi. Davriy tez sur'at bilan taraqqiy etdi, tez vaqt ichida fan va adabiyot uchun asosiy til bo'lib qoldi.

IX-XV asrda O'rta Osiyo xalqlari tarixida ilm, madaniyat, adabiyot va she'riyat yuksak darajaga ko'tarildi.

Bu davrda bir tomondan ijtimoiy fanlar tarix, falsafa va adabiyot keng rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiiy fanlar-matematika, astronomiya, meditsina fanlari taraqqiy etib, bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqodlar asosida o'lmas asarlar yaratildi. Bu asrlarni yaratgan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy va boshqa olimlarning nomlari dunyoga mashhurdir.

Somoniylar davlati barpo bo'lishidan boshlangan besh asrlik davr eron va tojik xalqlari adabiyotining xususan she'riyatining kamolat cho'qqisi sari rivojlangan davri bo'ldi.

Bu davrda o'zining o'lmas asarlari bilan jahon kitobxonlarini maftun etgan Abu Abdullo Rudakiyning lirik she'rlari, Abulqosim Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»si, Umar Hayyomning ruboiylari, Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlari, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xisrav Dehlaviyning «Xamsa»lari, Hofizning g'azallari, Abdurahmon Jomiyning «Haft afrang» va boshqa bir qancha shoir va olimlarning asarlari yaratildi.

2-savolning bayoni:

Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari:

1. O'zbek yozuvida xat chapdan o'ngga qarab yozilsa, fors yozuvida esa xat o'ngdan chapga qarab yoziladi va shu tartibda o'qiladi.
2. Fors-arab albosida atoqli otlar va boshlanish uchun maxsus harflar yo'q. Harfning so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rta, so'z oxiri va alohida shakllari bor.
3. Fors-arab yozuvida shu vaqtga qadar tinish belgilarini ishlatish qonunlashtirilmagan. XX asrdan boshlab fors tiliga ba'zi bir tinish belgilar kirib kela boshladi. Nuqta, vergul, (teskari holda) qo'shtirnoq, so'roq alomati (teskari holda) ko'p nuqta, qavs kabi tinish belgilari ishlatilmoqda.
4. Fors- arab yozuvida qisqa unlilar yozilmay diakritik belgilarda ifodalanadi, ular yozuvda odatda tushib qoladi, faqat ~ madda belgisi qo'yiladi.
5. Hozirgi o'zbek yozuvida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirish mumkin. Ammo fors-arabyozuvida bo'g'in ko'chirish mumkin emas. Agar satr oxiridagi so'zni shu satrga sig'dirish mumkin bo'lmasa uni butunlay ikkinchi satrga yozish kerak bo'ladi. Satr ochiq qolmasligi uchun so'zning oxirgi harflarini cho'zibroq yoziladi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.G'arbiy gruppaga eroniy tillariga qaysi tillar kiradi?
- 1.2.Sharqiy gruppaga eroniy tillariga qaysi tillar kiradi?
- 1.3.Fors tilining tayanch dialekti qaysi?
- 1.4.Fors tilining taraqqiyot yo'li davrlari qaysilar?
- 1.5.Yangi fors tili davrining o'ziga xos jihatlari haqida fikringiz?
- 2.1.Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.
- 2.2.Qisqa unlilar qanday ifodalanadi, diakritik belgi nima?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1-topshiriq. Fors o'zbek tili va yozuvi fanini o'qitishning maqsad hamda vazifalarini tahlil qilish.

- 1.1. Fors yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
- 1.2. Fors tilining taraqqiyot davrlarini aniqlash.
- 1.3. Fors tilining so'z tarkibi va grammatik qurilishi to'g'risida ma'lumot berish.

Test savollari

1. Arab alifbosida nechta harf bor?
A. 28 ta B.32 ta S.30 ta D.To'g'ri javob yo'q.
2. Fors tilida nechta harf bor?
A.30 ta B.32 ta S.28 ta D.To'g'ri javob yo'q.
3. Fors-arab yozuvining o'ziga xos xususiyati nimada?
A. O'ngdan chapga qarab yoziladi.
B. B.Chapdan o'ngga qarab yoziladi.

- S.Farqi yo‘q.
D.To‘g‘ri javob yo‘q.
4. Fors-arab yozuvining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang?
A. Bo‘g‘in ko‘chirilmaydi, katta-kichik harf yo‘q.
B.Farqi yo‘q.
S.Chapdan o‘ngga qarab yoziladi.
D.To‘g‘ri javob yo‘q.
5. Fors tilida arab alifbosiga nechta harf kiritilgan?
A. 4 ta B.7 ta S.2 ta D.To‘g‘ri javob yo‘q.

Mavzu bo‘yicha asosiy xulosalar:

- arab yozuvi arablarga islom dini qabul qilinishidan oldinroq nabotiy qabilalaridan o‘tgan, nobotiyar uni oromiylardan, oromiylar finikiyaliklardan o‘zlashtirib olgan edilar

- Tili yozuvida xat chapdan o‘ngga qarab yozilsa, arab yozuvida esa xat o‘ngdan chapga qarab yoziladi va shu tartibda o‘qiladi.

- Fors- arab yozuvida qisqa unlilar yozilmay diakritik belgilarda ifodalanadi, ular yozuvda odatda tushib qoladi, faqat ~ madda belgisi qo‘yiladi.

- Hozirgi o‘zbek tili yozuvida so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, bir satrdan ikkinchi satrga ko‘chirish mumkin. Ammo fors tili yozuvida bo‘g‘inko‘chirish mumkin emas. Agar satr oxiridagi so‘zni shu satrga sig‘dirish mumkin bo‘lmasa uni butunlay ikkinchi satrga yozish kerak bo‘ladi. Satr ochiq qolmasligi uchun so‘zning oxirgi harflarini cho‘zibroq yoziladi.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M.” Fors tili. –T”., 2007.
 - 2.Abdusamatov M.” Siz forscha so‘zlashasizmi?” –T., O‘qituvchi, 1971
- Qo‘shimcha adabiyotlar:

- 1.Qurbonbekov A.” Fors tili”. T., 2006.
- 2.”Gulshan-e forsi”. ToshDU, 1975.

Mavzu:Arab-fors alifbosi.

Reja:

1. Arab- fors alifbosi.
- 2.Yozuv mashqi.

Dars maqsadi: Talabalarga arab-fors alifbosini o‘rgatish, yozish malakasini hosil qilish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.1.Arab-fors alifbosi haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
- 1.2.Alifboni yoza oladi va yoddan aytib beradi.

Ishni bajarish tartibi

Arab-fors alifbosini yozishini o'rgatish.

1. Shaklan bir xil, nuqtalar soni va o'rniga ko'ra farqlanuvchi harflarni yozish.
2. Satr chizig'idan pastga tushmaydigan harflar.
3. Satr chig'idan pastga tushadigan harflar.

Harfning nomi	Harf ifoda etgan tovushlar	Harflarning yozilishi			
		So'z Oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
Alif	o, a, , e, o'	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	ث	ث	ث	ث
Jim	J	ج	ج	ج	ج
Chim	Ch	چ	چ	چ	چ
He(hoye-ho'tti)	H	ح	ح	ح	ح
Xe	X	خ	خ	خ	خ
Dol	D	د	د	د	د
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Z	ز	ز	ز	ز
Je	J	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ض	ض	ض	ض
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
Ayn	()	ع	ع	ع	ع
g'ayn	g'	غ	غ	غ	غ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
Qof	Q	ق	ق	ق	ق
Kof	K	ك	ك	ك	ك
Gof	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
Mim	M	م	م	م	م
Nun	N	ن	ن	ن	ن
Vov	v, u, o'u	و	و	و	و
he (hoye-avvaz)	H	ه	ه	ه	ه
Yo	I,y,ey,	ی	ی	ی	ی

Forslar VII asrdan boshlab to shu kunga qadar o'z yozuvlarida arab alifbosini ishlatib kelmoqdalar. Arab tili tovushlariga moslashgan va shu tilning tovush sistemasini to'la aks ettira olgan arab alifbosi fors tovushlarini to'la ifodalay olmaydi. Bunga sabab, birinchidan, fors tili fonetik sistemasiga tamoman yot bo'lgan bir necha tovush va belgilarning arab tilidan kirib kelishi bo'lsa, ikkinchidan, fors tilining xususiyatlarini ifoda etuvchi tovushlarning arab tili tovushlari sistemasida bo'lmasligi va ularni yozuvda ifodalovchi ma'lum harflarning arab alifbosida yo'qligi bo'ladi.

Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo'lib, forslar o'zlariga xos tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha ravishda quyidagi 4 harfni kiritdilar

گ ژ چ پ

Shunday qilib arab-fors alifbosida 32 harf hosil bo'lgan. Bu harflar asosan 16 belgidan iborat bo'lib, ulardan bir qanchasini ost yoki ustiga bir, ikki va uchtadan nuqta qo'yish orqali ularning soni ko'paytirilgan. Bu belgilar quyidagilar:

ا ب ح د ر س ص ط ع ف ك ل م و ي ه

Bulardan 6 tasi ا ل م و ي ه yangi harf yasash uchun ishtirok etmaydi. Qolgan 10 belgi esa o'zining nuqtali yoki nuqtasizligiga, nuqtalarning o'rnini va miqdoriga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

1. ب shaklining tagiga bir nuqta qo'ysak, ب b harfi; ostiga uch nuqta qo'ysak, پ p harfi; ustiga ikki nuqta qo'ysak ت t harfi; ustiga uch nuqta qo'ysak, ث s harfi va bu shaklni cho'ziq emas, yarim doira shaklida yozib, ustiga bir nuqta qo'ysak, ن n harfi hosil bo'ladi.

2. ح shakli o'zi h tovushini ifodalaydi. Ostiga bir nuqta qo'ysak, ح (dj) harfi; ostiga uch nuqta qo'ysak, چ ch harfi; ustiga bir nuqta qo'ysak خ x harfi hosil bo'ladi.

3. د shaklining o'zi d tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ذ z harfi hosil bo'ladi.

4. ر shaklining o'zi r tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ز z harfi, uch nuqta qo'ysak, ژ j (sirg'aluvchi) harfi hosil bo'ladi.

5. س shaklining o'zi s tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo'ysak ش sh harfi hosil bo'ladi.

6. ص shaklining o'zi s tovushini ifodalaydi, ustiga bir nuqta qo'ysak ض z harfi hosil bo'ladi.

7. ط shaklining o'zi t tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak ظ z harfi hosil bo'ladi.

8. ع shaklining o'zi ayn (vaziyatga qarab a, I yoki u tovushlarini bildirishi mumkin) deb atalib, ustigabir nuqta qo'ysak غ g harfi hosil bo'ladi.

9. ف shaklining ustigabir nuqta qo'ysak ف f harfi; bu shakldoirasini chuqurroq yozib, ustiga ikki nuqta qo'ysak, ق q harfi hosil bo'ladi.

10. ك shaklining o'zi k tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo'ysak, گ g harfi hosil bo'ladi. Bu harf odatda uch nuqta o'rniga bir uzun chiziq qo'yib yoziladi.

Fors grafikasida nuqtalarning o'rnini va miqdori katta ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, ularni diqqat bilan kuzatib boorish kerak. Chunki nuqtalarni noto'g'ri qo'yish so'zni tushunmaslikka olib keladi yoki ma'noni butunlay o'zgartirib yuboradi.

Agar arab-fors alifbosiga nazar tashlasak, bir tovushni ifodalash uchun fors tilida 2, 3, 4 harf mavjudligini ko‘ramiz. Masalan:

Z tovushini ifodalash uchun زذظ

S tovushini ifodalash uchun شسص

T tovushini ifodalash uchun ت ط

H tovushini ifodalash uchun ح ه

Yuqoridagi har bir harf arab tilida bir-biridan keskin farq qiladigan tovushlarni ifoda etadi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bu tovushlar fors tiliga arab so‘zlari bilan birga kirib kelgach, o‘zlarining talaffuz xususiyatlarini yo‘qotib, fors tili fonetik qoidalariga moslashgan. Buning natijasida bir tovushni ifodalash uchun bir necha arabcha mustaqil harflar ishlatiladi. Fors tilida bu harflar ifoda etgan tovushlar orasida hech qanday farq yo‘q. Lekin fors tili lug‘at boyligiga kirgan arab so‘zlarida arablar qaysi harfni qo‘llagan bo‘lsalar, forslar ham shu so‘zni yozishda o‘sha harfni ishlatadilar.

Fors alifbosidagi hamma harflar yozuvda bir-birlariga qo‘shilish yoki qo‘shilmasligi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi:

1. O‘zidan oldingi harfga qo‘shilib, keyingisiga qo‘shilmaydigan harflar.

2. O‘zidan oldingi va keyingi harflarga qo‘shilib yoziladigan harflar.

Birinchi guruh harflari yettita bo‘lib, fors grammatikasida حروف منفصله ho‘ruf-e mo‘nfasele (ayrilgan harflar) deb ataladi.

Bular quyidagilar: ا alif, د dol, ذ zol, ر re, ز ze, ژ je, و vov.

Bu yetti harfning har biri yozuvda faqat alohida shaklda bo‘ladi:

ا د ذ ر ز ژ و

Ikkinchi guruh harflari 25 ta bo‘lib, fors grammatikasida حروف متصله ho‘ruf-e mo‘ttasele (qo‘shilgan harflar) deb ataladi.

Ikkinchi guruh harflari o‘zidan oldingi hamda o‘zidan keyingi harflar bilan qo‘shilib yoziladi. Shu sababdan, ikkinchi guruh harflari yozuvda alohida kelishdan tashqari, qo‘shilgan holda va ayin, g‘ayin, hoye havvaz harflarining alohida, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxiridagi shakllari bo‘ladi. Bu harflarning alohida shakli hech qanday o‘zgarishsiz, alifboda qanday berilsa, shunday yoziladi.

ب پ ت ث چ ج ح خ س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق ك گ ل م ن ه ي

Qo‘shilgan holda yozilganda faqat harfning bosh qismi bilan ulanib ketaveradi. Uch xil shakldagi (so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida) harflarning ko‘rinishi birmuncha o‘zgarsa ham, har bir harf o‘z asosiy belgisini yo‘qotmaydi.

حروف متصله ho‘ruf-e munfaseledan so‘ng harflarning yozilishi

حروف متصله guruhidagi harflar yettitadir (alif, dol, zol, re, ze, je, vov).

Bu harflar ا و ژ ر ذ د ا و nastaliq yozuvida asosan bir ko‘rinishda bo‘ladi. Chunki so‘z boshidagi va alohida ko‘rinishlari bir xildir:

ا و ژ ر ذ د ا

Bu harflardan beshtasi faqat bir undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi: د (dol) – "d", ذ (zol) – "z", ر (re) – r, ز (ze) – z, ژ (je) – j (sirg‘aluvchi).

ا alif va و vov harflarining har biri bir nechtdan harflarni ifodalaydi: و vov – u, o‘, v;

alif esa harakatlar bilan birgalikda barcha unilarni ifodalash uchun ishtirok etadi: i, e, a, u, o‘, o.

Informatsion-uslubiy ta'minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili. –T", 2007. «O 'qituvchi» nashriyoti. 2007. 28-35 b.
2. Abdusamatov M. "Siz forscha so 'zlashasizmi?" –T., O 'qituvchi, 1971.

Qo 'shimcha adabiyotlar:

1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
3. R. Jumaniyozov. "Eski o'zbek yozuvi". Toshkent. «O 'qituvchi» 1989 y. 14-20 betlar.

Mavzu: "Alif harfining o'qilishi va yozilishi"

REJA:

1. Alif harfining vazifalari haqida.
2. Alif harfining so'z boshida kelishi.
3. Alif harfining so'z orasida va oxirida kelishi.
4. Alif harfining arabiy, forsiy va turkiy so'zlar tarkibida kelishi va o'zaro umumiylik hamda farqli tomonlari.

Asosiy tushunchalar:

ho'rufemo 'nfasele va mo'ttasele, madda, diakritik belgi.

Darsning maqsadi: Talabalarga alif harfi haqida tushincha berish. Alif harfining vazifalari, uning har xil ko'rinishlari va uning arabiy, forsiy, turkiy so'zlar tarkibida kelishi haqida tushincha berish.

Identiv maqsadlar:

- Alif harfi haqidatushunchagaega bo'ladi.
- Alif harfining o'qilishini biladi.
- Harfning so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rta, so'z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, ko'rgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

Alifning vazifalari xilma xil va murakkab.

1. So'z boshida kelganda alif () harfi:

a) turkcha – o'zbekcha so'zlarda a, e o'qiladi:

b) o'zlashma (arab, fors) so'zlarida a, a, i, e, u o'qiladi:

v) so'z boshidagi alifdan so'ng ayn () kelsa, unli cho'ziq "e" o'qiladi. Bu cho'ziqlik yozuvda ayirish belgisi "' " bilan ifoda qilinadi:

2. So'z orasi va oxirida:

a) o'zlashma so'zlarda "a" o'qiladi:

سحب	ساحب	ندر	nadir,	بابور	babur
برنا	barna,	تمتا	tamata,	كتاب	kitab

b) turkcha-o'zbekcha so'zlarda a, e o'qiladi:

3. ﺍ (alif) - yozuvda a – choʻziq unlisini ifodalaydi: oʻzidan oldin kelgan harfga qoʻshilib, keyin kelganiga qoʻshilmaydi. Yozuvda ikki koʻrinishda yoziladi: alohida (ﺍ), hamda bogʻlangan xolda (ﺍﻟ),

ﺍ (alif) soʻz boshida madda belgisi bilan kelganda (ﺍ) o harfini ifodalaydi, soʻz oʻrtasida kelganda esa, asosan, madda belgisi tushib qoladi, lekin o deb oʻqiladi:

satr chizigʻida yoziladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Alif (ﺍ) ning oʻqilishi va yozilishi haqida soʻzlab bering.
2. Alif harfi bilan boshlanadigan bir boʻgʻinli soʻzlardan misol keltiring.
3. Alif harfining forsiy va arabiy soʻzlar boshida kelishi haqida soʻzlang.
4. Alif harfining turkiy soʻzlar boshida kelishi haqida soʻzlang.
5. Alif harfi turkiy, forsiy va arabiy soʻzlar tarkibida qanday farqlarga ega?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

Alif harfi yozilish shakllarini 4 qatordan mashq qilib yozing.

Alif harfining qoʻshilib yoziladigan shakllariga misollar yozing

Test.

1. Alif harfi qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Satr chizigʻida yoziladigan harf. B.Satrdan chizigʻidan pastda yoziladi.
S.Satrdan boshlanib satrdan pastga tushadi. D.Toʻgʻri javob yoʻq.
2. Alif harfi yozuvda necha xil koʻrinishda yoziladi?
A. 2 xil B.3 xil. S.4 xil. D. 1 xil
3. Alif harfi soʻz boshida madda belgisi bilan kelganda (ﺍ) qaysi harfni ifodalaydi?
A. O harfini B.A harfini S.E harfini D.I harfini
4. Alif harfi oʻzidan keyingi harfga qoʻshilib yoziladimi?
A. Yoʻq
B. Ha
C. Qoʻshiladi
D. Toʻgʻri javob yoʻq.

Mavzu boʻyicha asosiy xulosalar:

- alif (ﺍ) harfi 2 xil koʻrinishga ega
- Soʻz boshida kelganda alif (ﺍ) harfi: turkcha – oʻzbekcha soʻzlarda a, e oʻqiladi
- oʻzlashma (arab, fors) soʻzlarida a, a, i, e, u oʻqiladi
- (alif) soʻz boshida madda belgisi bilan kelganda (ﺍ) o harfini ifodalaydi.

Informatsion-uslubiy taʼminot

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M. “Fors tili”. –T., 2007.
- 2.Abdusamatov M.” Siz forscha soʻzlashasizmi?” –T., Oʻqituvchi, 1971

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
3. Shukurov Sh. "Alif va uning vazifalari". O‘zbek tili va adabiyoti, 1990, 5-son.
4. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989.

Mavzu: “ ب “ shaklidagi harflari va ularning xususiyatlari”

REJA:

1. ب shaklli harflarning bosma va yozma shakllari.
2. Harfning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi.
3. Ushbu harflar ishtirokida so‘z yozish.

Dars maqsadi: Talabalarga “ ب “ shaklidagi harflari o‘rgatish, “ ب “ shaklidagi harflari yozish malakasini hosil qilish.

Identiv maqsadlar:

- “ ب “ shaklidagi harflari haqidatushunchagaega bo‘ladi.
- “ ب “ shaklidagi harflarni o‘qilishini biladi.
- Harflarning so‘zdagi o‘rniga ko‘ra so‘z boshi, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, ko‘rgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

ب (be) harfi portlovchi undoshni ifodalaydi. Har ikki tomondan qo‘shiladi. Satr chizig‘ida yoziladi, 4 xil ko‘rinishda keladi:

ب (be) harfining yozma va bosma ko‘rinishlari orasida deyarli farq yo‘q. Yozma shakllari ba‘zan bir oz cho‘ziqroq yoziladi:

پ (pe) harfi forslar tomonidan kiritilgan harf. O‘zbek tilida “p” jarangsiz undoshini ifodalaydi. Satr chizig‘ida yoziladi, nuqtalari pastga qo‘yiladi. Har ikkala tomondan qo‘shiladi, 4 xil ko‘rinishda keladi:

Yozma shaklda harfning uch nuqtasi ko‘pincha kattaroq bir nuqta shaklda, ba‘zi qo‘lyozmalarda quyidagicha yozib ketiladi:

Eslatma: Yozma yodgorliklarning aksariyatida p tovushi ishtirok etgan so‘zlarda emas ب (be) harfi yozib ketilishi ko‘zga tashlanadi.

ت (te) harfi o‘zbek tilidagi “t” tovushiga muvofiq keladi. Har ikkala tomondan qo‘shiladi. Satr chizig‘ida yoziladi. Qo‘lyozma asarlarda ikki nuqtasi kichik chiziqcha bilan ham yoziladi:


Ba‘zi manbalarda te harfi so‘z o‘rtasida kelsa, uning nuqtalari yonma-yon emas, balki ustma-ust qo‘yib ketilishi ham kuzatiladi: ت (te) harfi so‘z oxirida kelgan arabcha so‘zlarda sal boshqacharoq ifodalanadi, ya‘ni hoyi havvaz harfi yozilib, uning ustiga ikkita nuqta qo‘yiladi: ت harfi ham 4 xil shaklda keladi, nuqtalari 2 ta bo‘lib harfning ustiga qo‘yiladi:

ث (se) harfi arabcha soʻzlarga xos. Tish oraligʻi “s” tovushini ifodalaydi. Fors oʻzbek tiliga faqat arab tilidan oʻtgan soʻzlardagina ishlatiladi. Har ikkala tomondan bogʻlanadi, 4 xil shaklda keladi:

qoʻsh shakli.	Alohi da	talaf-fuzi	nomi
ب	ب	B	be,bo
پ	پ	P	Pe
ت	ت	T	Te
ث	ث	S	Se
ن	ن	N	Nun
ی	ی	i, ye	ye, yo

Pe harfi fors tiliga xos harf boʻlib, arab tilida uchramaydi. Bu harflarning nasxda yozilishi, nastaliqda esa soʻz boshidagi va oʻrtasidagi koʻrinishlari juda kichik yoziladi. Asosan nuqtasiga qarab qaysi harf yozilganligini ajratamiz.

Arab-fors yozuvida bir satrdan ikkinchi satrga koʻchirilmaydi. Satrdagi yozuvlar bir xil boʻlishi uchun harflar orasi choʻzilib yoki qisqartirib yoziladi. Choʻzib yozish soʻzning oʻqilishiga taʼsir qilmaydi. Choʻzib yozish bir satrda bir soʻzda uchrashi mumkin. Ikkinchi satrdagi choʻzib yozilgan soʻz birinchi satrdagi soʻzning ostiga tushmasligi kerak.



Be harfi eng qadimgi tasviriy yozuvdagi bayt – uy shaklidan, nun esa nun- ilon shaklidan, yo esa yad – qoʻlning tasviri asosida yaratilgan.

Muhokama uchun savollar:

1. ب se shakldagi bir xil oʻzakli harflar bir-birlaridan nimasi bilan farqlanadi?
2. Bu harflar oʻzbek tilidagi qanday tovushlarni ifodalaydi?
3. Yozma shakllarining qanday oʻziga xos belgilari bor?
4. Oʻtilgan harflar ishtirokida qanday soʻz va boʻgʻinlar tuza olasiz?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Oʻqilishi va yozilishi tanish boʻlgan harflar ishtirokida boʻgʻinlar va soʻzlar tuzishga harakat qiling;
2. Yuqoridagi harflarning yozilish shakllarini 4 qatordan mashq qilib yozing.
3. Yangi soʻzlarni yodlang.

ها واژه

bilan	–	bo	با	keksa	–	pir	پیر
tol	–	bid	بید	kech	–	dir	دیر
shamollatgich	–	bodbon	بادبان	devor	–	divor	دیوار
bozor	–	bozor	بازار	kun	–	ruz	روز
bilak	–	bozu	بازو	tizza	–	zonu	زانو
uygʻoq	–	bidor	بیدار	tez	–	zud	زود
burun	–	bini	بینی	non	–	non	نان
oyoq	–	po	پا	tashqari	–	birun	بیرون

tol- bid بید
Baland tovush-bon بان

Test.

1. Be, pe, te, se harflari qanday yoziladi?
A. Satr chizig‘i ustida yoziladi. B. Satrdan pastda yoziladi.
S. Satr tepasida yozilib, pastga tushadi. D. To‘g‘ri javob yo‘q.
2. ب be shakldagi bir xil o‘zakli harflar bir-birlaridan nimasi bilan farqlanadi?
A. Nuqtalarning soni va o‘rni bilan farqlanadi. B. Shakli bilan farqlanadi.
S. Yozilishi bilan. D. To‘g‘ri javob yo‘q.
3. ب be shaklidagi bir xil o‘zakli harflar necha xil ko‘rinishga ega bo‘ladi?
A. 4 xil B. 2 xil S. 7 xil D. 1 xil
4. Be, pe, te, se harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Har ikki tomondan qo‘shiluvchi harflar.
B. Ozidan keyingi harfga qo‘shilmaydigan harflar.
C. Bir tomondan qo‘shiluvchi harflar. D. To‘g‘ri javob yo‘q.
5. Pe harfi qanday harf ?
A. Forslar tomonidan kiritilgan harf. B. Arablar tomonidan kiritilgan harf.
S. Fors-arab alifbosidagi harf. D. To‘g‘ri javob yo‘q.

Mavzu bo‘yicha asosiy xulosalar:

- ب o‘zakli harflar 4 ta ب (be) پ (pe) ت (te) ث (se)
- پ (pe) harfi forslar tomonidan kiritilgan harf
- ث (se) harfi arabcha so‘zlarga xos
- ت harfi ham 4 xil shaklda keladi, nuqtalari 2 ta bo‘lib harfning ustiga qo‘yiladi.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2007.
2. Abdusamatov M. "Siz forscha so‘zlashasizmi?" –T., O‘qituvchi, 1971

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
3. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: "ح" shaklidagi harflar va ularning xususiyatlari"

REJA:

1. ح shakldagi harflarning bosma va yozma ko‘rinishlari haqida.
2. Har bir harfning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi haqida ma‘lumot berish.
3. Ushbu harflar ishtirokida so‘z yozish.

Asosiy tushunchalar: ج(jim) چ(chim) ح(hoyi huttiy yoki he) خ(xe)

Darsning maqsadi: Talabalarni hoyi hutti shakldagi harflar bilan tanishtirish, o`qish va yozish ko`nikmasini oshirish.

Identiv maqsadlar:

- “ح” shaklidagi harflari haqidatushunchagaegabo`ladi.
- “ح” shaklidagi harflario`qilishinibiladi.
- Harflarningso`zdagi o`rniga ko`ra so`z boshi, so`z o`rta, so`z oxirivaalohidashakllarinifarqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko`rgazmali qurol va tarqatma material.

Qo`sh. Hol.	alohida	o`qil.	nomi
ج	ح	j	jim
چ	چ	ch	chim
ح	ح	h	he
خ	خ	x	xe

Harfning ulanishiga misollar حجاج hujjoj – haj qiluvchilar, حمم hajm – hajm, خرچ charx – g`ildirak, خرج xarj – sarf, xarajat.

ح Hoyi hutti harfi arab tilidan kirib kelgan "h" tovushini ifodalaydi. Yuqori bug`iz undosh tovushi bo`lib “x” tovushi dan yumshoq talaffuz qilinadi.

Mazkur harflarning yozilishiga jim harfi asos qilib olingan. Jim harfi qadimgi



somoy tasviriy yozuvdagi qaml – tuya tasviridan yasalgan. Kirill yozuvida “Г” shu asosida shakllagan. Chim, haye hutti, xe harflari esa jim asosida paydo bo`lgan.

ج (jim) harfi o`zbek tilidagi jo`ra, jun so`zlaridagi “j” harfiga mos keladi. Har ikki tomondan qo`shiladi, 4 xil ko`rinishga ega:

Bosma shakli: ججج yozma shakli

چ (chim) o`zbek tilidagi “ch” harfiga mos keladi. Forslar tomonidan kiritilgan ikkinchi harf. To`rt xil ko`rinishda keladi:

Chim harfining nuqtalari dastxatda quyidagicha shakllarda ifodalanadi:

Fors o`zbek imlosida چ (chim) harfi juda kam qo`llanilib, uning o`rniga, asosan ج (jim) harfi ishlatilgan, lekin aksari hollarda mazmuniga qarab “ch” o`qilavergan.

ح (hoyi huttiy yoki he) harfi o`zbek tilidagi h tovushiga yaqin keladi. Bu harf faqat arab tilidan o`tgan so`zlarda uchraydi. Ikki tomondan qo`shiladi. To`rt xil ko`rinishda keladi:

خ (xe) harfi o`zbek tilidagi “x” tovushini ifodalaydi. Ikki tomonidan qo`shiladi, 4 xil shaklda keladi:

Muhokama uchun savollar:

1. ح shakldagi harflar bir-birlaridan nimasi bilan farqlanadi?
2. Bu harflar o`zbek tilidagi qanday tovushlarni ifodalaydi?
3. Yozma shakllarining qanday o`ziga xos belgilari bor?
4. O`tilgan harflar ishtirokida qanday so`z va bo`g`inlar tuza olasiz?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- ح harflari ishtiroki etgan 10 tadan so`z yozing;
- ح shakldagi harflarning yozilish shakllarini 4 qatordan mashq qilib yozing.

Test.

1. Jim, chim, hoye-hutti, xe harflari qanday yoziladi?
A. Satr tepasida yozilib, pastga tushadi. B. Satr chizig'i ustida yoziladi.
S. Satrdan pastda yoziladi. D. To'g'ri javob yo'q.
2. ح shakldagi bir xil o`zakli harflar bir-birlaridan nimasi bilan farqlanadi?
A. Nuqtalarning soni va o`rni bilan farqlanadi. B. Shakli bilan farqlanadi.
S. Yozilishi bilan. D. To'g'ri javob yo'q.
3. ح shaklidagi bir xil o`zakli harflar necha xil ko`rinishga ega bo`ladi?
A. 4 xil. B. 2 xil S. 7 xil. D. 1 xil
4. Jim, chim, hoye-hutti, xe harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Har ikki tomondan qo`shiluvchi harflar.
B. Ozidan keyingi harfga qo`shilmaydigan harflar.
C. Bir tomondan qo`shiluvchi harflar. D. To'g'ri javob yo'q.
5. Chim harfi qanday harf ?
A. Forslar tomonidan kiritilgan harf. B. Arablar tomonidan kiritilgan harf.
S. Fors-arab alifbosidagi harf. D. To'g'ri javob yo'q.

Mavzu bo`yicha asosiy xulosalar:

- ح o`zakli harflar 4 ta خ (xe) ح (hoyi huttiy yoki he) چ (chim) ج (jim)
- چ (chim) harfi forslar tomonidan kiritilgan harf
- ح harfi arabcha so`zlarga xos
- ج (jim) harfi ج (je) harfi talaffuzda farqlanadi

Informatsion-uslubiy ta`minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2007.
2. Abdusamatov M. "Siz forscha so`zlashasizmi?" –T., O`qituvchi, 1971
Qo`shimcha adabiyotlar:
 1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
 2. Gulshan-e forsi. ToshDU, 1975.
 3. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: “ د (dol) va ذ (zol) harflarining yozilishi va o`qilishi”

REJA:

1. د (dol) va ذ (zol) harflari tavsifi.
2. Bosma, yozma shakllari haqida ma'lumot.
3. O`tilgan harflar ishtirokida mashq yozish.

Darsning maqsadi: Talabalarda ushbu harflarning o`ziga xos xususiyatlari haqida bilim hosil etish hamda yozish ko`nikmalarini shakllantirish.

Identiv maqsadlar:

- د (dol) va ذ (zol) harflari haqidatushunchagaegabo‘ladi.
- د (dol) va ذ (zol) harflari o‘qilishini biladi.
- Harflarning so‘zdagi o‘rniga ko‘ra so‘z boshi, so‘z o‘rta, so‘z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko‘rgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

د (dol) – o‘zbek tilidagi “d” tovushini ifodalaydi. Bir tomondan qo‘shiladi, ya’ni o‘ng tomondan kelgan harfga qo‘shiladi, chap tomondan kelgan harfga qo‘shilmaydi. Yozuvda ikki xil ko‘rinishda keladi:

1. Alohida shakli: ذ

2. Qo‘shilgan shakli:

Bosmada dol harfining ustki qismi ko‘proq egik xolatda bo‘ladi. Masalan: “dalda” so‘zining bosma va yozma holatda yozilishiga e’tibor bering. Bosma: دلددا
yozma: دلددا

ذ (zol) – tish oralig‘ida talaffuz qilinuvchi tovush, u faqat arab tilidan kirib kelgan so‘zlarda uchraydi. O‘zbek tilidagi “z” harfiga yaqin keladi. Yozuvda ifodalanishi “dol”ga o‘xshaydi. O‘zidan oldin kelgan harfga qo‘shiladi. Ikki xil shaklda keladi: Satr chizig‘ida yoziladi, ustida bitta nuqtasi bor.

Muhokama uchun savollar:

1. د (dol) va ذ (zol) harflari haqida so‘zlab bering.
2. Bu harflar bosma shaklining yozma shaklidan qanday farqi bor?
3. Mustaqil holda so‘z topib yozing.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) د (dol) va ذ (zol) harflar ishtirokida so‘z va bo‘g‘inlar tuzing
- 2) O‘zingiz mustaqil ravishda د (dol) va ذ (zol) harflari ishtirok etuvchi so‘zlarni yozishni mashq qiling.

Test.

1. Dol, zol harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Satr chizig‘ida yoziladigan harf.
B. Satrdan chizig‘idan pastda yoziladi.
C. Satrda boshlanib satrdan pastga tushadi.
D. To‘g‘ri javob yo‘q.
2. Dol va zol harflari yozuvda necha xil ko‘rinishda yoziladi?
A. 2 xil B.3 xil C.4 xil D.1 xil
3. Dol va zol harflari qanday farqlanadi?
A. Tepasida 1 nuqta bilan B.Tepasida 2 ta nuqta bilan

- C.Pastdagi nuqtasi bilan D. Farqlanmaydi
4. Dol harfi o‘zidan keyingi harfga qo‘shilib yoziladimi?
A. Yo‘q B. Ha C.Qo‘shiladi D.To‘g‘ri javob yo‘q.
5. Zol harfi o‘zidan keyingi harfga qo‘shilib yoziladimi?
A. Yo‘q B.Ha S.Qo‘shiladi. D.To‘g‘ri javob yo‘q.

Mavzu bo‘yicha asosiy xulosalar:

- د (dol) va ذ (zol) harflari **منفصل (munfasil)** harflar guruhiga kiradi
- د (dol) va ذ (zol) harflari 2 xil ko‘rinishga ega
- ذ(zol) faqat arab tilidan kirib kelgan so‘zlarda uchraydi.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M.” Fors tili”. –T., 2007.
- 2.Abdusamatov M.” Siz forscha so‘zlashasizmi?” –T., O‘qituvchi, 1971
Qo‘shimcha adabiyotlar:
- 1.Qurbonbekov A.” Fors tili”. T., 2006.
- 2.”Gulshan-e forsi”. ToshDU, 1975.
- 3.Habibullo Solih.” Alifbo”. Toshkent, 1989.

Mavzu: “ ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari va ularning xususiyatlari”

REJA:

1. ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari tavsifi.
2. Yuqoridagi harflarning bosma, yozma shakllari haqida.
3. Lug‘at yozish.

Darsning maqsadi: Talabalarga ushbu harflar xususida bilim berish, yozish va o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish.

Identiv maqsadlar:

- ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
- ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari o‘qilishini biladi.

Harflarning so‘zdagi o‘rniga ko‘ra so‘z boshi, so‘z o‘rta, so‘z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko‘rgazmali qurol va tarqatma.

Mavzu bayoni:

ر (re) harfi o‘zbek tilidagi “r” tovushini ifodalaydi. O‘zidan oldingi harfga qo‘shiladi, keyingisiga qo‘shilmaydi. Ikki xil ko‘rinishda yoziladi: yakka xolda - ر bog‘langan holda ر

ز (ze) harfi o`zbek tilidagi “z” harfini ifodalaydi. Ustida bitta nuqtasi bor. O`zidan oldingi harfga qo`shilib, keyingisiga qo`shilmaydi. Ikki xil ko`rinishda yoziladi: yakka holda - ز bog`langan holda - ز

Qo`lyozma kitoblarda “ze” harfi o`zidan oldingi harfga bog`lanib kelganda, ko`pincha o`ng tomonga sal og`dirilgan alif harfiga o`xshab ketadi. Masalan: jazo so`zining yozilish shaklini ko`raylik: جزا - jazo

ژ (je) harfi ژورنل “jurnal” so`zidagi “j” tovushiga mos keladi. Forslar tomonidan kiritilgan. Ustida uchta nuqtasi bor. O`zidan oldingi harfga qo`shilib, keyingisiga qo`shilmaydi. Ikki xil ko`rinishda yoziladi: yakka holda - ژ bog`langan holda - ژatr chizig`idan pastga tushirib yoziladi.


qo`sh shakli.	Alohi da	talaf-fuzi	nomi
ب	ب	B	be,bo
پ	پ	P	Pe
ت	ت	T	Te
ث	ث	S	Se
ن	ن	N	nun
ی	ی	i, ye	ye, yo

Pe harfi fors tiliga xos harf bo`lib, arab tilida uchramaydi.

Bu harflarning nasxda yozilishi, nastaliqda esa so`z boshidagi va o`rtasidagi ko`rinishlari juda kichik yoziladi. Asosan nuqtasiga qarab qaysi harf yozilganligini ajratamiz.

Arab-fors yozuvida bir satrdan ikkinchi satrga ko`chirilmaydi. Satrdagi yozuvlar bir xil bo`lishi uchun harflar orasi cho`zilib yoki qisqartirib

yoziqladi. Cho`zib yozish so`zning o`qilishiga ta`sir qilmaydi. Cho`zib yozish bir satrda bir so`zda uchrashi mumkin. Ikkinchi satrdagi cho`zib yozilgan so`z birinchi satrdagi so`zning ostigi tushmasligi kerak.



Be harfi eng qadimgi tasviriy yozuvdagi bayt – uy shaklidan, nun esa nun- ilon shaklidan, yo esa yad – qo`lning tasviri asosida yaratilgan.

Muhokama uchun savollar:

1. ر (re), ز (ze), ژ (je) harflarini tavsiflab bering.
2. ژ (je) bilan ج (jim) harfining bir-biridan farqi nimada?
3. Bu harflar mo`ttasil harflarmi yoki mo`nfasil harflarmi?
4. Quyidagi so`zlarni o`qing va ko`chirib yozing.
ديوار، تا، بازو، زانو، بيدار، بان، بي، بيد، تير، بينى، پير، ديروز، بابا، بيرون، نيرو، بادبان، زير.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Mazkur harflardan foydalangan holda so`z yasang.
- 2) (dol) bilan (re) hamda (zol) bilan (ze) harflarining turli ko`rinishlarini o`zaro qiyoslagan holda ikki qatordan yozing.

Test.

1. ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari qanday harflar sirasiga kiradi?

- A. Satrdan chizig‘idan pastda yoziladi.
 B. B.Satrdan boshlanib satrdan pastga tushadi.
 C. Satr chizig‘ida yoziladigan harf.D.To‘g‘ri javob yo‘q.
2. ر (re), ز (ze), ژ (je)harflari yozuvda necha xil ko‘rinishda yoziladi?
 A. 2 xil B.3 xil S.4 xil D.1 xil
3. (re), (ze), (je)harflari qanday farqlanadi?
 A. Tepasidagi nuqtalar soni bilan farqlanadi.
 B. Nuqtalarning soni va o‘rni bilan farqlanadi.
 C. Tepasida 2 ta nuqta bilan. D.Pastdagi nuqtasi bilan
4. ر (re), ز (ze), ژ (je)harflari yozuvda o‘zidan keyingi harfga qo‘shilib yoziladimi?
 A. Yo‘q B.Ha S.Qo‘shiladi. D.To‘g‘ri javob yo‘q.
5. ژ (je)harfi qanday harf?
 A. Forslar tomonidan kiritilgan harf.
 B. Arablar tomonidan kiritilgan harf.
 C. Fors-arab alifbosidagi harf. D.To‘g‘ri javob yo‘q.

Mavzu bo‘yicha asosiy xulosalar:

- ر (re), ز (ze), ژ (je) harflari منفصل (mo`nfasil) harflar guruhiga kiradi.
- ر (re), ز (ze), ژ (je) 2 xil ko‘rinishga ega.
- ژ (je) harfi Forslar tomonidan kiritilgan.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M. “Fors tili”. –T., 2006.
- 2.Abdusamatov M. “Siz forscha so‘zlashasizmi?” –T., O‘qituvchi, 1971

Mavzu: “ س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari”

REJA:

1. س (sin) ش (shin) harflarining tavsifi.
2. ص (sod) va ض (zod) harflarining tavsifi.
3. Ushbu harflarning bosma va yozma shakllari.

Darsning maqsadi: Talabalarni س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflarining yozilishi va o‘qilishi bilan tanishtirish; qo‘lyozma asarlarni o‘qish malakasini oshirish.

Identiv maqsadlar:

- س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod)harflari haqidatushunchagaegabo‘ladi.
- س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod)harflari o‘qilishinibiladi.
- Harflarningso‘zdagio‘rnigako‘raso‘zboshi, so‘z o‘rta, so‘z oxirivaalohidashakllarinifarqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko`rgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

س (sin) harfi o`zbek tilidagi “s” tovushini ifodalaydi. Har ikkala tomondan qo`shiladi, 4 xil ko`rinishda keladi

Sin harfi qo`lyozmalarda ikki holatda uchraydi: tishli - س hamda tishsiz - ya`ni bir chiziq holatda.

Sin harfi qo`lyozma kitoblarda ba`zan ostiga uch nuqta qo`yilgan holda yoziladi. Ko`pincha bir tomondan qo`shiluvchi harflarning ustiga mindirib yoziladi:

قياس - qiyos, يولبس - yo`lbars.

ش (shin) harfi o`zbek tilidagi “sh” harfiga to`g`ri keladi. Har ikkala tomondan keluvchi harflarga bog`lanadi, 4 xil yozilish shakliga ega: بشرششش bashar ش

Shin harfi qo`lyozma asarlarda ko`pincha tishsiz yoziladi:

پشامان - pushaymon

qo`sh. hol	olohida	talaffuz	nomi
سد	س	s	sin
شد	ش	sh	shin

Nastaliq yozuvida sin va shin harflari tishlarsiz cho`ziq chiziq bilan ifadalanadi. Shin harfi tasviriy shakldagi yozuvning shinn – tish deb nomlangan tasviridan kelib chiqqan.

ش و ص

ص (sod) harfi – o`zbek tilidagi “s” tovushiga yaqin keladi. Arab tilidan kirib kelgan so`zlarda uchraydi, til orqa undoshi. Har ikkala tomondan qo`shiladi. 4 xil shaklda keladi. Sodning so`z boshidagi va so`z o`rtasidagi shakllari satr chizig`ida yoziladi. Qolgan ko`rinishlari satr chizig`idan pastga tushadi. Sod harfining bosma va yozma shakllarida unchalik farq yo`q.

ض (zod) harfi – o`zbek tilidagi “z” tovushiga yaqin keladi. Ustidagi nuqtasi bilan sod harfidan farq qiladi. Bu ham til orqa tovushi bo`lib, arab tilidan o`zlashgan so`zlarda uchraydi. Har ikkala tomondan qo`shiladi.

Sod va zod harflarining yozma va bosma shakllari bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Ko`pincha bir tomondan qo`shiluvchi harflarga mingashtirib yoziladi.

Eslatma: ص (zod) harfini arablar ض (zod) deb yuritishadi va (dz) tarzida talaffuz qilishadi: ضرب - dzarb, ضرب - dzaraba.

Muhokama uchun savollar:

1. س harfini ta`riflab bering.
2. ش harfining xos xususiyatlari haqida gapiring.
3. Bosma va yozma shaklidagi farqini tushintirib bering.
4. ص va ض harflarini tavsiflab bering.
5. Arablar bu tovushni qanday talaffuz qiladilar?

6. Bosma va yozma shakllari qanday yoziladi?

7. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va yozing.

شب، اسب، پسر داداش، شیراز، دیشب، شیراز، آش، سبز، استاد، آسمان، استان، شیرین، سیب، آشنا، دوست، شش، درست، آسیا، شتر، پسر، ساز، سی.

8. Quyidagi soʻzlarni fors yozuvida yozing.

Oshno, pesar, sabz, do‘ro‘st, dust, sar, ustod, oson, Osiyo, sho‘to‘r, dishab, sir

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1) Oʻtilgan harflar ishtirokida oʻnta soʻz toping va fors oʻzbek alifbosida yozing.

2) س (sin) va ش (shin) harflarining qoʻlyozma kitoblarga xos shakllarini 4 qatordan yozib chiqing.

3) Ushbu harflarni oʻzaro bogʻlagan holda soʻzlar yasang:

4) Lugʻatdan foydalangan holda sod va zod harflari ishtirok etuvchi soʻzlardan oʻntasini yozib oling.

5) ص va ض harflarining turli xil yozilish shakllarini uch qatordan yozib mashq qiling.

Test.

1. س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari qanday yoziladi?

A. Satr tepasida yozilib, pastga tushadi. B. Satr chizigʻi ustida yoziladi. S. Satrdan pastda yoziladi. D. Toʻgʻri javob yoʻq.

2. Sin, shin bir xil oʻzakli harflar bir-birlaridan nimasi bilan farqlanadi?

A. Tepasidagi nuqtalari bilan farqlanadi. B. Shakli bilan farqlanadi. S. Yozilishi bilan. D. Toʻgʻri javob yoʻq.

3. س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari necha xil koʻrinishga ega boʻladi?

A. 4 xil B. 2 xil S. 7 xil D. 1 xil

4. س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari qanday harflar sirasiga kiradi?

A. Har ikki tomondan qoʻshiluvchi harflar.
B. Ozidan keyingi harfga qoʻshilmaydigan harflar.
C. Bir tomondan qoʻshiluvchi harflar. D. Toʻgʻri javob yoʻq.

5. Dol va zol harflari qanday farqlanadi?

A. Tepasida 1 nuqta bilan. B. Tepasida 2 ta nuqta bilan
B. Pastdagi nuqtasi bilan. D. Farqlanmaydi

Mavzu boʻyicha asosiy xulosalar:

- س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari متصل (moʻttasil) harflar guruhiga kiradi
- س (sin) ش (shin) ص (sod) va ض (zod) harflari 4 xil koʻrinishga ega
- ص (sod) til orqa tovushi boʻlib, arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi.

Informatsion-uslubiy taʼminot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2007.
2. Abdusamatov M. "Siz forscha so 'zlashasizmi?" –T., O 'qituvchi, 1971

Qo 'shimcha adabiyotlar:

1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
3. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: “ ط (to) va ظ (zo) harflari”

REJA:

1. ط (to yoki itqi) harfining tavsifi.
2. ظ (zo yoki izg`i) harfining tavsifi.
3. Bosma va yozma shaklidagi farqi.

Darsning maqsadi: Talabalarga ط (to) va ظ (zo) harflarning yozilish shakllari va o`qilishi haqida ma'lumot berish.

Identiv maqsadlar:

- ط (to) va ظ (zo) harflari haqidatushunchaga egabo'ladi.
- ط (to) va ظ (zo) harflario 'qilishini biladi.
- Harflarning so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rta, so'z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko'rgazmali qurol va tarqatma material.

ط (to yoki itqi) o'zbek tilidagi t harfiga yaqin keladi. O'ng va chap tomondan kelgan harflarga bog'lanadi. Satr chizig`ida yoziladi. Arab tilidan kirib kelgan so'zlarda uchraydi. To`rt xil shaklda keladi:

طططط

ظ (zo yoki izg`i) o'zbek tilidagi z harfiga yaqin keladi. Har ikki tomondan kelgan harflarga qo'shiladi. To`rt xil shaklda keladi:

ظظظظ

Bu harf ham til orqa undoshi, u arab tilidan kirgan so'zlardagina ishlatiladi. Bu harf ham satr chizig`idan yoziladi:

ظ

To dan farqli o'laroq zo harfining ustiga bir nuqta qo'yiladi. To va zo harflarining tik tushgan chizig`i qo'lyozma manbalarda harfning asosiy qismi bilan bog'lanmasdan yozib ketiladi.

Muhokama uchun savollar:

1. ط (to) harfini ta'riflab bering.
2. ظ (zo) harfining tovush xususiyatlarini gapiring.
3. ط (to) ning ت (te) harfidan qanday farqli jihati bor?

4. ظ (zo) harfi ز (ze) harfidan qanday farq qiladi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) tosh tib tarroh tarab soʻzlarini arab imlosida yozing.
- 2) ط va ظ harflarining har bir koʻrinishini uch qatordan yozing.
- 3) ظ va ط harflarini alif, te va re harflari bilan bogʻlangan holda bir necha qatordan yozib chiqing.

Test.

1. ط va ظ harflari qanday harflar guruhiga kiradi?
A. متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi. B.
B. منفصل (munfasil) harflar guruhiga kiradi.
C. Bir tomonlama ulanadigan harflarga kiradi. D. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. ط va ظ harflari eski oʻzbek yozuvida qanday ataladi?
A. Itqi va izgʻi deyiladi. B. To va zo deyiladi.
S. Bir xil aytiladi. D. Barcha javoblar notoʻgʻri.
3. To va zo harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Har ikki tomondan qoʻshiluvchi harflar.
B. Ozidan keyingi harfga qoʻshilmaydigan harflar.
C. Bir tomondan qoʻshiluvchi harflar. D. Toʻgʻri javob yoʻq.
4. ط va ظ harflari yozuvda necha xil koʻrinishda boʻladi.
A. 4 xil B. 3 xil S. 2 xil D. 1 xil.
5. iralfrah oz av oT متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradimi?
A. Ha, kiradi. B. Yoʻq, kirmaydi.
B. Munfasil harfga kiradi. D. Toʻgʻri javob yoʻq.

Mavzu boʻyicha asosiy xulosalar:

- ط (to) va ظ (zo) متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi
- ط (to) va ظ (zo) 4 xil koʻrinishga ega
- ط (to) va ظ (zo) arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi.

Informatsion-uslubiy taʼminot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2007.
2. Abdusamatov M. "Siz forscha soʻzlashasizmi?" –T., Oʻqituvchi, 1971
Qoʻshimcha adabiyotlar:
1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
3. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: “ ع (ayn) va غ (gʻayn) harflari”

REJA:

1. ع (ayn) harfining taʼrifi va tavsifi.
2. غ (gʻayn) harfining yozilishi va oʻqilishi.
3. Bosma va yozma shakllari haqida

Darsning maqsadi: Talabalarga ع (ayn) va غ (g`ayn) harflarning yozilish shakllari va o`qilishi haqida ma'lumot berish.

Identiv maqsadlar:

- ع (ayn) va غ (g`ayn) harflari haqidatushunchaga egabo 'ladi.
- ع (ayn) va غ (g`ayn) harflario 'qilishinibiladi.
- Harflarning so'zdagi o'rniga ko'rsatib berish, so'z o'rtasida, so'z oxirida va so'z boshida qo'yilish shakllarini ifodalaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko'rgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

ع (ayn) harfi – o'zbek tilidagi “ a' i' u' ” tovushiga mos keladi. Har ikkala tomondan qo`shiladi. Satr chizig`ida yoziladi. 4 xil shaklda yoziladi: ع

1. So'z boshida, o'rtasida kelganda “ a o i u ” tovushlarini ifodalaydi:
2. So'z oxirida kelganda ham arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan so'zlarda “a' I' u' ” tovushlarini ifodalaydi:

3. So'z oxirida kelganda ko`pincha “a” unlisini ifodalab keladi, bunda u “alif” bilan vazifa o'taydi.

4. Ba'zi so'zlarda “o” tovushini ifodalaydi, buning uchun yozuvda aynga alif harfi qo`shib yozilishi shart:

Bunda ko`pincha bajaruvchi: عالم olim, عادل oqil, عاشق oshiq, عاسى osiy (gunohkor), عازز oraz (yuz), عامى omi (savodsiz), عارف orif (dono, bilimdon)

Ayn so'z ichida “a” va “i” unlisidan keyin kelsa ham ayirish belgisini ifodalaydi:

معرفت ma'rifat, نعمت ne'mat, عيد 'iyd (hayit)

عسا a'so (hassa)

Ayn so'z tarkibida yopiq bo`g`indan keyin kelsa, ko`pincha bo`g`inni oldingisidan ajratadi va hozirgi yozuvda ayirish belgisi bilan (‘) ko`rsatiladi.

سرعت sur'at, بدعت bid'at, صنعت san'at, خلعت xil'at, سنعى sun'iy

So'z oxirida kelgan ayn esa talaffuz etilmaydi:

منع man', شمع sham, تابع tobe, تمنع tama, جامع jome' مانع mone', تالع tole', نفع naf', جمع jam'.

غ (g`ayn) harfi – o'zbek tilidagi “g” tovushini ifodalaydi. ع (ayn) ning ustiga bir nuqta qo`yilsa, غ (g`ayn) hosil bo`ladi.

Har ikkala tomondan qo`shiladi: to`rt xil yozilish shakli mavjud: غغغ

Fors tilida hozir q harfi bilan yoziladigan so'zlar g` talaffuz qilingan va yozilgan:

اچىق achchig` (q), بلىق balig` (q), قاتتىق qattig` (q)

Muhokama uchun savollar:

1. ع (ayn) harfining o`ziga xos xususiyatlari.

2. غ (g`ayn) harfini ta`riflab bering.
3. Lug`atdan mazkur harflar ishtirok etgan so`zlarni topib fors o`zbek alifbosida yozing.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Faqat manna bu harflardan foydalanib, qanday so`zlar yasay olasiz?
- 2) Tubandagi so`zlarni fors o`zbek alifbosida yozib chiqing:
shior, or, arz, g`ubor, bog`, tig`, g`azot, g`arb, g`or, shoir, bag`ir, g`urbat, atr, shijoat, she`r.

Test.

1. Ayinva g`ayn harflari qanday harflar guruhiga kiradi?
 - A. متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi.
 - B. منفصل (munfasil) harflar guruhiga kiradi.
 - C. Bir tomondan ulanadigan harfga kiradi.
 - D. Barcha javoblar to`g`ri.
1. غ va غ harflari qanday ataladi?
 - A. Itqi va izg`i deyiladi.
 - B. To va zo deyiladi.
 - S. Bir xil aytiladi.
 - D. Barcha javoblar noto`g`ri.
2. غ (ayn) va غ harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
 - A. Har ikki tomondan qo`shiluvchi harflar.
 - B. Ozidan keyingi harfga qo`shilmaydigan harflar.
 - C. Bir tomondan qo`shiluvchi harflar.
 - D. To`g`ri javob yo`q.
3. غ (ayn) va غ (ayn) harflari yozuvda necha xil ko`rinishda bo`ladi.
 - A. 4 xil
 - B. 3 xil
 - S. 2 xil
 - D. 1 xil.
5. غ (ayn) va غ (ayn) iralfrah متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradimi?
 - A. Ha, kiradi.
 - B. Yo`q.
 - S. Munfasil harfga kiradi.
 - D. To`g`ri javob yo`q.

Mavzu bo`yicha asosiy xulosalar:

- غ (g`ayn) ع (ayn) متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi
- غ (g`ayn) ع (ayn) 4 xil ko`rinishga ega
- ع (ayn) arab tilidan o`zlashgan so`zlarda uchraydi.

Informatsion-uslubiy ta`minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. Fors tili. –T., 2007.
2. Abdusamatov M. Siz forscha so`zlashasizmi? –T., O`qituvchi, 1971
Qo`shimcha adabiyotlar:
3. Habibullo Solih. Alifbo. Toshkent, 1989

Mavzu: “ ف (fe) va ق (qof) harflari”

REJA:

1. ف (fe) harfining ta`rifi va tavsifi.
2. ق (qof) harfining yozilishi va o`qilishi.

3. Bosma va yozma shakllari haqida.
4. Lug`at ustida ishlash

Darsning maqsadi: Talabalarga ف (fe) va ق (qof) harflarning yozilish shakllari va o`qilishi haqida ma`lumot berish.

Identiv maqsadlar:

- ف (fe) va ق (qof) harflari haqida tushunchaga ega bo`ladi.
“ ف (fe) va ق (qof) harflari”
- o`qilishini biladi.
- Harflarning so`zdagi o`rniga ko`ra so`z boshi, so`z o`rta, so`z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko`rgazmali qurol va tarqatma material.


Mavzu bayoni:

ف (fe) harfi – o`zbek tilidagi “f” tovushiga mos keladi. Har ikkala tomondan qo`shiladi. Satr chizig`ida yoziladi, ustida bitta nuqtasi bo`ladi. 4 xil shaklda yoziladi:

Yozma asarlarida ف (fe) ning so`z o`rtasidagi shakli ko`pincha (g`ayn) harfining so`z orasidagi shakliga o`xshatib yozib ketiladi:

Ularning o`zaro farqlarini kontekstdan kelib chiqqan holda anglash mumkin.

ق (qof) harfi qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi qof – ignaning ko`zi belgisi asosida hosil qilingan. Arabcha „fe“ va yevropacha „Ф“, harflari ham shu belgi asosida yaratilgan.



ق (qof) harfi – o`zbek tilidagi “q” tovushini ifodalaydi. Ikki tomondan qo`shiladi. 4 xil ko`rinishda keladi. Qof ning yakka hamda so`z oxiridagi shakllari satr chizig`idan pastga tushirib yoziladi. Ustiga ikki nuqta qo`yiladi:

Yozma manbalarda qof harfi ustidagi ikki nuqta qo`shilib yoxud kichkina chiziqcha bilan ifodalab ketilaveradi. Ayrim hollarda ikki nuqta harfning qayrilish chizig`i bilan qo`shib yoziladi.

Muhokama uchun savollar:

1. ف (fe) harfini ta`riflab bering.
2. ق (qof) harfining tavsifi.
3. Yozma shakllarining qanday o`ziga xos belgilari bor?
4. O`tilgan harflar ishtirokida qanday so`z va bo`g`inlar tuza olasiz?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Mazkur harflardan foydalanib so`zlar yasang:
- 2) Quyidagi so`zlarni arab alifbochida yozing: صفرا- safro لفظ- lafz (so`z ifoda) لطيف- latif (nozik, muloyim) شيفا shifo.

3) Lugʻatdan ف (fe) va ق (qof) ishtirok etgan soʻzlarni topib arab alifbosida yozing.

Test.

1. ف (fe) va ق (qof) harflari qanday harflar guruhiga kiradi?
A. متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi.
B. منفصل (munfasil) harflar guruhiga kiradi.
C. Bir tomonlama ulanadigan harflarga kiradi. D. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. ف va ق harflari eski oʻzbek yozuvida qanday ataladi?
A. Fe va qof deyiladi. B. To va zo deyiladi.
S. Bir xil aytiladi. D. Barcha javoblar notoʻgʻri.
3. ف (fe) va ق (qof) harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Har ikki tomondan qoʻshiluvchi harflar.
B. Ozidan keyingi harfga qoʻshilmaydigan harflar.
C. Bir tomondan qoʻshiluvchi harflar. D. Toʻgʻri javob yoʻq.
4. ف (fe) va ق (qof) harflari yozuvda necha xil koʻrinishda boʻladi.
A. 4 xil B. 3 xil S. 2 xil D. 1 xil.
4. ف (fe) va ق (qof) harflari متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradimi?
A. Ha, kiradi. B. Yoʻq, kirmaydi.
B. Munfasil harfga kiradi. D. Toʻgʻri javob yoʻq.

Mavzu boʻyicha asosiy xulosalar:

- ف (fe) va ق (qof) متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi
- ف (fe) va ق (qof) 4 xil koʻrinishga ega
ف (fe) ning soʻz oʻrtasidagi shakli koʻpincha (gʻayn) harfining soʻz orasidagi shakliga oʻxshatib yozib ketiladi.

Informatsion-uslubiy taʼminot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2007.
 2. Abdusamatov M. "Siz forscha soʻzlashasizmi?" –T., Oʻqituvchi, 1971
- Qoʻshimcha adabiyotlar:
1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
 2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
 3. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: ک (kof) va گ (gof) harflari

REJA:

1. ک (kof) va گ (gof) harflarining oʻziga xos xususiyatlari.
2. Bosma va yozma shakllari haqida.
3. Lugʻat ustida ishlash.

Darsning maqsadi: Talabalarining ک (kof) va گ (gof) harflari bilan soʻz yozish va oʻqish koʻnikmalarini oshirish.

Identiv maqsadlar:

- ك (kof) va گ (gof) harflari haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- ك (kof) va گ (gof) harflarini o'qilishini biladi.
- Harflarning so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rti, so'z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko'rgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

ك (kof) harfi o'zbek tilidagi "k" tovushini ifodalaydi. Har ikki tomondan keluvchi harflarga bog'lanadi. 4 xil ko'rinishda yoziladi:

ككك

Kof so'z oxirida kelganda quyidagicha yoziladi: ك

Ba'zi manbalarda kof harfi so'z boshida quyidagicha ifodalanadi: ك

Qo'lyozma kitoblarda kofning alif bilan bog'langan holati quyidagidek yoziladi:

گ (gof) harfi o'zbek tilidagi "g" tovushini bildiradi. Har ikki tomondan qo'shiladi. Satr chizig'ida yoziladi, 4 xil ko'rinishda keladi: گ گگگ

Odatda, fors o'zbek yozuvida gof harfi yozilmasdan, uning o'rniga kof harfi qo'llanavergan. Qo'lyozmada gof bilan kof harflarining ا (alif) va

ل (lom) bilan birikuvi tubandagicha holatda uchraydi: گلگا

Arabcha kof va yevropacha „k“ harflari qadimgi

سومي tasviriy yozuvdagi kapp – kaft tasviri asosida hosil bo'lgan.

Muhokama uchun savollar:

1. ك kof harfini ta'riflab bering.
2. گ gof harfi haqida so'zlab bering.
3. Qo'lyozma asarlarda ushbu harflar qanday holatda uchraydi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) O'zingiz mustaqil ravishda gof va kof harflari ishtirok etuvchi so'zlardan topib yozing.
- 2) Kof bilan gof harflarining alif va lom bilan birikmasini uch qatordan ko'chirib yozing.
- 3) Lug'atdan kof va gof harflari so'zning turli o'rinlarida kelgan so'zlarni topib arab alifbosida yozing.

Test.

1. ك (kof) va گ (gof) harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
 - A. Satr chizig'ida yoziladigan harf.b.
 - B. Satrda boshlanib satrdan pastga tushadi.

- C. Satrdan chizig'idan pastda yoziladi. D.To'g'ri javob yo'q.
2. ك (kof) va گ (gof) harflari yozuvda necha xil ko'rinishda yoziladi?
A.4 xil B. 3 xil S. 2 xil D.1 xil.
 3. K of va gof harflari qanday farqlanadi?
A. Tepasidagi nuqtalar soni bilan farqlanadi.
B. Nuqtalarning soni va o'rni bilan farqlanadi.
C. Tepasida 2 ta nuqta bilan. D.Pastdagi nuqtasi bilan
 4. ك (kof)va گ (gof) harflari o'zidan keyingi harfga qo'shilib yoziladimi?
A. Ha. B.Yo'q. S.Qo'shilmaydi. D.To'g'ri javob yo'q.
 5. گ (gof) harfi qanday harf?
A. Forslar tomonidan kiritilgan harf.
B. Arablar tomonidan kiritilgan harf.
C. Fors-arab alifbosidagi harf. D.To'g'ri javob yo'q.

Informatsion-uslubiy ta'minot

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M." Fors tili". –T., 2007.
- 2.Abdusamatov M. "Siz forscha so'zlashasizmi?" –T., O'qituvchi, 1971

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2006.
- 2."Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
- 3.Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: " ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflarining yozilishi va o'qilishi"

REJA:


1. ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflarining batafsil tavsifi.
2. Bosma va yozma shakllari.
3. Lug'at ustida ishlash.

Darsning maqsadi: Talabalarni ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflarning yozilishi va o'qilishi bilan tanishtirish.

Identiv maqsadlar:

- ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflari haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflarini o'qilishini biladi.
- Harflarning so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, so'z o'rta, so'z oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - ko'rgazmali qurol va tarqatma.



Lom harfi tasviriy yozuvdagi lamd – hasa, aso belgisi asosida yaratilgan. Kirill yozuvidagi „Л,, harfiga, yunoncha lyamda ham shu shakl asos hosil bo‘lgan.

ل (lom) harfi o‘zbek tilidagi “l” harfiga mos keladi. Har ikki tomondan qo‘shiladi. 4 xil ko‘rinishda keladi: ل لل

Bu harfning yakka holati hamda so‘z oxiridagi ko‘rinishi satr satr chizig‘idan pastga tushirib yoziladi. Bosma xat turida lom harfi alif bilan bog‘langan holatda yozma nusxadagi ko‘rinishlari ل dan farq qiladi. Unda lom hamda alif harflari bog‘lanish o‘rnida م (mim) harfiga o‘xshash dumaloq shakl hosil bo‘ladi: لا (lo)



Mim harfi eng qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi maw – suv belgisidan kelib chiqqan.

م (mim) harfi o‘zbek tilidagi “m” harfini ifodalaydi. Har ikki tomondan qo‘shiladi. 4 xil shaklga ega: ممم

Mimning alohida م hamda so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushirib yoziladi.

Mim harfining bosma va yozma shakllarida unchalik farq yo‘q. Bosmada م mimning dumaloq qismi siyoh bilan chaplanmasdan mitti doiracha shaklida yoziladi. Yozmada esa siyoh bilan chaplanib yoziladi. Qo‘lyozmalarda ko‘pincha mim harfi bir tomondan qo‘shiluvchi harflarning ustiga mingashtirib yoziladi:

م حرم haram, م تام tom

ن (nun) harfi o‘zbek tilidagi “n” tovushini ifodalaydi. Har ikkala tomondan qo‘shiladi. 4 xil shaklga ega: ننن

Ushbu harfning mustaqil holatdagi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlari satr chizig‘idan tushirib yoziladi. ننن

Hattotlar nun harfini turli xil shakllarda bitganlar. So‘z oxirida kelganda yoy shaklida yozilib, ustiga bir nuqta qo‘yiladi:

ن - n, ن دان - dan

Ba’zi hollarda nunning nuqtasi harfning asosiy qismiga qo‘shilib yoziladi: - chin چين

Muhokama uchun savollar:

1. ل (lom) harfining yozilishi haqida gapiring.
2. م (mim) harfini ta’riflab bering.
3. ن (nun) harfining yozma shakli qanday yoziladi?
4. Mustaqil ravishda so‘z topib, arab alifbosida yoza olasizmi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Mazkur harflardan foydalanib so‘zlar yasang:
- 2) Quyidagi so‘zlarni fors o‘zbek alifbosi asosida yozing: malol, mahkam, rahm, amal, kamol, meros, tamosha, malham, komil, jamol.

3) ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflarining turli shakllarini uch qatordan yozib chiqing.

Test.

1. (lom), م (mim) va ن (nun) harflari qanday harflar guruhiga kiradi?
A. متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi.
B. منفصل (munfasil) harflar guruhiga kiradi.
C. Bir tomonlama ulanadigan harflarga kiradi.
D. Barcha javoblar to'g'ri.
2. ل, م va ن harflari eski o'zbek yozuvida qanday ataladi?
A. Lom, mim va nun deyiladi.
B. Alif, lom va mim deyiladi.
C. Nun, vov, lom aytiladi.
D. Barcha javoblar noto'g'ri.
3. ل (lom), م (mim) va ن (nun) harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Har ikki tomondan qo'shiluvchi harflar.
B. Ozidan keyingi harfga qo'shilmaydigan harflar.
C. Bir tomondan qo'shiluvchi harflar.
D. To'g'ri javob yo'q.
4. (lom), م (mim) va ن (nun) harflari yozuvda necha xil ko'rinishda yoziladi?
A. 4 xil B. 3 xil S. 2 xil D. 1 xil.

Informatsion-uslubiy ta'minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. Fors tili. –T., 2007.
2. Abdusamatov M. Siz forscha so'zlashasizmi? –T., O'qituvchi, 1971
3. Habibullo Solih. Alifbo. Toshkent, 1989

Mavzu: “ و (vov) va ی (yo) harfining yozilishi va o'qilishi”

REJA:

1. و (vov) va ی (yo) harflarining o'qilishi, bosma va yozma shakllari.
2. Harfning tovush bildirish xususiyatlari.

Darsning maqsadi: Talabalarni و (vov) va ی (yo) harfining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

Identiv maqsadlar:

- و (vov) va ی (yo) harflari haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- و vov va ی (yo) harflari o'qilishini biladi.

- Harflarning soʻzdagi oʻrniga koʻra soʻz boshi, soʻz oʻrtasi, soʻz oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - koʻrgazmali qurol va tarqatma.

Mavzu bayoni:

و (vov) harfi oʻzidan oldingi harfga qoʻshiladi, keyingisiga qoʻshilmaydi. Ikki xil koʻrinishga ega: alohida - و , bogʻlangan – بو

Satr chizigʻidan pastga tushirib yoziladi. Bir necha tovushni ifodalaydi:

1. Soʻz boshida yakka oʻzi kelganda hamma vaqt, soʻz orasi va oxirida unidan keyin “v” undoshini bildiradi:

2. Soʻz orasi va oxirida undoshdan keyin kelib qattiq va yumshoq “u – u”, “o – e” unlilarini ifodalaydi:

3. و (vov) harfi soʻz boshida “u” va “o” unlilari vazifasida kelganda vov harfi oldida ا (alif) yozilishi shart. Masalan: اوروش, u- urush

و (vov) harfi qoʻlyozma asarlarda koʻpincha dolga oʻxshaydi.

ی (yo) harfi oʻzbek tilidagi “y” undoshni, “i”, “e” unlilarni “iy” tovush birikmasini hamda “ye”, “yo”, “yu”, “ya” harflarini ifodalashga xizmat qiladi.

Har ikkala tomondan qoʻshiladi, 4 xil shakli mavjud: ییی

1. Soʻz boshida yakka oʻzi kelsa, “y”, “e”, “ya” harflarini ifodalaydi:

بخشی yaxshi, یالیم yolim, یول yoʻl

“e” (ye) unlisini hamda “yi” (yoki “iy”) harf birikmasini ifodalasa ikki tishli qilib ham yozilishi mumkin: ییلیم - elim (y) - ییل - yil, یتیم - etim

“e”, “y”, “ya” harflari soʻz oʻrtasi va oxirida kelganda toʻgʻridan - toʻgʻri

(yo) harfining oʻzi qoʻshimcha belgilersiz yoziladi: مویسر - muyassar

تیریم - terim

2. Soʻz boshida “i” yoki “e” vazifasida kelganda, oldidan “alif” yozilishi shart. Koʻpincha yozuvda (alifdan) keyin (yo) tushib qoladi, lekin oʻqishda, albatta (yo) talaffuz qilinadi.

انکار - inkor, اقرار - iqrar, ایرتک - ertak

“i” va “e” soʻz oʻrtasi va oxirida kelganda “alif” tushib qolib, oʻzi yoziladi:

مین - men, تیریک - tirik

3. e (ye) ییا yo (yo)

یه ya(ya) یو yu (yu)

4. iy – tovush birikmasini anglatadi:

منفی - manfiy, علمی - ilmiy, سیاسی - siyosiy

Muhokama uchun savollar:

1. و (vov) harfining yozilishi haqida soʻzlab bering.
2. و (vov) harfi soʻz boshida qanday tovushni ifodalaydi?
3. و (vov) harfi soʻz oʻrtasi va oxirida qanday tovushni ifodalaydi?
4. و (vov) harfi qoʻlyozma asarlarda qanday qanday koʻrinishda uchraydi?
5. ی (yo) harfining soʻz boshida yozilishi haqida soʻzlang.
6. ی (yo) harfining soʻz oʻrtasida yozilishiga misollar keltiring.
7. ی (yo) harfining soʻz oxirida kelishiga misollar keltiring.
8. ی (yo) harfining oʻziga xos xususiyatlari haqida soʻzlang.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Soʻz boshida “u” va “o” qatnashgan 6 ta soʻz yozing.
- 2) Soʻz oxirida (vov) qatnashgan 6 ta soʻz yozing.

Test.

1. و (vov) va ی (yo) harflari qanday harflar sirasiga kiradi?
A. Satrda boshlanib satrdan pastga tushadi.
B. Satrdan chizigʻidan pastda yoziladi.
C. Satr chizigʻida yoziladigan harf.
D. Toʻgʻri javob yoʻq.
2. و (vov) harfi yozuvda necha xil koʻrinishda yoziladi?
A. 2 xil B.4 xil S.3 xil D.1 xil
3. ی (yo) harfi oʻzidan keyingi harfga qoʻshilib yoziladimi?
A. Ha. B.Yoʻq. S.Qoʻshilmaydi. D.Toʻgʻri javob yoʻq.
4. و (vov) harfi oʻzidan keyingi harfga qoʻshilib yoziladimi?
A. Yoʻq. B.Ha. S.Qoʻshilmaydi. D.Toʻgʻri javob yoʻq.
5. و vov harfi qanday harf?
A. Forslar tomonidan kiritilgan harf.
B. Arablar tomonidan kiritilgan harf.
C. Fors-arab alifbosidagi harf. D.Toʻgʻri javob yoʻq.

Informatsion-uslubiy taʼminot

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Abdusamatov M. Fors tili. –T., 2007.
- 2.Abdusamatov M. Siz forscha soʻzlashasizmi? –T., Oʻqituvchi, 1971

Mavzu: “ و (hoʻyi havvaz) harfining yozilishi va oʻqilishi”

REJA:

1. و (hoʻyi havvaz) harfining tavsifi.
2. Yozma manbalarda و (hoʻyi havvaz) harfining ifodalanishi.
3. Lugʻat ustida ishlash

Darsning maqsadi: Talabalarga (hoʻyi havvaz) harfining yozilish shakllari va oʻqilishi haqida maʼlumot berish.

Identiv maqsadlar:

- (hoʻyi havvaz) harfi haqida tushunchaga ega boʻladi.
- (hoʻyi havvaz) harfining oʻqilishini biladi.
- Harflarning soʻzdagi oʻrniga koʻra soʻz boshi, soʻz oʻrta, soʻz oxiri va alohida shakllarini farqlaydi.

Darsning jihozi: Darslik kitob, harflar jadvali - koʻrgazmali qurol va tarqatma material.

Mavzu bayoni:

◦ (hoi havvaz) harfi – o`zbek tilidagi “h” va “a” harflarini ifodalaydi. Har ikkala tomondan qo`shiladi. 4 xil ko`rinishga ega: هههه

Satr chizig`ida yoziladi.

1. So`z boshida, o`rtasida kelganda “h” tovushini ifodalaydi:

هميشه hamisha, مهر mehr, قهر qahr

2. So`z oxirida kelganda ham arab va fors-tojik tillaridan o`zlashgan so`zlarda “h” tovushini ifodalaydi:

شاه shoh, ماه moh, توجه tavajjuh

3. So`z oxirida kelganda ko`pincha “a” unlisini ifodalab keladi, bunda u “alif” Bilan bir xil vazifa o`taydi:

ناديره nodira, پاره pora, ناله nola, كولچه kulcha.

4. So`z oxirida kelganda hozirgi tilimizdagi fors tili orqali kirib kelgan ba`zi so`zlarda “i” (aslida “e”) harfini ham ifodalab kelishi kuzatiladi:

چونكى chunki, كيمكى kimki, بلكى balki

Hoyi havvaz harfining bosma va yozma shakllari bir-biridan farq qiladi.

So`z boshidagi bosma shakli: ه

Yozma holda: ه هـ - hijron kabi.

So`z o`rtasidagi shakli bosmada: ه

Yozma xolatda: هـ nahr

So`z oxiridagi shakli bosmada:

Yozma holatda: هـ bola


Hoye havvaz asosan “h” undosh harfini ba`zan so`z oxirida „e“ unli harfini ifodalaydi. Hoye havvaz to`rt ko`rinishga ega: ه ه ه هـ

so`z oxiri.	so`z o`rtasi.	so`z boshi.	alohida	talaffuzi.
ه	ه	ه	ه	h

He harfining so`z boshidagi, o`rtasidagi ko`rinishida bir chiziq harfning o`rtasidan o`tib o`zidan keyingi harfga ulanadi. Shunda "h" harfida ikki ko`z hosil bo`ladi. Shuning uchun fors tilida bu harfni "هـى دو چشم" (ikki ko`zli he) deb atashadi.

Nastaliq yozuvida hoye havvaz so`z boshida bir tish ostida vergulga o`xshash belgi qo`yish bilan, so`z o`rtasida faqat satr ostida, so`z oxirida esa satr chizig`ida yoziladi.

Hoye havvaz harfi („a“ shakl) eramizdan oldingi ikki minginchi yillarda misr ieroglifi asosida („b“ shakl) yaratildi. Eramizdan oldingi birinchi ming yillikda shakli



a)

b)

b)

г)

o`zgarib shimoloy – somiy yozuvida („B“–shakl) shakliga ega bo`ladi. Keyingi o`zgarishlar asosida lotincha „E“ harfi paydo bo`ladi (r – shakl). Somiy alifbosida esa „h“ tovushini ifodalaydi. Yunonlar bu harfni „e“ unli harfini ifodalashga moslashtiradilar.

Muhokama uchun savollar:

1. ◦ (hoi havvaz) harfini ta`riflab bering.
2. Bosma va shakllari haqida gapirib bering.
3. ◦ (hoi havvaz) harfining o`ziga xos xususiyatlarini gapirib bering

4. O`tilgan harflar ishtirokida qanday so`z va bo`g`inlar tuza olasiz?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi so`zlarni o`qing va yozing.

سياه، بهار، ناهار، شهر، تهران، آنها، ده، واسه، پيراهن، هوا، راهرو، نهار، واژه، به، اينها،
تشنه، راه، هر، بهتر، آهن، نشانه.

2. Quyidagi so`zlarni fors yozuvida yozing.

Deh, shahr, Tehron, havo, onho, pirohan, rohro`u, nahor, teshne, nevisande, roh.

3. Mazkur arab alifbosida yozing: tola, poda, xona, bechora, humo, mehmon, mohir, hajv, ho`kiz, hush, baho, hid, haykal

4. Mustaqil ravishda so`z yasang.

Test.

1. ◦ (hoi havvaz) harfi qanday harflar guruhiga kiradi?

- A. متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradi.
- B. منفصل (munfasil) harflar guruhiga kiradi.
- C. Bir tomonlama ulanadigan harflarga kiradi.
- D. Barcha javoblar to`g`ri.

2. ◦ harfi qanday ataladi?

- A. Hoi havvaz deyiladi.
- B. Hoye hutti deyiladi.
- S. He aytiladi.
- D. Barcha javoblar noto`g`ri.

3. ◦ (hoi havvaz) harfi yozuvda necha xil ko`rinishda bo`ladi.

- A. 4 xil B. 3 xil S. 2 xil D. 1 xil.

4. ◦ (hoi havvaz) harfi متصل (muttasil) harflar guruhiga kiradimi? A. Ha. B. Yo`q. S. Qo`shilmaydi. D. To`g`ri javob yo`q.

Informatsion-uslubiy ta`minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2006.

2. Abdusamatov M. "Siz forscha so`zlashasizmi?" –T., O`qituvchi, 1971

Qo`shimcha adabiyotlar:

3. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989

Mavzu: Mo`ttasil va mo`nfasil harflar

Reja:

- 1. Harflarni ikki guruhga : Mo`ttasil va mo`nfasil harflar guruhiga ajratish.
- 2. Mo`nfasil (ayrilgan) harflarni 2 xil shaklini yozib mashq qilish.
- 3. Mo`ttasil (qo`shilgan) harflarni 4 xil shaklini yozish, mashq qilish.

Dars maqsadi:

Mo`ttasil (qo`shilgan) va mo`nfasil (ayrilgan) harflar haqida ma`lumot berish.

Identiv o`quv maqsadlari:

- 1. O`zidan oldingi harfga qo`shilib, keyingisiga qoshilmaydigan harflarni ajrata oladi.

2. Har ikki tomondan qo‘shilib yoziladigan harflar yozuvda 4 xil shaklda bo‘lishini biladi.
3. Mo‘ttasil harflar 25 ta va mo‘nfasil harflar 7 ta ekanligini biladi va bir-biridan farqlaydi.

Kerakli jihozlar: alifbo, darslik, doska, bo‘r.

Mavzu bayoni:


1. Mo‘ttasil harflar. O‘zidan oldingi va keyingi harflarga qo‘shilib yoziladigan harflar 4 xil shaklda yoziladi.

ب، ت، ث، پ، ج، چ، ح، خ، س، ش، ص، ض، ط، ظ، ع، غ، ف، ق، ك، گ، ل، م، ن، ه، ی

2. Mo‘nfasil harflar. Mazkur harflar o‘zidan oldingi harfga qo‘shiladi, o‘zidan keyingi harfga qo‘shilmaydi va yozuvda 2 xil shaklga ega bo‘ladi.

ا، د، ذ، ر، ز، ژ، و

Arabcha, ruscha va lotincha harflarning kelib chiqish asosi bittadir. Ular eng qadimgi somiy alifbosidan oldingi tasviriy yozuv asosida yaratilgandir. Arabcha alif ruscha „A“ va grekcha „a“ alfa qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi alp– ho‘kizning boshi tasviridan kelib chiqqan. Alif tasviriy yozuvdagi ho‘kiz shoxlarini bir-biriga bog‘lab turuvchi vertikal (tik) chiziq asosida, ruscha va lotincha „A“ ga esa ho‘kiz boshi, tumshug‘i va shoxlarini birlashtirib turuvchi cho‘ziq asosida shakllangan. Dol harfi tasviriy yozuvdagi dalt – eshik va re harfi esa ra’sh – bosh (odamning boshi) tasviri asosida paydo bo‘lgan.



Zol, re, ze harflari esa yuqoridagi harflarga

nuqta qo‘yish asosida yaratilgan

Vov harfi tasviriy yozuvdagi waw – ilgak shakli asosida yasalgan. Qadimda ilgakning ikki aylanali va ayri shakllari mavjud bo‘lgan. Aylanali ilgakdan arab yozuvidagi „vov“, ayri ilgakdan yevropa yozuvidagi „v“ ga asos qilib olingan.



O‘zidan keyingi harf bilan ulanmaydigan harflar

Alohida shakli	Harf nomi	Talaffuzi
ا	Alif	So‘z o‘rtasida va oxirida – O
د	Dol	D
ذ	Zol	Z – asosan arabcha so‘zlarda uchraydi
ر	Re	R
ز	Ze	Z
ژ	Je	J – arabcha so‘zlarda uchramaydi (sirg‘aluvchi)
و	vov	So‘z boshida va unililar orasida – V, undoshlar orasida va so‘z boshida – U, O‘, O‘U

1. Soʻzlar yozishni mashq qilish.
Obod, ozod, oftob, zar, zoʻr, mosh, shom, dard, ajdar, birodar, daryo, avlod.
2. Quyidagi soʻzlarni ovoz chiqarib oʻqing va daftaringizga koʻchirib yozing:
دود، دوز، رود، وادار، دور، را، داد، ارد، ادا، زار، راز
3. Quyidagi gaplarni fors tili yozuvida yozish.
Dunyoda adolatvahaqiqatninggʻalabasimuqarrar.
Ilm barcha sir – asrornlarning kalitidir.
Biz Samarqand, Xiva, Buxoro, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarni tomosha qildik.
4. Faqatgina moʻnfasil harflardan foydalangan holda qanday soʻzlar yasay olasiz.

Muhokama uchun savollar:

1. Ayrilgan harflarga taʼrif bering

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Moʻttasil va moʻnfasil harflarga taʼrif berish.
2. Moʻnfasil harflarni (bir tomondan qoʻshilib yoziluvchi) harflarni yozish, ular ishtirokida soʻzlarga misollar yozing.
3. Moʻttasil (har ikki tomondan qoʻshiluvchi) harflarni har birini bir necha qatordan yozib chiqing. Ular ishtirokidagi soʻzlarga misollar keltiring.

Test.

1. متصل (muttasil) harflar qanday harflar?
A. Oʻzidan oldingi va keyingi harflarga qoʻshilib yoziladigan harflar.
B. Oʻzidan keyingi harflarga qoʻshilib yoziladigan harflar.
C. Oʻzidan keyingi harflarga qoʻshilmay yoziladigan harflar.
D. A va B javoblar toʻgʻri.
2. منفصل (munfasil) harflar qanday harflar?
A. Oʻzidan oldingi harfga qoʻshilib, oʻzidan keyingisiga qoʻshilmaydi.
B. Oʻzidan keyingi harflarga qoʻshilib yoziladigan harflar.
C. Oʻzidan keyingi harflarga qoʻshilmay yoziladigan harflar.
D. A va C javoblar toʻgʻri.
3. Quyidagi harflar qanday harflar ا ، د ، ذ ، ر ، ز ، ژ ، و
A. Ayrilgan harflar - منفصل (munfasil) harflar
B. Qoʻshilgan harflar - متصل (muttasil) harflar
C. Shamsiy harflar
D. Qamariy harflar
4. Muttasil harflar yozuvda necha xil koʻrinishda boʻladi?
A. 4 xil B. 3 xil S. 2 xil D. 1 xil.

Informatsion-uslubiy taʼminot

1. Abdusamatov M. Fors tili. T. 2007. 9-12 bet. 28-35 bet.
2. Jumaniyozov R. Eski oʻzbek yozuvi. «Oʻqituvchi». Toshkent. 1989 y. 101-104 bet.

MAVZU : Fors tilida harakatlar

Reja:

1. Qisqa unililarni yozuvda ifodalanishi.
2. Cho'ziq unililarning yozuvda ifodalanishi.

Asosiy tushunchalar: Zabar, zir, pish, so'kun, modda, ʼ -alif, و - vov, ى -yo harflari.

Dars maqsadi: Talabalarda qisqavach cho'ziq unililarning yozuvda ifodalanishi bo'yicha tushuncha hosil qilish.

Identiv maqsadlar:

- Qisqa unililar yozuvda ifoda etilmay, yozuvda tushirib qoldirilishi, diakrtik belgilarda, harakatlarda ifodalanishini biladi.
- Cho'ziq unililarni yozuvda ʼ -alif, و - vov, ى -yo harflari bilan ifoda etilishini tushuntira oladi
- So'z boshida kelganda bir alif ʼ orttirilib yozilishini, imlosini farqlay oladi

Kerakli jihozlar: Doska, bo'r, tablitsa (imloga oid).

Mavzu bayoni: Unililarning ifodalanishi.

Fors tilida 6 ta unli fonema 2 ta diftong mavjud. Bu unililardan o, i, u cho'ziq, a, e, o' qisqa talaffuz qilinadi. Cho'ziq unililar و ى ʼ harflari bilan ifodalanadi. Qisqa unililar esa harakatlar bilan ifodalanadi.

H a r a k a t l a r

Fors alifbosida undosh tovushlar va cho'ziq unililar harflar bilan yoziladi. Qisqa a, e, o' unililarini ifodalash uchun esa harflarning osti va ustiga qo'yiladigan harakatlar qo'llaniladi. Odatda, bu belgilar yozuvda har doim qo'yilavermaydi, yozuvni o'rganish jarayonida darslik va qo'llanmalarda, lug'atlarda, shuningdek, fors tiliga arab tilidan kirgan so'zlarni qanday talaffuz etilishini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Harakatlar	Nomi	Talaffuzi
◌◌	zabar, fatfa	A
◌◌◌	zir, kasra	E
◌◌◌◌	zamma, pish	o'
◌◌◌◌◌	sukun (to'xtash)	tovush ifodalamaydi

Yuqorida ketirilgan harakatlar undoshlarning osti va ustiga qo'yiladi:

1. َ belgisi zabar (arabcha – fatha) deb nomlanib ustida, tepasida degan ma’noni anglatadi. دَر dar – eshik زَرْد zard – sariq
2. ِ belgisi zir (arabcha – kasra) deb nomlanib ostida, tagida degan ma’noni anglatadi. پَدَر pedar – ota, دِرَاز deroz – uzun.
3. ُ belgisi pish (arabcha – zamma) deb nomlanib old, oldida degan ma’noni anglatadi. تُوْتُند to‘nd – tez, دُوْرُوْد do‘ro‘d – salom.
4. ° belgisi sukun deb nomlanadi. Bu belgi undosh ustiga qo‘yilib, shu undoshdan so‘ng unli yo‘qligini, ya’ni bo‘g‘inning yopiqligini bildiradi. دَو dav –yugur دى dey – kun.

Diftonglar

Fors tilida ikkita diftong (qo‘sh tovush) bor : ى ey va و o‘u. Bu diftonglar talaffuz qilinganda, ularni ikki bo‘g‘inga bo‘lib emas, balki birga qo‘shib bir butun talaffuz qilish kerak. Bunda diftonglarning birinchi harfi ikkinchisiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi.

1. ى Ey diftongi o‘zbek tilidagi undov so‘zi ey yoki inglizcha mey, dey so‘zlaridagi diftong tovushlaridek talaffuz qilinadi بَيْن beyn – ora, o‘rta.
2. و o‘u diftongi inglizcha now so‘zidagi ow diftongiga solishtirib, to‘g‘ri talaffuz qilish mumkin. نُو no‘u – yangi, بَرُو bero‘u – bor.

Fors tilida qisqa unililar harflarining usti va ostiga qo‘yiladigan harakat deb ataluvchi diakritik belgilar orqali ifoda etiladi. Harakat qaysi harfning ustiga yoki ostiga qo‘yilsa, avval harakat qo‘yilgan undosh o‘qilib, so‘ngra harakat talaffuz etiladi.

1. Harf ustiga chiziqcha qo‘yish orqali a unli tovushi ifoda etiladi.

Yozuvda َ belgisi bilan ifodalanib, بَرَز - zabar (ustida, tepasida degan ma’noda) deyiladi. Masalan: قَمَر - Qamar
مَدَد madad صَبْر - sabr

2. Harf ostiga chiziqcha qo‘yish orqali e tovushi ifoda etiladi.

Yozuvda ِ belgisi bilan ifodalanib, زِير -zir (ostida, tagida degan ma’noda)deb ataladi.

Masalan: دِل - dil, قِش - qish.

3. Harf ustiga vergul shaklidagi belgi qo‘yilib, o‘ unli tovushi ifoda etiladi.

Yozuvda ْ belgisi bilan ifoda qilinib, پِش -pish (old,oldida) deyiladi. Masalan: هُنَر -hunar كُتُبْخَانَه -kutubxona

Agar qisqa unililardan biri so‘z boshida kelsa, so‘z boshida bir alif orttirilib, zarur bo‘lgan diakritik belgi shu alifning usti yoki ostiga qo‘yiladi. Bunda alif butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi.

اِغْرَا - agar, اِثْر - asar اِسْم -ism,
اِفْق --ufq, اَوَى -uy.

Ayn - ء bilan boshlanuvchi arab so‘zlarida diakritik belgi ayn harfning osti yoki ustiga qo‘yiladi. Ayn talaffuz etilmaydi.

اَقْل - aql, اِلم - ilm, اِمر - umr, اِعْضِر -uzr.

Cho‘ziq unililarning yozuvda ifoda etilishi.

Fors tilida cho‘ziq unlilar (o, u, i) ا - alif, و - vov, ی -yo harflari bilan ifoda etiladi. Masalan:

اصد - cado-, شوم - shum, توق - to‘q . kimki کیمکی

Agar cho‘ziq unlilar so‘z boshida kelsa, yozuvda cho‘ziq unli oldidan bir alif orttirilib yoziladi. Masalan:

ان ایر -Eron. كول -kul, یپکا otash, تشأ . ot

Agar و - vov yoki ی - yo so‘z boshida ا alifsiz bo‘lsa, v va y undosh tovushlarini ifodalaydi.

یادلش .yodlash ریا - yor-yor. وطان -vatan-vatan

Arab tilidan kirgan so‘zlarning boshida ayn va alif عا harflari birga kelsa, ayn talaffuz etilmay, alif cho‘ziq unli o tarzida talaffuz qilinadi. Masalan:

عاشق --oshiq, عاقل 1-aql, -oliy, - عالی, عادل - odil

Talaffuzi	Yozilishi	Talaffuzi	yozilishi
A	أ	O	آ
E	إ	I	ای
o‘	أ	U	او
Ey	إی	o‘u	أو

Misollar: ابرو abru – qosh, اداره edore – idora, أوروبا O‘rupa – yevropa, ارد ord – un او u Iron – Eron , ایران – u, ایوان eyvon – ayvon.

Cho‘ziq unlilarning yozuvda ifodalanishini misollar orqali yozdirish, Mashq qilish.

Muhokama uchun savollar

- 1.Fors tili yozuvida qisqa va cho‘ziq unlilar yozuvda qanday ifoda etiladi?
2. Zir, zabar, pish qanday belgilar ularga tavsif bering.
3. So‘kun va madda-diakritik belgilariga ta’rif bering.
4. Cho‘ziq unlilar yozuvda qaysi harflar orqali beriladi, ular imlosiga ta’rif bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Zir, zabar, pish qanday belgilar ularga tavsif bering.
2. So‘kun va madda-diakritik belgilariga ta’rif bering.
3. Cho‘ziq unlilar yozuvda qaysi harflar orqali beriladi, ular imlosiga ta’rif bering.

Test.

1. Qisqa unlilar so‘z boshida kelsa qanday ifoda etiladi?
A. Alif vositasida B.Hamza orqali S.Madda orqali D.To‘g‘ri javob yo‘q.
2. Qisqa unlilar nechta?
A. 3 ta B.4 ta S.2 ta D.7 ta
3. Qisqa unlilar yozuvda qanday ifoda etiladi?
A. Diakritik belgilar orqali B.Harakatlar orqali
S.Zabar, zir, pish orqali D.Barcha javoblar to‘g‘ri.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

1. Fors tili yozuvida qisqa unililar harflarining usti va ostiga qo'yiladigan harakatdeb ataluvchi diakritik belgilar orqali ifoda etiladi. Harakatlar 3ta : zir, zabar, pish

E. Agar qisqa unililardan biri so'z boshida kelsa, so'z boshida bir alif orttirilib, zarur bo'lgan diakritik belgi shu alifning usti yoki ostiga qo'yiladi.

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. Abdusamadov M. "Fors tili". T., 2006. 36-40 bet.
2. Jumaniyozov R. "Eski o'zbek yozuvi". 1989.

Mavzu : Fors tilida arab satr usti belgilari.

Reja:

1. Qisqa unililarni yozuvda ifodalanishi.
2. Cho'ziq unililarning yozuvda ifodalanishi.

Asosiy tushunchalar: Tashdid, hamza, tanvin, vasla.

Dars maqsadi: Arab satr usti belgilari haqida ma'lumot berish va ular imlosi bilan tanishtirish.

Identiv maqsadlar:

- arab satr usti belgilarini ifodalanishini tushunadi
 - arab satr usti belgilari vazifasini anglaydi.
- barcha arab satr usti belgilarini fors tili yozuvida yoza oladi.

Mavzu bayoni:

Arab harflari bilan bir qatorda, arab satr usti belgilari ham kirib kelgan. Bu belgilar quydagilardir:

1. تشدید - tashdid (kuchaytirish degan ma'noda) yozuvda ʻ belgisi bilan ifodalanib, harfni takrorlab, o'qishga ishora qiladi. Bunda avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab, so'ng tashdid ustidagi harakat o'qiladi. Masalan: اول-avval-avval, birinchi.

نقاش -naqqosh-naqqosh, rassom.

تبسم -tabasso'm-tabassum.

2. همزة -hamza yozuvida ء - belgisi bilan ifoda etilib, alif, vov, va yo harflari ustiga qo'yiladi, harflar talaffuz qilinmaydi faqat vositachi vazifasini bajaradi.

تاكيد -ta'kid-ta'kidlash

حيات - hay'at - hay'at,

مومين - mo'min, - mo'min

3. تنوين -tanvin faqat arab tilidan kirgan so'zlardagina uchraydi. Yozuvda - " belgisi bilan ifodalanib, so'z oxirida vositachi alif ustiga qo'yiladi, va an tovush birikmasini bildiradi. Masalan:

اقصد -qasdan-qasddan, ataylab.

مسالاً -masalan.

مضمونا -mazmunan.

4. صلوه - vasla (qo'shish ma'nosida) belgisi bilan ifoda etilib, arab tilidagi aniqlik artikli ال birikmasining birinchi harfi alif ustiga qo'yiladi. Fors tilida vasla murakkab so'zga aylangan ba'zi arab izofiy birikmalarida yoki aniq otlarda uchraydi. Masalan:

لمغربا -al-mag'reb –g'arb.

دارالفنون doril-fo'nun – universitet.

Muhokama uchun savollar:

1. Qanday arab satr usti belgilarini bilasiz?
2. Hamza belgisining imlo o'zgarishlarini aytib o'ting.
3. Tili tiliga ham arab so'zlari orqali ravish vazifasida kelgan so'zlar kirib kelganmi? Misollar keltiring.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Tashdidli so'zlarga 6 ta misol keltiring.
2. Tanvinli so'zlarning gapdagi vazifasini aniqlang.
3. Fors tili yozuvida hamza belgisining xususiyatlarini izohlang.
4. Vasla va tashdid belgisiga tavsif bering.

Test.

1. Arab satr usti belgilari qaysilar?
A. Tashdid, tanvin, hamza, vasla. B. Zer, zabar, sokin, madda.
S. Zamma, kasra, pish, zir. D. Barcha javoblar to'g'ri
2. Tashdidning vazifasi nima?
A. تشديداً - tashdid harfni takroran, ikkilantiribo'qishga ishora qiladi.
B. So'z oxirida alif harfi ustiga qo'yilib, - an deb o'qiladi.
C. Qo'shib o'qishga ishora qiladi. D. Tutiq belgisiga to'g'ri keladi.
3. Tanvin nima?
A. So'z oxirida alif harfi ustiga qo'yilib, - an deb o'qiladi.
B. تشديداً - tashdid harfni takroran, ikkilantiribo'qishga ishora qiladi.
C. Qo'shib o'qishga ishora qiladi. D. Tutiq belgisiga to'g'ri keladi.
4. Hamza belgisining vazifasi nimadan iborat?
A. Tutiq belgisiga to'g'ri keladi.
B. تشديداً - tashdid harfni takroran, ikkilantiribo'qishga ishora qiladi.
C. Qo'shib o'qishga ishora qiladi.
D. So'z oxirida alif harfi ustiga qo'yilib, - an deb o'qiladi.
5. Tashdid belgisining ma'nosi nima?
A. Kuchaytirish degan ma'noni anglatadi.
B. Cho'zish degan ma'noni bildiradi.
C. Qo'shish degan ma'noni bildiradi. D. To'g'ri javob yo'q.
6. Madda belgisining ma'nosi nima?
A. Cho'zish degan ma'noni bildiradi.
B. Kuchaytirish degan ma'noni anglatadi.
C. Qo'shish degan ma'noni bildiradi. D. To'g'ri javob yo'q.

7. Vasla belgisining ma'nosi nima?

- A. Kuchaytirish degan ma'noni anglatadi.
- B. Cho'zish degan ma'noni bildiradi.
- C. Qo'shish degan ma'noni bildiradi. D. To'g'ri javob yo'q.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

- 1. Arab satr usti belgilari 6 ta: tashdid تشدید tanvin تنوين hamza همزة
vasla - وصلو - مددى madda سکون sukun
- 2. tanvin - تنوين faqat arab tilidan kirgan so'zlardagina uchraydi
- 3. tashdid تشدید - tashdid harfni takrorlab, o'qishga ishora qiladi.

Informatsion-uslubiy ta'minot

- 1. Abdusamadov M. "Fors tili". T. 2007. 45-50 betlar.
- 2. Jumaniyozov R. "Eski o'zbek yozuvi". 121-128 betlar.

Mavzu. Shamsiy va qamariy harflar.

Reja:

- 1. Shamsiy va qamariy harflari haqida ma'lumot.
- 2. Shamsiy va qamariy harflarni yozuvdagi imlosi.

Darsmaqsadi: Arabizofasi, shamsiy, qamariy harflar haqidatushuncha hosil qilish, o'qilishidagi o'zgarishlar bilantani shirish.

Identiv maqsadlar:

- Arab izofasi nima ekanligini ayta oladi.
- Shamsiy harflar - quyosh harflariga qaysi harflar kirishini biladi.
- Qamariy harflar - oy harflariga kiruvchi harflarni biladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: izofa, shamsiy, qamariy, al artikli. (izofa-qo'shish, bog'lash, shamsiy harflar-quyosh harflari, qamariy -oy, al artikli-aniqlik ko'rsatkichi).

Mavzu bayoni:

Arab alifbosidagi harflar 2 guruhga -shamsiy va qamariy harflar guruhiga bo'linadi. -ho'rufe qamariy (oy harflari) va ho'rufe shamsiy (quyosh harflari). Shamsiy harflar quydagilardir.

س ش ص ض ط ظ ل ن ر ز ت د د

Qamariy harflarga kiruvchi harflar esa

ا ب ح خ ج ق ف غ ك ي ه و م dir.

Izofa so'zining lug'aviy ma'nosi qo'shish va bog'lash demakdir. Aniqlanmish va aniqlovchi, qaralmish va qaratqich munosabatlarini ifodalovchi tushuncha izofa deb ataladi. Arab izofasi ko'rsatkichi ال al (yoki ul) so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Agar al- ال aniqlik ال artiklidan keyin kelgan so'zning birinchi harfi shamsiy harf bilan boshlansa, ال al artiklidagi ل lom talaffuz etilmay, keyingi harf تشدید bilan o'qiladi. Masalan:

السلام - as-salom-assalom.

التركيبات - lugʻat-it turk-turkcha lugʻat.

Al artiklidan keyingi harf qamariy harf boʻlsa, al (yoki oʻl) toʻliq talaffuz qilinadi. Masalan: القلوب محبوب - mahbub-ul-qoʻlub.

الحارزمي -al-xorazmiy- Xorazmiy.

Muhokama uchun savollar:

شمسى shamsiy harflar nechta ?.

ال alning vazifasini nima?

شمسى shamsiy va قمرى qamariy harflar nimada farqlanadi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Shamsiy harflar guruhini uch qatordan daftaringizga yozing, misollar keltiring.
2. Qamariy harflar guruhini uch qator yozing va yodlang.
3. Qamariy قمرى harflar ishtirokidagi soʻzlarga 15 ta misol keltiring.

Test.

1. Izofa - إضافة soʻzining lugʻafiy maʼnosi nima?
A. Qoʻshish va bogʻlash demakdir. B. Kuchaytirish degani
C. Ikkilantirish demakdir. D. Tinchlantirish degani.
2. Quyosh (shamsiy) harflar nechta?
A. 14 ta B. 28 ta S. 7 ta D. 32 ta
3. Oy (qamariy) harflar nechta?
A. 14 ta B. 4 ta S. 28 ta D. 7 ta
4. Arab izofasi koʻrsatkichi nima?
A. Al aniqlik artikli B. E qisqa unlisi
C. S. Ye qisqa unlisi D. Arab izofasi koʻrsatkichi yoʻq.
5. Fors izofasi koʻrsatkichi nima?
A. E qisqa unlisi B. Al aniqlik artikli
C. Oʻ qisqa unlisi D. Arab izofasi koʻrsatkichi yoʻq.

Informatsion-uslubiy taʼminot

1. Abdusamadov M. "Fors tili". T. 2007. 45-50 betlar.
2. Jumaniyozov R. "Eski oʻzbek yozuvi".

Mavzu. Fors tili yozuvida raqamlarning ifodalanishi.

Reja:

1. Arab raqamlarining ifodalanishi. .
2. Arab raqamlarining vazifasi.

Asosiy tushunchalar: Poygir, oyoqlamoq ۱۲۳۴۵۶۷۸۹۱۰

Dars maqsadi: Fors tili yozuvida raqamlarning ifodalanishi toʻgʻrisida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv maqsadlar:

Test.

1. شمسی shamsiy harflar nechta ?
A. 14 ta B.7 ta S.2 ta D.25 ta
2. قمری qamariy harflar nechta?
A.14 ta B.7 ta S.2 ta D.25 ta
3. Al - aniqlik artiklidan keyin shamsiy harf kelsa, qanday o'zgarish bo'ladi?
A. Shamsiy harf tashdid ostida o'qiladi.B.O'zgarish ro'y bermaydi.
S. Al – aniqlik artiklidan keyin kelgan shamsiy harf ikkilantirib o'qiladi.
D. A va C javoblar to'g'ri
4. Al - aniqlik artiklidan keyin qamariy harf kelsa, qanday o'zgarish bo'ladi?
A.Hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi.B.Harf tashdid ostida o'qiladi.
S.Al – aniqlik artiklidan keyin kelgan shamsiy harf ikkilantirib o'qiladi.
B. A va C javoblar to'g'ri.
5. Shamsiy va qamariy harflar nechta?
A. 28 ta B.32 ta S.30 ta D.25 ta

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

- 1.Shamsiy harflar 14 ta
- 2.Qamariy قمری harflar ham 14 ta
- 3.Shamsiy harflar ال- artiklidan keyin kelganda ال- al artiklidagi ل lom talaffuz etilmay, keyingi harf ة tashdid bilan o'qiladi.

Informatsion-uslubiy ta'minot

- 1.Abdusamadov M. "Fors tili". T.2006.
- 2.Jumaniyozov R. "Eski o'zbek yozuvi". T.1989

MAVZU: Ot kesimli sodda yig'iq gap.

Reja:

- 1.Ot kesimli soda yig'iq gap.Ko'rsatish va so'roq olmoshlari.
2. است – bog'lamasining yozilishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

است -ast –bog'lamasi,go'fto' o', ko'rsatish olmoshi,so'roq olmoshlari.

Dars maqsadi: Fors tilida ot kesimli gapning tuzilishi to'g'risida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.Ot kesimli gapga tavsif bera oladi.
- 2.Ast- bog'lamasining yozilishi, imlosini biladi.

Kerakli jihozlar: darslik, mavzuga oid tablitsa, doska , bo'r.

Ishni bajarish tartibi:

1. Ko'rsatish va so'roq olmoshlarini misollar asosida tushuntirish va ot kesimli gapning tuzilishi bilan tanishtirish.

Fors tilida gapning eng sodda turi ikki tarkibli ot kesimli gapdir. Bunday gaplar ega va kesimdan iborat bo'ladi. Kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan gaplar ot kesimli gap deyiladi. Ot kesimli gapda kesimlikni ifodalash uchun ular oxiriga ast - است bog'lamasi qo'yiladi. ast bog'lamasi O'zbek tilidagi kesimlik qo'shimchasi -dir ga to'g'ri keladi. Masalan:

Bu bo'rdir -in gach ast. است گچ این

O'zbek tilida kesimlik qo'shimchasi -dir tushib qoladi va yozuvda ifoda etilmaydi. Lekin fors tilida ast - است bog'lamasi gapda har doim mavjud va yozuvda ifoda etiladi. Masalan:

Bu daftardir -in daftar ast. است دفتر این

Fors tilida asosan ikkita ko'rsatish olmoshi bor. on-u-o'sha - آن -in-bu,shu. این

In olmoshi so'zlovchiga nisbatan yaqin bo'lgan predmetni va on-olmoshi so'zlovchiga nisbatan uzoq bo'lgan predmetni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan:

Bu stoldir- in miz ast. - است میز این

U doskadir- on taxte ast. است تخته آن

Fors tilida ke - ke-kim, che - che -nima, so'roq olmoshlari bor. ke - ke-so'roq olmoshi insonlar uchun, che - che- qolgan jonli va jonsiz predmetlar uchun ishlatiladi. Ke va che -so'roq olmoshlari ast - است bog'lamasi bilan birga kelganda ke va che olmoshlarining oxirgi e tovushi bog'lama astning a tovushi bilan qo'shilib, bir cho'ziq i tovushini hosil qiladi.

Kim?-kist? کیست - Nima- chist? چیست

in dar ast. Bu eshikdir. چيست این In chist-bu nima?

On kist?-U kim? است شاگرد آن. On shogerd ast-U o'quvchidir. کیست آن .

2. Talablar tomonidan bajariladigan mashqlar.

a) Lug'at ustida ishlash.

So'zlashish - go'fto'gu- گفتگو

eshik-dar - در

stol- miz - میز

stul- sandali - صندلی

doska - taxte - تخته

va (bog'lovchi)- va - و

bo'r- gach- گچ

rukchka-qalam- قلم

qalam- medod - مداد

oq-sefid - سفید

o'qituvchi-doneshyor- دانشیار

o'quvchi-shogerd - شاگرد

yaxshi-xub- خوب

yomon-bad- بد

talaba-doneshju- دانشجو
ishchi-korgar- کارگر

b) Nuqtalar o‘rniga bog‘lamaqo‘yibko‘chiring.

خوبدانشجو ... , میزاین , شاگردمردآن ...
کارگراحمد ... , سفید گچ... , خوبدانشیار ... , دانشیاراین ...

v) Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bu nimadir? Bu doskadir. Bu nimadir? Bu bo‘rdir. U kimdir. U Ahmaddir.
U ishchidir. Bo‘r oqdir. U talabadir. U yaxshidir. Bu papkadir. U kattadir.

g) Quyidagi gaplarni transkripsiya bilan yozing, so‘ng tarjima qiling.

است کارگراحمد . است شاگردمردآن . چیست این . است دراین .
است خوبدانشجو . است بدقلم . کیست آن . است انشیا ردآن .

Muhokama uchun savollar:

1. Ot kesimli gap qanday yaladi?
2. Fors tilida ot kesimli gap ko‘rsatkichi qaysi bog‘lama?
3. Bog‘lama so‘roq olmoshlari bilan kelsa qanday o‘qilishi lozim?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.

این پسر است. این سیب است. این نان و پنیر است. آن آب است. آن شیر است، آن پتو زرد است. آن دیوار سبز است. آن زن است. او استاد است. ساسان با شاپور دوست است. این در است. این زبان آسان است. درست است. او نیز ایرانی است. آن پتو نُو است. این زانو است. این بازو است. این بینی است. آن پیشانی است. این رادیو است. این رادیو نُو است. آن آسیا است.

2. Quyidagi gaplarni fors yozuvida yozing.

Buayolonlikdir. Bubolaeronlikdir. Bu olmadir. Bu olma suvlidir. U oltita olma suvlidir. U non bilan pishloqdir. U suvdur. Bu suv va sutdir. Soson Shopur bilan dustdir. Bu til osondir. U til ham osondir. Bu ayol o‘qituvchidir. U Yevropa, bu esa Osiyodir. Bu eshik ko‘kdir. U devor sariqdir.

Test.

1. Ast bog‘lamasining vazifasi nimadan iborat?
A. Ot kesimni ifodalovchi dir- bog‘lamasini bildiradi.
B. Yuklama hisoblanadi.
C. Va bog‘lovchisini bildiradi. D. Barcha javoblar to‘g‘ri.
2. Ot kesimni ifodalovchi bog‘lamani toping.
A. است
B. آن
C. این
D. Barcha javoblar to‘g‘ri.
3. Yaqindagi predmetlarga nisbatan qo‘llanadigan ko‘rsatish olmoshi qaysi?
A. این
B. آن
C. است
D. Barcha javoblar to‘g‘ri.
4. Uzoqdagi predmetlarga nisbatan qo‘llanadigan ko‘rsatish olmoshi qaysi?

- A. آن
 B. است
 C. اين
 D. Barcha javoblar to'g'ri.
5. Fors tilidagi so'roq olmoshlari qaysilar?
 A. چه , كه
 B. اين
 C. ان
 D. است

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

1. Ot kesimli gaplarda so'roq olmoshlarining ast bog'lamasi bilan qo'shilishi va bog'lanishi.
2. Ot kesimli gap ko'rsatkichi astdir.
3. Forsiy izofa ko'rsatkichi, odatda, yozuvda aks etmaydi:

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. Abdusamatov M." Fors tili". T. «O'qituvchi». 53-56 betlar.
2. Dehqonova L." Fors tilida mustaqil ish matnlari". GulDu 2004 yil

Mavzu : Kishilik olmoshlari va bog'lamaning tuslanishi

Reja:

1. Kishilik olmoshlari.
2. Bog'lamaning tuslanishi.

Dars maqsadi: Kishilik olmoshlari va bog'lamaning tuslanishi haqida ma'lumot berish, imlo savodxonligini oshirish.

Asosiy tushunchalar:

– *onho* – آنها - sho'mâ - شما - *mo* - ما
 ' - *to* - تو - *man* - من - *ishon* - ايشان

Identiv maqsadlar:

- Forstilida kishilik olmoshlari va bog'lamaning tuslanishi haqidama'lumotga egabo'ladi. .
- Kishilik olmoshlari yozilishi va talaffuzidagi o'ziga xos tomonlarini biladi.
- Kishilik olmoshlarini farqlaydi.

Kishilik olmoshlari va bog'lamaning tuslanishi imlosi, talaffuzini ajratib oladi.

ضمایر شخصی - zamoyer-eshaxsi

Kishilik olmoshlari shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

O'zbek tilida ba'zi kishilik olmoshlari shaxsni ifodalashi bilan birga, ko'rsatish ma'nosini ham bildiradi. Masalan, kishilik-ko'rsatish olmoshlari: 'u', 'ular'. Fors

tilida esa ko‘rsatish olmoshlari III shaxs, birlik va ko‘plikdagi kishilik olmoshlari o‘rnida kela oladi va, odatda, kishilik-ko‘rsatish olmoshlari deb yuritiladi.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	من - <i>man</i> –men	ما - <i>mo</i> –biz
II shaxs	تو - <i>to</i> ‘-sen	شما - <i>sho</i> ‘mo–siz
III shaxs	او - <i>u</i> ,	آنها – <i>onho</i> – ular

Forstilidahamo‘zbektilidagidekko‘plikniko‘rsatuvchiشما - sho‘moolmoshibirlikma’nosidahamqo‘llanib, hurmatma’nosinianglatadi. Ko‘pliknita’kidlabko‘rsatishuchunما - *mo*, شما - *sho* ‘mâolmoshlarigaha-hoko‘plikaffiksiqo‘shilishimumkin: ماها *moha* -bizlar,

Bog‘lamaningtuslanishi

Otkesimligapdaeganingqaysishaxsvasondakelishigaqarabkesimhamegabilanshusha xsvasondamoslashadi. Buholdabog

‘lamaاستastIIIshaxsbirlikdanboshqahammashaxslardao‘zekvivalentibo ‘lmishهستast hastso‘zibilanalmashinadi. Shundayqilib, otkesimtuslangandaIII-shaxsbirlikdagiاستastbog‘lamasio‘zholichaqolib, boshqahammashaxslardashaxs-sonqo‘shimchalariهستast hastbog‘lamasigaqo‘shiladi.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
	مفرد - <i>mo</i> ‘ <i>frad</i>	جمع - <i>jam</i> ’
I shaxs	م - <i>am</i>	یم - <i>im</i>
II shaxs	ی - <i>i</i>	ید - <i>id</i>
III shaxs	-	ند - <i>and</i>

‘jam’ - جمع *jam* ‘*frad* - مفرد

هستیم - <i>hastim</i>	هستیم - <i>hastim</i>
هستی - <i>hasti</i>	هستید - <i>hastid</i>
است - <i>ast</i>	هستند - <i>hastand</i>

Bog‘lamaning to‘liq shakli tuslanganda shaxs-son qo‘shimchalarini oladi. Bo‘lishsizlik shaklida esa هست hastdan oldin نه na inkor yuklamasi keladi.

hastim, nistim	هستیم، نیستیم	hastam, nistam	هستم، نیستم
hastid, nistid	هستید، نیستید	hasti, nisti	هستی، نیستی

Ot kesimning tuslanishida bog`lama hast mustaqil urg`uga ega bo`lib, bu urg`u shaxs-son qo`shimchalariga tushadi.

مفرد -mo`frad

هستم کارگر من -man korgar hastam

هستی کارگرتو - to`korgar hasti

است کارگراو - u korgar ast

جمع -jam`

هستیم کارگرما -mo korgar hastim

هستید کارگر شما - sho`mo korgar hastid

هستند کارگر آنها - onho korgar hastand

Bog`lamaning bo`lishsiz shaklda tuslanishi

Bog`lamaning bo`lishsiz shaklda tuslanishida shaxs-son qo`shimchalari nist نیست so`ziga qo`shiladi. Urg`u bu yerda nist نیست so`zining birinchi bo`g`iniga, ya`ni inkor yuklamasiga tushadi.

مفرد -m`frad

نیستم دانشجو من - man doneshju nistam

نیستی دانشجو تو - to`doneshju nisti

نیست دانشجو او - u doneshju nist

جمع -jam`

نیستیم دانشجو ما -mo doneshju nistim

نیستی دانشجو شما - sho`mo doneshju nistid

نیستید دانشجو آنها - onho doneshju nistand

Muhokama uchun savollar:

1. ast III shaxs birlikdan boshqa hamma shaxslarda o`z ekvivalenti bo`lmish qaysi so`z bilan almashinadi?
2. Bog`lamaning bo`lishsiz shaklda tuslanishida shaxs-son qo`shimchalari qaysi so`zga qo`shiladi?
3. Ot kesimning tuslanishida bog`lama hast mustaqil urg`uga ega bo`lib, bu urg`u qaysi qo`shimchalarga tushadi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari

1. Kishilik olmoshlarini ko`chirib yozing va yod oling
2. Bog`lamaning tuslanishini to`g`ri o`qing, qanday yozilishi va o`qilishini tushintiring, daftaringizga ko`chirib oling:
3. Fors tilida ham, o`zbek tilidagidek, ko`plikni ko`rsatuvchi qaysi olmosh birlik ma`nosida ham qo`llanib, hurmat ma`nosini anglatadi.
4. Quyidagi gaplarni o`qing va ko`chirib yozing.
من تشنه هستم. تو با ساسان دوست هستی. آسمان پر از ستاره است. ما نویسنده هستیم. شما روس هستید. آنها مهندس هستند. راهرو دراز است. من با ساسان آشنا هستم. شما نویسنده هستید. ما مرد هستیم. آن دیوار نیست. او استاد نیست. شما نویسنده نیستید. آنها دوست نیستند. این نان نیست. من ایرانی نیستم. این زبان آسان نیست. - نه، این زبان آسان است. امشب هوا سرد نیست. - نه، هوا سرد است. آنها مهندس نیستند. - نه آنها مهندس هستند. ما با آنها آشنا نیستیم. - نه، آشنا هستیم.

Test.

1. است ast III shaxs birlikdan boshqa hamma shaxslarda o‘z ekvivalenti bo‘lmish qaysi so‘z bilan almashinadi?
 - A. Hast هست
 - B. ما -mo,
 - C. شما - sho ‘mâ
 - D. مفرد
2. Bog`lamaning bo`lishsiz shaklda tuslanishida shaxs-son qo`shimchalari qaysi so‘zga qo‘shiladi?
 - A. نيست
 - B. ما -mo,
 - C. شما -sho ‘mâ
 - D. مفرد
3. Fors tilida kishilik olmoshlarining birlik shakli qaysilar?
 - A. Man, tu, u
 - B. Mo, sho‘mo, onho
 - C. Men, tu, vey
 - D. Barchasi to‘g‘ri
4. Fors tilida kishilik olmoshlarining ko‘plik shakli qaysilar?
 - A. Mo, sho‘mo, onho
 - B. Man, tu, u
 - C. Men, tu, vey
 - D. Barchasi to‘g‘ri
5. Fors tilida birlik nima deb ataladi?
 - A. نيست
 - B. ما -mo,
 - C. شما -sho ‘mâ
 - D. مفرد

Informatsion-uslubiy ta’minot

- 1.M. Abdusamatov “Fors tili” Toshkent-2007.
2. Kuranbekov A. “Fors tili” T. 2007

Mavzu: So‘roq gapning yasalihi.

Reja:

1. So‘roq olmoshlari, intonatsiya va so‘roq yuklamalari orqali so‘roq gapning yasalihi.
2. So‘roq ni bildiruvchi: چطور - cheto ‘ur, رنگچه - cherang, چکاره chekore, کجا - ko ‘jo, کدام -ko‘dom so‘zlari vositasi bilan so‘roq gap yasash.

Dars maqsadi: Fors tilida so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari orqali so‘roq gap yasalihini tushuntirish.

Tayanch tushunchalar:

Oyo, magar so‘roq yuklamalari, ori, bali, tasdiq va naxeyr inkor so‘zlari, so‘roq so‘zlar.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. Fors tilida که ke-kim? va چه che-nima? so‘roq olmoshlari orqali so‘roq gap yasalişini izohlay oladi.
2. Fors tilida so‘roq gap boshida ohang past bo‘lib, gap oxirida ko‘tarilişini biladi.
3. Gap boshida oyo, magar so‘roq yuklamalarini keltirish orqali ham so‘roq gap yasalişini ayta oladi.

Mavzu bayoni:

Fors tilida so‘roq gaplar asosan so‘roq olmoshlari, intonatsiya, so‘roq yuklamalari orqali yasalişadi.

a) که -ke چه -che so‘roq olmoshlari orqali so‘roq gap yasalişadi.

Bukimdir- inkist- کیست این . Unimadir- onchist- چیست آن

b) Intonatsiya orqali savol anglashişladi. Bunda gapning oxiri kuchli intonatsiya bilan talaffuz qilinadi.

است؟مداد این -In medod ast? Bu qalam?

v) Gap boshida آیا - oyo, magar –mi so‘roq yuklamasini keltirish orqali so‘roq gap yasalişadi.

Oyo in gach ast. Bu bo‘rmi? است؟گچ این آیا

است؟دانشجو دختر این مگر Magar in duxtar doneshju ast? Bu qiz talabami?

Magar - مگر yuklamasi aytilgan fikrga nisbatan shubha, ishonchsizlikni bildiradi.

است انشیا رد دختر این مگر.

Magar in do ‘xtar donishyor ast? -Bu qiz o ‘qituvchimi?(Nahotki, bu qiz o ‘qituvchibo‘lsa?)

Oyo - آیا , مگر - magar so‘roq yuklamalari kichik pauza bilan ajratib talaffuz qilinadi.

Talabalar tomonidan bajariladigan mashq va topshiriqlar.

1).Quyidagi gaplarni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

است دانشجو دختر این بلی. است؟دانشجو دختر این مگر

است کارگر احمد. است شاگرد مرد آن. چیست این. است در این.

است خوب دانشجو. است بد قلم. کیست آن. است انشیا رد آن.

است گچ این بلی است؟گچ این آیا.

2).Quyidagi gaplarni fors alifbosida yozing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

In chist? In dar ast, in kog‘az ast. On kist? On doneshyor ast? Oyo Ahmad doneshju ast? Bali, Ahmad doneshju ast?

3).So‘roq gapning yasalişini izohlang.

2. So‘roq ni bildiruvchi چطور - cheto ‘ur, رنگ چه, -che rang? کجا -ko ‘jo, چکاره - chekore so‘zlari vositasida so‘roq gap yasalişini tushuntirish.

1. چطور -cheto ‘ur biror shaxsning hol-ahvolini (yaxshi yo yomon, sog‘ yo kasal) ekanligini predmet va hodisaning holatini yoki hajm-qiyofasini (eski

yoki yangi, katta yoki kichik, chiroyli yoki xunuk ekanligini) bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

Ahvole sho 'mo cheto 'ur ast? Ahvolingiz qanday?

2) رنگچه predmetning qaysi rangda ekanligini bilish uchun ishlatiladi.

Masalan:

است رنگ چه مداد - qalam qaysi rangda?

است زرد مداد - qalam sariqdir.

3) چکاره chekore biror shaxsning kim bo 'lib ishlashini, uning kasbini, nima bilan shug'ullanishini bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

است چکاره احمد - Ahmad chekore ast? Ahmad kim?

است پزشک احمد - Ahmad vrachdir.

4) کجا -ko'jo predmet yo shaxsning yo 'nalishi yoki uning o'rnini bilish uchun ishlatiladi va o'zbek tiliga qayerga? qayerda? qayer? tarzida tarjima qilinadi.

است کجا مداد - qalam qayerda?

است اینجا مداد - qalam bu erda

qaysi? چگونه qanday so'zlari orqali ham so'roq gap yasaladi.

است چگونه کیف - sumka qanday?

است خوب کیف - sumka yaxshidir.

Talabalar uchun mustaqil ish topshiriqlari:

1. Quyidagi so'zlarni talaffuziga e'tibor berib o'qing va yozing.

آیا شاپور با ساسان دوست است؟ آیا این سیب شیرین است؟ این دیوار زرد است؟ این پنیر است؟ این آب است یا شیر؟ شما نویسنده هستید؟ آنها روس هستند؟ آیا ما آشنا هستیم؟ آیا تو استاد هستی؟ آیا این زبان شیرین است؟ آیا امشب هوا سرد است؟

Bog'lama mustaqil leksik ma'no ham ifodalaydi. Bunda hast – bor, mavjud ma'nolarini bildiradi. در تبریز استاین مهندس - Bu muhandis Tabrizdadir.

man emruz dar meydon hastam – Men bugunmaydondaman.

2. Quyidagi savollarga javob bering.

است رنگ چه مداد؟ است کجا مداد؟ است چگونه کیف؟

است کجا اینجا؟ است چکاره احمد؟ است چطور شما احوال

Fors tilida so'roq gap qanday usullar orqali hosil qilinadi?

3. Nuqtalar o'rniga tegishli so'roq olmoshlarini qo'yib gaplarni ko'chiring .

کچ این ... اینجا؟ است ... کیف؟ است ... است؟

مرد ... است؟ این زن ... ؟ دانشجو ... است؟ آن کارگر ... است؟ این آیا

Test.

1.Fors tilida so'roq gap asosan qanday yasaladi?

A. Barcha javoblar to'g'ri. B.intonatsiya orqali S.so'roq olmoshlari orqali

B. so'roq yuklamalari orqali

2.So'roq gapni tarjima qiling: این مداد است

A. bu qalamdir B.bu kitob S.bu ruchka D.bu daftar

3.مگر - magar yuklamasi so'roq gapda anglashilgan fikrga nisbatan qanday ma'nolarni bildiradi?

A. shubha, ishonchsizlik B.go‘zallik S.nafosatlilik D.chiroylilik

4. Predmetning qaysi rangda ekanligini bildiruvchi so‘roq olmoshi qaysi?

A. چه رنگی

B. که

C. آیا

D. مگر

5. Qaysi so‘roq olmoshi predmetning yoki shaxsning o‘rnini, yo‘nalishini bildiradi?

A. کجا

B. که

C. چه

D. است

6. Shaxsning kim bo‘lib ishlashini, kasbini bilish uchun ishlatiladigan so‘roq olmoshi qaysi?

A. چکاره

B. چه

C. که

D. مگر

7. این در چه جور است gapni tarjima qiling?

A. bu eshik qanaqa? B.bu eshikmi? S.u eshik D.bu eshik qaysi rangda?

8. Qaysi so‘roq olmoshlari predmet va shaxsning o‘zini bilish uchun ishlatiladi?

A. B va D

B. که

C. مگر

D. چه

8. Predmet va shaxsning sifatini, holatini va belgisini bilish uchun ishlatiladigan so‘roq olmoshlari qaysilar?

A. B ,C,D

B. چه جور

C. چه رنگی

D. چطور

9. So‘roq so‘zlar qaysilar?

A. رنگ چه چطور چکاره کجا چگونه کدام

B. رنگ چه چطور چکاره کجا

C. کجا چگونه کدام

D. کیست چیست

10. So‘roq gaplar qanday yasaladi?

- A. Ohang, so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamasi, so‘roq so‘zlar orqali
 B. رنگچهچطور چکارهکجاچگونهکدام
 C. رنگچهچطور چکارهکجا
 D. کجاچگونهکدام

11. Shaxsning kasb - korini bilish uchun qaysi so‘roq so‘z ishlatiladi?

- A. چکاره
 B. چطور
 C. کجا
 D. چگونه

12. So‘roq yuklamalari qaysilar?

- A. آیامگر
 B. کیستچیست
 C. هآن
 D. کجاچگونهکدام

13. So‘roq olmoshlari qaysilar?

- A. کیستچیست
 B. آیامگر
 C. هآن
 D. کجاچگونهکدام

Informatsion-uslubiy ta’minot

Abdusamatov M.” Fors tili”. T. «O‘qituvchi». 57-64 betlar.

Mavzu: Izofa va izofa zanjiri.

Reja :

1. Izofa va uning imlosi.
2. Izofa zanjiri.

Tayanch tushunchalar: izofa, izofa zanjiri, izofiy birikma, mo‘zof, mo‘zof-un eleyh.

Darsning maqsadi: Talabalarda izofa va izofa zanjir haqida tushuncha hosil qilish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. Izofa haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
2. Izofa zanjiri va uning imlosi haqida ma’lumot bera oladi.
3. Izofiy birikmalarni tavsiflay oladi.

Mavzu bayoni:

Fors tilida aniqlanmish bilan aniqlovchi yoki qaralmish bilan qaratqich munosabatlari izofa deb ataluvchi urg‘usiz e tovushi orqali ifodalanadi.

دانشجو کتا - ketobe doneshju, studentning kitobi - سرخ گل - Qizil gul-gule surx
ب Fors tili izofiy birikmasida so‘z tartibi o‘zbek tiliga qarama-qarshidir.
O‘zbek tilida avval aniqlovchi so‘ng aniqlanmish yoki avval qaratqich so‘ng qaralmish kelsa fors tilida esa aksincha avval aniqlanmish so‘ng aniqlovchi yoki avval qaralmish so‘ng qaratqich keladi. Fors tili grammatikasida izofiy birikmadagi aniqlanmish - مضاف mo‘zof va aniqlovchi اليه مضاف mo‘zofun-eleyh deb nomlanadi.

بزرگميز - bo‘zo‘rg - Katta stol – miz-e

Izofaning imlosi.

1. Undosh bilan tugagan so‘zlardan so‘ng izofa zir belgisi orqali yozilib e deb talaffuz etiladi. Odatda zir belgisi yozuvda tushib qoladi. Talaffuzda esa doimo saqlanadi.

طلاساعت - soate tello - Tilla soat

سعدى گلستان - Sa‘diyning Gulistoni-go‘listone Sa‘diy

2. e qisqa unlisi bilan tugagan so‘zlardan keyin izofa hamza belgisi orqali yozilib ye deb talaffuz etiladi.

ى نواحمسه - Xamsa –ye Navoi - Navoiyning Xamsasi

بزرگنويسنده - bo‘zo‘rg - Navisanda -ye

3. Cho‘ziq unlilar bilan tugagan so‘zlardan so‘ng izofa ى yo harfi orqali yozilib ye deb talaffuz etiladi .

گل بوى - bo‘yi go‘1 - Masalan: gul hidi

دانشكده ى دانشجو - doneshjuye doneshkade - Fakultet talabasi

Izofiy zanjir fors tilida aniqlanmish bir necha so‘z bilan aniqlanib kelishi mumkin. Izofiy zanjirda aniqlovchi so‘zlar bir-birini aniqlab izohlab va ma’nosini to‘ldirib keladilar, hamda o‘zaro izofa ko‘rsatkichi orqali bog‘lanadilar.

Aniqlanmish bilan aniqlovchi so‘zlar bir-birlari bilan izofa ko‘rsatkichi orqali zanjir kabi bog‘lanib keladilar va bir butun izofiy birikmani hosil qiladilar.

Talabalar uchun topshiriqlar:

1. Lug‘at ustida ishlash.

امروز - emruz - Bugun

دانشكده - doneshkade - Fakultet

دانشگاه - doneshgoh - Universitet

گرم - garm - Issiq

برف - barf - Qor

باران - boron - Yomg‘ir

سال - sol - Yil

خواهر - hohar - Opa-singil

2. Quyidagi forsiy birikmalarni tarjima qilish.

Til va adabiyot fakulteti, Tehron shahri, mashhur yozuvchi, yaxshi talaba, demokratik partiya, mening singlim, uning kitobi.

3. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Muhokama uchun savollar:

1. Forsiy izofa nima?
2. Fors izofasi ko`rsatkichi nima?
3. Izofali birikmalar qanday o`qilishi lozim?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi izofali so`z birikmalarini o`qing, yozilishi va o`qilishini izohlang:
2. Tubandagi so`z birikmalari asosida gap tuzing. Fors o`zbek yozuviga aylantiring: nuqtai nazar, labi xandon, ofati jon, tarjimai hol, sarvi ravon, qomati zebo, sarvi qad, g`amzai jonon.

Test.

1. Fors izofasining vazifasi nima?
A. Aniqlovchi – aniqlanmish, qaratqich – qaralmish munosabatini ifodalaydi.
B. Kuchaytirishni ifodalaydi. C. Ikkilantirish demakdir. D. Tinchlantirish degani.
2. Shamsiy harflar nechta?
A. 14 ta B. 28 ta S. 7 ta D. 32 ta
3. Qamariy harflar nechta?
A. 14 ta B. 4 ta S. 28 ta D. 7 ta
4. Arab izofasi ko`rsatkichi nima?
A. Al anqlik artikli B. E qisqa unlisi S. Ye qisqa unlisi
B. Arab izofasi ko`rsatkichi yo`q.
5. Fors izofasi ko`rsatkichi nima?
A. E qisqa unlisi B. Al anqlik artikli S. Ye qisqa unlisi
B. Fors izofasi ko`rsatkichi yo`q.

Mavzu bo`yicha asosiy xulosalar:

1. Izofa إضافة so`zining lug`afiy ma`nosi qo`shish va bog`lash
2. Fors izofasining ko`rsatkichi e urg`usiz tovushidir
3. Forsiy izofa ko`rsatkichi, odatda, yozuvda aks etmaydi:

Informatsion-uslubiy ta`minot

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. “Fors tili”. –T., 2007.

Mavzu: Fors tilida son kategoriyasi

Reja:

1. Fors tilida son kategoriyasi
2. Fors tilida ko`plik qo`shimchalari imlosi

Asosiy tushunchalar: Fors tilida son kategoriyasi, birlik, ko`plik, on -ان , ho -ها

Dars maqsadi: Fors tilida son kategoriyasi haqida ma`lumot berish, imlo savodxonligini oshirish.

Identiv o‘quv maqsadlari.

Otlarda birlik va ko‘plik formasi mavjudligini biladi.

ها –ho qo‘shimchasi orqali jonsiz predmetlardan ko‘plik yasalanishini izohlay oladi.

آن –on qo‘shimchasi asosan jonli predmetlardan ko‘plik yasalanishni sharhlab beradi.

ko‘plikning yasalanishi.

Mavzu bayoni:

1. Otlarning ko‘plik shaklini yasalanishini tushuntirib berish.

2. Fors tilida ko‘plik otlarni birlik shakliga آن on ها -ho qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi .

Fors tilida otlar ikki son formasida bo‘ladi:

1) Birlik shakl

2) Ko‘plik shakl

Agar birlik so‘zning birligidan dalolat beruvchi holat bo‘lsa, ko‘plik-so‘zning birdan ortiqligidan dalolat beruvchi holatdir. Fors tilida ismlar birlik holatda hech qanday ko‘rsatgichga ega emas. Ular toza holdagi o‘zaklar bo‘lib, lug‘atlarda berilgan.

Masalan:

خانه [xone] “uy” شخص [shaxs] “odam”

ها ko‘plik qo‘shimchasi. Ko‘plik yasovchi bu suffiks universal qo‘shimchabo‘lib, ham jonli, ham jonsiz predmetlarni ifodalovchi so‘zlardan ko‘plik yasaydi. Bu suffiks ham qo‘shilgan, ham alohida holda yozilgan bo‘lishi mumkin. Lekin agar so‘z birlik shaklda qisqa unli e [e] bilan tugagan bo‘lsa, ها ko‘plik qo‘shimchasi albatta alohida yoziladi:

پنجره+ها = پنجره ها

Misollar:

روزنامه [ruznome] “gazeta”-روزنامه ها [ruznomeho] “gazetalar”

کتاب [ketob] “kitob”-کتابها [ketobho] “kitoblar”

فیلم [film] “film”-فیلمها [filmho] “filmlar”

شهر [shahr] “shahar”-شهرها [shahrho] “shaharlar”

گوسفند [gusfand] “qo‘y”-هاگوسفند [gusfandho] “qo‘ylar”

آن ko‘plik qo‘shimchasi. Bu suffiks yordamida jonli predmetlarning ko‘plik shakli yasalanadi:

دختران – دختر

کارگران – کارگر

رهبران – رهبر

آن ko‘plik qo‘shimchasi juftlikni anglatuvchi inson a’zosining nomlarini, ba’zi o‘simliklar, shuningdek, vaqtni bildiruvchi so‘zlarning ko‘plik shaklini yasash uchun ham ishlatiladi:

چشمان – چشم

لبان – لب

درختان – درخت

شبان – شب

Hozirgi fors tilida ان [on] qo‘shimchasi o‘rnida ها [ho] ko‘plik qo‘shimchasi ishlatilmoqda. Natijada ها ko‘plik qo‘shimchasi ان qo‘shimchasi bilan bir qatorda jonli predmetlarga ham qo‘shilib, ulardan ko‘plik yasamoqda.M:

دخترها – دختران

مردها – مردان

گوسفنداها – گوسفندان

Ba‘zi so‘zlarda ko‘plik qo‘shimchasi ان o‘rniga ها qo‘shimchasini ishlatish natijasida so‘zning ma‘nosi butunlay o‘zgarib ketishi mumkin.

سربوسها – سربوسباشان

ان ko‘plik qo‘shimchasining imlosi

1. Agar ot birlik shaklda a, او, ی, cho‘ziq unilardan biri bilan tugagan bo‘lsa, ان ko‘plik qo‘shimchasi oldidan bir ى orttirilib, ان [yon] shaklida qo‘shiladi.

دانشجویان دانشجو

دانشمندان دانایان

2. Agar ot birlik shaklda qisqa unli e bilan tugagan bo‘lsa, ان ko‘plik qo‘shimchasi oldidan bir گ orttirilib, ان shaklida qo‘shiladi. Yozuvda esa e tushib qoladi:

Masalan:

نویسندهگان نویسنده

بچه بچگان

3) Agar so‘z u tovushi bilan tugagan bo‘lsa, u tovushi [o‘v] kabi talaffuz qilinadi:

ابروان – ابرو [abro‘von] – qoshlar

بانوان – بانو [bono‘von] – xonimlar

بازوان – بازو [bozo‘von] – bilaklar

Agar ega jonli predmet bilan ifodalangan bo‘lsa, kesim ko‘plik shakldagi ot bilan sonda moslashadi:

دانشجویان کتاب می خوانند

Agar ega jonsiz predmet bilan ifodalangan bo‘lsa, kesim ko‘pincha ega bilan sonda moslashmaydi:

روزنامه ها روی میز است

Talabalar uchun topshiriqlar.

1).Quyidagi so‘zlardan ko‘plik yasang.

روزنامه –روزنامه

sandali – stul- صندلی

taxte – doska- تخته

sarvat – boylik - ثروت

do‘xtar – qiz - دختر

pesar – o‘g‘il bola - پسر

kas – kishi - کس

dehqon – dehqon - دهقان

Test.

1. Fors tilidagi ko‘plik yasovchi qo‘shimshalar qaysilar?

- A. ها va ان ko‘plik qo‘shimchalari
 B. ان , هاين , ان ko‘plik qo‘shimchalari
 C. سينيqlik shakl D. ين - , يون - , ات -
 2. Jonsiz predmetlarga nisbatan ishlatiladigan ko‘plik qo‘shimcha qaysi?
 A. ها ko‘plik qo‘shimchasi B. ان ko‘plik qo‘shimchasi
 S. ات ko‘plik qo‘shimchasi D. ko‘plik qo‘shimchalarning barchasi to‘g‘ri.
 3. Jonlilarga nisbatan ishlatiladigan ko‘plik qo‘shimchacha qaysi?
 A. ان ko‘plik qo‘shimchasi B. ها ko‘plik qo‘shimchasi
 S. ات qo‘shimchasi D. ko‘plik qo‘shimchalarning barchasi to‘g‘ri.
 4. Unli bilan tugagan so‘zlarda on – ko‘plik qo‘shimchasi oldidan qanday harf orttiriladi.
 yo - harfi B. گ gof – harfi S. ء - hamza D. ~ - madda

Informatsion-uslubiy ta‘minot

1. Abdusamatov M. “Fors tili”. T., 2007.
2. Kuranbekov A va boshqalar. “Fors tili”. T., 2006

Mavzu: Egalik affikslari- zamoyer-e mo‘ttasele - متصله ضمائر

Reja:

1. Egalik affikslari haqida ma‘lumot
2. Egalik affikslari imlosi

Asosiy tushunchalar:

Zamoyer-e mo‘ttasele, م - am , نما - emon , ت - at , ن , تا - e ton , ش - ash , شان
 - eshon

Dars maqsadi: Egalik affikslari haqida ma‘lumot berish, imlo savodxonligini oshirish

Identiv maqsadlar:

- Egalik affikslari haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi.
 - Zamoyer-.. e mo‘ttaseleni yoddan aytib beradi
 - Zamoyer-e mo‘ttaseleni shaxs- sonlarda tuslay oladi.
- .Zamoyer-e mo‘ttasele imlosini tavsiflaydi. Ishni bajarish tartibi:

Mavzu bayoni: ضمائر متصله Egalik affikslari (zamoyere mo‘ttasele)

Fors tilida egalik affikslari otlarning oxiriga qo‘shilib narsaning qaysi shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Bu affikslar o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birga bir so‘z tarzida talaffuz qilinadi.

Egalik affikslari

جمع	ko‘plik	مفرد	birlik	shaxs
مان	Emon	م	am	۱
تان	Eton	ت	At	۲
شان	Eshon	ش	ash	۳

Egalik affikslari urg‘u olmay, balki undandan oldingi bug‘inga tushadi.
Egalik affikslari otlarning oxiriga qo‘shilib predmetni qaysi shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

Dust -do‘st so‘zining turlanishi.

مفرد - Mo‘frad-birlik.

جمع -Jam’ –ko‘plik.

Dustam – do‘stim - دوستم	dustemon – do‘stimiz	- دوستان
Dustat – do‘sting - دوستت	dusteton – do‘stingiz	- دوستان
Dustash – do‘sti - دوستش	dusteshon – do‘stlari	- دوستشان

2.Egalik affikslarining imlosini tushuntirish.

2.1 So‘z-e qisqa unlisi yoki -i cho‘ziq unlisi bilan tugagan bo‘lsa, egalik affikslarini oldidan birlik formada alif , ko‘plikda esa hamza belgisi qo‘yiladi.

خانه -xone -uy so‘zining turlanishi

مفرد - Mo‘frad-birlik.

جمع -Jam’ –ko‘plik.

hone-am- uyim - خانهام	hone –yemon – uyimiz	مانخانه
hone- at – uying - خانهات	hone – yeton – uyingiz	تانخانه
hone –ash – uyi - خانهاش	hone –yeshon – uylari	شانخانه

2.2 so‘z- o yoki - u unlisi bilan tugasa egalik affikslaridan -
oldin bir yo - ى orttiriladi. رو - ru yuz so‘zining turlanishi.

مفرد - Mo‘frad-birlik.

جمع -Jam’ –ko‘plik.

ruyam - yuzim - رويم	ruyemon -yuzimiz -	رويمان
ruyat -yuzing - رويت	ruyeton-yuzingiz -	رويگان
ruyash- yuzi - رويش	ruyeshon - yuzlari -	رويگان

Egalik affikslarining imlosi

Undosh. so‘ng	"e" va "i" unlisi. so‘ng	"o"va"u"unlisi. so‘ng
م am	ام am	يم yam
ت at	ات at	يت yat
ش ash	اش ash	يش yash
مان emon	ءمان yemon	يمان yemon
تان eton	ءتان yeton	يتان yeton
شان eshon	ءشان yeshon	يشان yeshon

3.Talabalar bajaradigan mashqlar:

Lug‘at ustida ishlash:

lebos - kiyim	لباس
hamsoye- qo‘shni	همسايه

xohar	- opa-singil	خواهر
shone	- taroq	شانه
bini	- burun	بینی
abru	- qosh	ابرو
ahvol	- ahvol	احوال
sedo	- tovush , ovoz	صدا
po	- oyoq	پا
amu	- amaki	امو

B). Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Ismingiz nima? Ismim Farrux . Shahrimiz go‘zal.

Qo‘shnimiz yozuvchi. Uyimiz uzoq.Do‘stingizning ahvoli qanday Uyingiz qayerda? Uyim Furqat ko‘chasida joylashgan.

V).Quyidagi gaplarni fors alifbosida yozing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Isme sho‘mo chist? Amuyat kist. Xohareton kujo kor mikunad.Ahvole dusteton chetur ast.Doneshyor-e mo ironi ast.Panjare-ye xoneyemon boz ast . Pedareton kist? Ketobeshon kujo ast? Xoneyeton kujo voqe ast.? Medode siyoxat ruye miz st.Esme pesare kucheke hamsoyeyeton chist? Esme pesare kucheke hamsoye mon Sober ast.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

- 1.Abdusamatov M. “Fors tili”. T., 2007.
2. Kuranbekov A va boshqalar. “Fors tili”. T., 2006
- 3.Dehqonova L. ”Fors tilida mustaqil ish matnlari”.

Mavzu: Miqdor sonlar va tartib sonlar

Reja :

اصلياعدادadād-e asli – miqdor sonlar haqida ma’lumot
ترتيباعدادadād-e tartibi – tartib sonlar haqida tushuncha

يعىزتواعداد كسرىاعداد صلياعداداعداد ترتيبى: **Asosiy tushunchalar:**

Dars maqsadi: Son so‘z turkumi haqida ma’lumot berish, songa oid mashqlar bajarish.

Identiv maqsadlar:

- qaysilar ekanligini biladi.
- Miqdor sonlar va tartib sonlarifodalashini farqlay oladi.

Mavzu bayoni:

Hozirgi zamon raqamlarining evolyutsiya jadvali.

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
Брахми	—	=	≡	𑖀	𑖁	𑖂	𑖃	𑖄	𑖅	
Гвалиор	𑌆	𑌇	𑌈	𑌉	𑌊	𑌋	𑌌	𑌍	𑌎	𑌏
Шарқий араб рақамлари	1	٢	٣	٤	٥	٦	٧	٨	٩	٠
Губор	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
976 йил қўл ёзмаси (Европа)	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	
XII-аср бошидаги қўл ёзма	1	٢	٣	٤	٥	٦	٧	٨	٩	٠
Санробоско асарининг қўлёзмаси (1442)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
А.Дюрер рақамлари (1525)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Видманнинг босма асаридаги рақамлар (1489)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0

Arab raqamlari – o‘nta matematik belgi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Bu raqamlar bilan istalgan katta yoki kichik sonni yozish mumkin. Arab raqamlarining ishlatilishida mashhur o‘zbek matematigi Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiyning muhim hissasi bor.

Arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilishguncha yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VI-asrdan boshlab arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo‘llanilgan. Muhammad Xorazmiy Hindistonda kashf etilgan o‘n raqamdan iborat pozitsion sistemani o‘rganadi, soddalashtiradi, kengaytiradi va birinchi marta arab tilida bayon etadi. Xorazmiy «Arifmetika»si bilan birga bu hind raqamlari arab Sharqiga kirib keladi. Xorazmiyning bu asari arabchadan lotinchaga tarjima qilinib, X-asrda Ispaniyaga, XII-asrda Evropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi va hanuzgacha jahonda mazkur raqamlar arab raqamlari nomi bilan yuritiladi. Arab raqamlarini jahonga tarqatgan Muhammad Xorazmiy ekanligi haqida Abu Rayhon Beruniy o‘zining «Hindiston» asarida aytib o‘tgan.

Eski o‘zbek yozuvida hozir arab raqamlari deb atalayotgan (aslida hind raqamlari bo‘lsa ham, ommaga arab raqamlari nomi bilan singib qolgan) raqamlardan foydalanilgan. Bu raqamlarning ba’zi shakllari hamda ko‘plikni ifoda etish tartibi hozirgi yozuvimiz raqamlari va uning tartibidan katta farq qilmaydi.

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa, sonlar chapdan o‘ngga qarab yoziladi va o‘qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko‘pliklarni va oxirida birliklarni yozish lozimdir. Masalan:

Miqdor sonlar

bir – yek	ایک	o‘n yetti – hefdah	١٧ هفده
ikki – do‘	دو	o‘n sakkiz – hejdah	١٨ هجده
uch – se	سه	o‘nto‘qqiz – nuzdah	١٩ نوزده
to‘rt – chor	چهار	yigirma – bist	٢٠ بیست
besh – panj	پنج	yigirma bir – bisto‘ yek	٢١ بیست و یک

olti – shesh	۶ شش	o'ttiz – si	۳۰ سی
yetti – haft	۷ هفت	o'ttiz bir – siyo' yek	۳۱ سی و یک
sakkiz – hasht	۸ هشت	qirq – chehel, chel	۴۰ چهل
to'qqiz – no'h	۹ نه	ellik – panjoh	۵۰ پنجاه
o'n – dah	۱۰ ده	oltmish – shast	۶۰ شصت
o'n bir – yozdah	۱۱ یازده	yetmish – haftod	۷۰ هفتاد
o'n ikki davozdah	۱۲ دوازده	sakson – hashtod	۸۰ هشتاد
o'n uch – sizdah	۱۳ سیزده	to'qson – navad	۹۰ نود
o'n to'rt – chordah	۱۴ چهارده	yuz – sad, yeksad	۱۰۰ صد، یکصد
o'n besh – ponzdah	۱۵ پانزده		
o'n olti – shonzdah	۱۶ شانزده		

۰ ۱ ۲ ۳ ۴ ۵ ۶ ۷ ۸ ۹

Birliklar

- ۱. یک yek
- ۲. دو do
- ۳. سه se
- ۴. چهار chohar
- ۵. پنج panj
- ۶. شش shesh
- ۷. هفت haft
- ۸. هشت hasht
- ۹. نه no'h
- ۱۰. ده dah
- ۱۱. یازده yozdah
- ۱۲. دوازده davozdah
- ۱۳. سیزده sizdah
- ۱۴. چهارده chahordah
- ۱۵. پانزده pohzdah
- ۱۶. شانزده shonzdah
- ۱۷. هفده hefdah
- ۱۸. هجده hejdah
- ۱۹. نوزده nuzdah

O'NLIKLAR

- ۱۰. ده dah
- ۲۰. بیست bist
- ۳۰. سی si
- ۴۰. چهل chehel
- ۵۰. پنجاه panjoh
- ۶۰. شصت shast
- ۷۰. هفتاد haftod
- ۸۰. هشتاد hashtod
- ۹۰. نود navad

YUZLIKLAR

100. صد sad ۱۰۰
200. دوست devist ۲۰۰
300. سیصد sasad ۳۰۰
400. چهار صد chahorsad ۴۰۰
500. پانصد ponsad ۵۰۰
600. ششصد sheshsad ۶۰۰
700. هفتصد haftsad ۷۰۰
800. هشتصد hashtsad ۸۰۰
900. نهصد no'hsad ۹۰۰

MINGLIKLAR

1000. هزار hezor ۱۰۰۰
2000. دو هزار do'hezor ۲۰۰۰
3000. سه هزار se hezor ۳۰۰۰
4000. چهار هزار choharhezor ۴۰۰۰

Yigirmadan yuqori bo'lgan sonlar (o'nliklar, yuzliklar va mingliklar) bir-birlari bilan bog'lovchisi orqali bog'lanib, murakkab son hosil qiladilar. o' bog'lovchisi talaffuzda o'z oldidagi songa qo'shilib, -o' tarzida talaffuz qilinadi, yozuvda esa ajratilgan holda yoziladi.

Fors tilida ham murakkab sonlar tartibi va ularning yozilishi o'zbek tilidagidek. 1425628 –ya'ni oldin million, so'ng ming, yuz va o'nlik, nihoyat birliklar keladi. Masalan, پنج و بیست

bist-o' panj - 25

347- haft-o' chehel-o' sisad-o' هفت و چهل و سیصد

6531-yek-o' si-o' ponsad-o' shesh hezor-o' yek-6531 یک و سی و پانصد و هزار شش

Tartib sonlar ترتیبی اعداد a'dod-e tartibi

Fors tilida tartib sonlar quyidagicha yasaladi:

1. Sanoq sonlar oxiriga o'm qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan,

- haft- yetti hafto 'm-yettinchi هفت
- dah-o' n' dah-o' m- o' ninchi ده
- bist-o' panj bist-o' panjo' m بیست و پنجم
- yigirma besh yigirma beshinchi

Tartib sonda urg'u doim o'm qo'shimchasiga tushadi.

no'ho' m – to' qqizinchi

hejdaho' m – o' nsakkizinchi

chehel – oshesho' m- qirqoltinchi

2. Son oxiriga o'min qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

o'min qo'shimchasi o'm ga nisbatan kam ishlatilib, asosan adabiy tilda uchraydi.

panj – besh پنجمین panjo' min-beshinchi

haft – yetti hafto 'min – yettinchi

chehel – qirqinchi

3. Fors tilida yekko – birinchi tartib soni bilan bir qatorda shu sonning arabcha ekvivalenti avval soʻzi koʻp ishlatiladi . Masalan: dars-avval – birinchi dars

Shu bilan birga, fors tilida boshqa arab sonlari ham uchraydi.

soni – ikkinchi

soles – uchinchi va hokazo

1- topshiriq. Quyidagi raqamlarni soʻz bilan yozing.

۳، ۵، ۴، ۹، ۸، ۲۰، ۱۷، ۲۳، ۴۸، ۱۹۵۲، ۴۰۰۸، ۶۱۳، ۷۹۸۲،
۹۶، ۴۰، ۲۰۳، ۵۸۷

Test.

1. Poygirning vazifasi nima?

A. Sahifalashning bir turi boʻlib, “qadam olmoq” maʼnosini bildiradi.

B. Raqamni bildiradi. S. Sonni bildiradi. D. Barcha javoblar toʻgʻri.

2. Arab raqamlarining qaysilari biz qoʻllayotgan raqamlarga oʻxshaydi?

A. 9- ۹ 1- ۱ 0 ۰

B. 6,0,1, 5

C. 1,2,3

D. 9,0,5

Informatsion-uslubiy taʼminot

1. Abdusamatov M. “Fors tili”. T., 2007.

2. Kuranbekov A va boshqalar. “Fors tili”. T., 2006

3. A. Juvonmardiyev. “Harf va raqam”.

Mavzu :Matn ustidaishlash

Reja:

Darsning maqsadi: Talabalarni matn ustida ishlashga oʻrgatish, lugʻat bilan ishlash malakasini hosil qilish, yozma va ogʻzaki savodxonligini oshirish.

Ishning bajarish tartibi

matnni toʻgʻri oʻqitish, lugʻat bilan ishlash asosida matnni tarjima qilish, matn yuzasidan savollar tuzish va savollarga javob berish, yangi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish. Darslikda berilgan topshiriqlarni bajartirish.

1. Matnni oʻqib tarjima qilish.

حكايت

• رفتی ثروت مند مرد پیش فقیری شاعر روزی

بود فاصله و جبیک آنهامیان که او نیشست نزدیک. ثروت مند مرد

خرو تو میان که پرسید و از شاعر شد خشمگین کار این از

گفت است؟ تفاوت چه : و جبیک . این از ثروت مند مرد

خواست و عذر شد خجل جواب .

2. Yangi soʻzlar ustida ishlash.

Lugʻat

- شاعر - shoir
فقير - kambagal
• ثروتمند - boy
چنان - shunday
نزدیک - yaqin
oʻtirdi - nishist
میان - ora
وجب - qarich
خواست عذر - uzrs oʻradi
شددخل - xijolatboʻldi
خر - eshak
فاصله - farq
شددخشمگین - gʻazablandi

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. حکایت ga doir savollar tuzing va javob bering.

2. Savollarga javob bering:

- رفت؟ ثروتمندمردپیش که
نیشست کجافقیر ی شاعر
بود فاصله و جب چند آنهامیان
پرسید چه از شاعر ثروتمندمرد
داد جواب چه شاعر؟ خواست و عذر که از ثروتمند

Informatsion-uslubiy taʼminot

1. Abdusamatov M. "Fors tili". T., 2007.

2. Kuranbekov A va boshqalar. "Fors tili". T., 2006

Mavzu: Feʼl.Feʼl negizlari. Oʻtgan zamon aniq feʼli.

Reja:

1. Oʻtgan zamon aniq feʼlining yasalihi va tuslanishi.
2. Oʻtgan zamon aniq feʼlining boʻlishsiz shakli.
3. Inkor yuklamasining imlosi.

Asosiy tushunchalar: Feʼlning noaniq formasi, feʼl negizlari, مطلق ماضی.

Dars maqsadi: Talabalarga feʼl negizlarining yasalihi haqida maʼlumot berish, imlo savodxonligini oshirish.

Identiv maqsadlar:

- مطلق ماضی ni yasalihini tushuntirish.
- Feʼlning noaniq formasi qanday yasalihi haqida maʼlumot berish.
- Feʼlning noaniq formasi qanday yasalihini izohlash.

Mavzu bayoni:

Fors tilida fe'lining ikkita negizi bor:

1) o'tgan zamon fe'l negizi - گذشته ستاک

2) hozirgi zamon fe'l negizi - حال ستاک

Fe'lining o'tgan zamon negizi oddiy yo'l bilan, ya'ni, fe'lining noaniq formasidan n-an qismini olib tashlash orqali yasaladi.

O'tgan zamon aniq fe'li o'tgan zamon fe'l negiziga shaxs-son qo'shimchasi qo'shish orqali yasaladi.

O'tgan zamon shaxs-son qo'shimchalari quyidagicha:

جمع - ko`plik	مفرد - birlik	shaxslar
یم - im	م - am	1
ید - id	ی - i	2
ند - and	-	3

O'tgan zamon fe'lining III-shaxs birlik shakli o'tgan zamon fe'l negizi shakliga

to'g'ri keladi. Fe'ning tuslanishida urg'u shaxs - son qo'shimchalariga tushadi.

دیدن didan - (ko'rmoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

دیدم man didam - Men ko'rdim.

دیدیدی to' didi - Sen ko'rding.

دید او u did - U ko'rdi.

جمع

دیدیم modidim - Biz ko'rdik.

دیدید شما sho'modidid - Siz ko'rdingiz.

دیدند آنها onho didand - Ular ko'rdilar.

برگشتن bar - gashtan -(qaytmoq) fe'lining tuslanishi

O'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shakli.

O'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shakli fe'l oldiga نه na - inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi. Bunda asosiy kuchli urg'u inkor yuklamasiga tushadi, ikkinchi kuchsiz urg'u esa shaxs - son qo'shimchalarida bo'ladi. Masalan:

رفتن raftan - (bormoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

مفرد

نرفتم man naraftam - Men bormadim.

نرفتی تو to' narafti - Sen bormading.

نرفت u naraft - U bormadi.

جمع

نرفتیم monaraftim - Biz bormadik.

نرفتید شما sho'mo naraftid - Siz bormadingiz.

نرفتند آنها onho naraftand - Ular bormadilar.

Prefiksli va qo'shma fe'llarda نه na- inkor yuklamasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi.

فارفارو – gereftan – (o'rganmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi.
مفرد

من نگر فتم من فرا man faro nagereftam – Men o'rganmadim.

تو نگر فتمی فرا تو ' nagerefti – Sen o'rganmading.

او فرا نگر فتم u faro nagereft – U o'rganmadi.

جمع

ما نگر فتمی فرا ما mofaronagereftim – Bizo'rganmadik.

شما نگر فتمی فرا شما ' mofaronagereftid – Siz o'rganmadingiz.

انها نگر فتمی فرا آنها onho faro nagereftand – Ular o'rganmadilar.

Inkor yuklamasining imlosi

1. ا o cho'ziq unlisi bilan boshlangan fe'llarning bo'lishsiz shaklida نه - na inkor yuklamasidan so'ng bir ی - y orttirilib yoziladi. Yozuvda alif ustidagi madda belgisi tushib qoladi.

آمدن omdan – (kelmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

مفرد

من نیامدم man nayomadam – Men kelmadim.

تو نیامدی ' nayomadi - Sen kelmading.

او نیامد u nayomad - U kelmadi.

جمع

ما نیامدیم monayomadim – Biz kelmadik.

شما نیامدید ' monayomadid – Siz kelmadingiz.

انها نیامدند onho nayomadand – Ular kelmadilar.

2. ayokio'qisqaunlisibilanboshlanganfe'llarningbo'lishsizshaklida نه - nainkoryuklamasidanso'ng, ی - yorttirilib, fe'l boshidagialiftushibqoladi.

افتادن o'ftodan – (yiqilmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

مفرد

من نیفتادم man nayo'ftodam – Men yiqilmadim.

تو نیفتادی ' nayo'ftodi – Sen yiqilmading.

او نیفتاد u nayo'ftod – U yiqilmadi.

جمع

ما نیفتادیم mo nayo'ftodim – Biz yiqilmadik.

شما نیفتادید ' mo nayo'ftodid – Siz yiqilmadingiz.

انها نیفتادند onho nayo'ftodand – Ular yiqilmadilar.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Fe'ning noaniq formasi qanday yasaladi.

2. Quyidagi fe'llarni مطلق ماضی ni مطلق ماضی da tuslang: 1. رفتن, آمدن, دیدن, 3. مطلق ماضی

3. Quyidagi fe'llarni o'tgan zamonda tuslang:

1. پورسیدن - po'rsidan 2. خوردن - xo'rdan 3. گفتن - go'ftan 4. خوردن - ovardan 5. raftan - خریدن - xaridan 6. dodan - دادن 7. دیدن - didan 8. آمدن - omdan 9. خریدن - خریدن

Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shakliga gaplar tuzing.
2. Ushbu gapni fors tiliga tarjima qiling "Men kecha darsga bormadim".
3. Ushbu so'zlarni fors tiliga tarjima qiling:
ish, dam, qasam, bayram, tug'ilish, ishlamoq, dam olmoq, qasam ichmoq, bayram qilmoq, tug'ilmoq.

Test.

1. Fors tilida fe'ning noaniq shakli qanday bo'ladi?
A. ن – an bilan tugagan bo'ladi. B. Maxsus negiz bor.
S. ن – an qismini olib tashlash orqali. D. To'g'ri javob yo'q.
2. Fe'llar tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?
A. 3 xil B. 2 xil S. 4 xil D. 5 xil
6. Fe'l negizlari nechta?
A. 2 xil B. 3 xil S. 1 xil D. 4 xil
7. Fe'ning bo'lishsiz shakli qanday yasaladi?
A. Fe'l oldidan na – inkor yuklamasini keltirish orqali.
B. Prefiks oldidan inkor yuklamasini qo'yish orqali.
C. Mi – old qo'shimchasini qo'shish orqali. D. To'g'ri javob yo'q.

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. M. Abdusamatov "Fors tili" "Sharq" nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov "Fors tili" Toshkent 2006 yil.

Mavzu: Fors tilida predloglar

Reja:

1. Murakkab predloglar.
2. Izofali murakkab predloglar.
3. Izofasiz murakkab predloglar.

Dars maqsadi: fors tilidagi predloglar haqida ma'lumot berish.

Mavzu bayoni:

Forstilidake lishik kategoriyasi yo'q.
Otlarning o'zarosintaktik munosabatlari izofa, ko'makchi, predloglar orqali ifodalanadi.

Predloglar اضافي حروف

Forstilidagi predloglar o'zlarining tarkibi ga kura 3 qismga bo'linadilar.

1. Asosiy predloglar
 2. Izofali predloglar
 3. Murakkab predloglar
- Asosiy predloglar

Fors tilida asosiy predloglar (sodda predloglar) sermaxsul bulib, kelishik munosabatlarini ifodalovchi vosita xisoblanadi. Sodda predloglarning xususiyati shundaki, uzidan keyin ular izofa bilan boglanmaydi.

Shuni aytish joizki, براي «uchun» predlogidagi «e» tovushi izofa ko'rsatkichi emas.

Hozirgi zamon fors tilida 9ta sodda predloglar mavjud.

جز - تا - بر - بي - براي - با - از - در - به

Murakkab predloglar mustaqil ma'noga ega bo'lgan ayrim so'zlarning در dar , be, az predloglari bilan birikuvi orqali hosil qilinadi. Murakkab predloglarning ba'zilar izofali va ba'zi birlari izofasiz bo'ladi. Izofali predloglar o'zidan keyingi so'z bilan izofa orqali va izofasiz predloglar izofasiz bog'lanadi.

Izofali murakkab predloglar

darbob-e - haqida , to 'g'risida , xususida

darbore-ye - haqida , to 'g'risida , xususida

darxo'susi - haqida , to 'g'risida , xususida

daratrof-e - haqida , to 'g'risida , xususida

darroh-e - yo'lida

bevasile-ye - orqali , vositasibilan , bilan

bevosete-ye - orqali , vositasibilan , bilan

- Izofasiz murakkab predloglar

roje'be - haqida , to 'g'risida

oyedbe - haqida , to 'g'risida

eyraz - ...danboshqa , ...danbo'lak

pasaz - ... danso 'ng, ... dankeyin

ba'daz - ...danavval, ...danilgari

pishaz - ...danavval, ...danilgari

qablaz - ...danavval, ... danilgari

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

a) Men Eron shoirlari she'rlarining o'zbekcha tarjimasini sotib oldim.

b) Toshkent metrosi juda ko'rishli va chiroyli.

d) Do'stim menga Afg'onistondan bir necha forscha kitoblar yubordi.

2. Quyidagi maqollarni o'qing va yod oling.

a) عشق آمدنی استنی اموختنی

b) هر خوردنی پس دادنی دارد

d) شدنی شددیگر خواهشد

Test

1. Fors tilida predloglartarkibiga ko'ra necha xil bo'ladi?

A. 3 xil B. 4 xil S. 5 xil D. 2 xil

2. Harakatning yo'nalish o'rni, harakat yo'nalgan shaxs kabi ma'nolarni bildiruvchi predlog qaysi?

A. به be

- B. از az
C. را ro
D. بر bar
3. در dar predlogi qanday ma'noda qo'llanadi.
A. Ish harakat o'rni va vaqtini bildiruvchi.
B. Harakatning yo'nalishini bildiruvchi
C. Ish harakatning boshlanish o'rni bildiruvchi
D. Maqsad sababni anglatuvchi
4. O'zbek tilida chiqish kelishigini anglatgan ma'nolarga mos keluvchi ish-harakatning boshlanish o'rni, paytini bildiruvchi predlog qaysi?
A. از az B. در dar S. با bo D. تا to
5. Birgalik hamkor, qurol, vosita ma'nolarini anglatuvchi predlog qaysi?
A. با bo B. در dar S. از az D. تا to
6. رفت سمرقند شهر به اتونوس _____ دوستم mazkur gapda qaysi predlogni qo'yishimiz mumkin.
A. با bo B. در dar S. از az D. تا to
7. Murakkab predloglar qaysi predloglar birikuvidan hosil qilinadi?
A. Hamma javob to'g'ri. B. در dar S. از az D. به be

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. M. Abdusamatov "Fors tili" "Sharq" nashiryoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov "Fors tili" Toshkent 2006 yil.

Mavzu: Izofali predloglar.

Reja:

1. Izofali predloglar haqida tushuncha berish
2. Izofali predloglar imlosi haqida ma'lumot berish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: پهلو زیرپیش روئزدین سر بالامیان

Dars maqsadi: Izofali predloglar haqida ma'lumot berish. Izofali predloglarga oid mashqlar bajarish.

Identiv o'quv maqsadlari:

Izofali predloglar qaysilar ekanligini biladi.
Izofali predloglar vazifasini izohlay oladi.

Mavzu bayoni:

Izofali predloglar haqida ma'lumot

1. Jonli va jonsiz predmetlar uchun qo'llanadigan numerativlarni biladi
2. Fors tilidagi numerativlar yordamida gaplar tuza oladi.

Mavzu bayoni:

Fors tilida miqdor bildiruvchi sonlar odatda numerativ deb ataluvchi yordamchi so'zlar bilan qo'llanib, predmetning son miqdori nechtaligini, donasini anglatadi. Numerativ son va sanaluvchi predmetlar nomini bildirgan so'zlar orasiga qo'yiladi. Numerativlardan so'ng izofa kelmaydi. Fors tilida turli predmetlar uchun juda ko'p numerativlar ishlatiladi. Quyida biz ularning ba'zilarini ko'rsatib o'tamiz.

1. insonlar uchun نفر tan (jon kishi)

دانشجویان چاهار chahor nafar doneshju— to'rt nafar student

دختران سه se tan do'xtar- uchta qiz

نفر nafar va tan numerativlari sanaluvchi predmetsiz ham ishlatilishi mumkin. Bu holda ular numerativlik xususiyatini yo'qotib, mustaqil so'z ma'nosiga ega bo'ladi.

بود عبارت نفر پنجاه از ما خانواده

xonevode-ye mo az panj nafar eborat bud- Bizning oila besh kishidan iborat edi.

کرد سخنرانی این موضوع دانشجویان از نفر چهار

Studentlardan to'rt kishi shu temada doklad qildi.

3. Hayvonlar uchun رأس ras (bosh)

گوسفند سر آده O'n bosh qo'y

گاو سر آهفت etti bosh sigir

Jonsiz predmetlar uchun juda ko'p numerativlar ishlatiladi. Quyida biz ularning ba'zilarini ko'rsatib o'tamiz.

1. Uy-ro'zg'or va boshqa predmetlar uchun –to تا (ta, dona)

میز تادو do' to miz—ikkita stol

مداد تاپنج panjto medod- beshta qalam

2. Har turli mashinalar, stanoklar va avtomabillar uchun دستگاه dastgoh

باری او تومابیل دستگاه چهل chezhel dastgoh o'to'mo'bil-e bori -qirq dona yuk tashiydigan avtomobil.

3. Juft predmetlar uchun جفت jo'ft

جواب جفت يك yek jo'ft jurob - bir juft paypoq

دو كفش جفت do' jo'ft kafsh- ikki juft oyoq kiyimi

4. Ba'zi kiyimliklar uchun دست dast (dona, qo'l)

شلوار و كت دست يك yek dast ko't-o' shalvor-bitta kastyum-shim

پراهن دست دو do' dast nirohan- ikkita ko'ylak

5. Kema, paraxod, samolyotlar uchun فرود farvand

كشتی فرود چاهار chahor favand kashti-to'rtta kema

- هو اېيما فروندېڭ panj farvand havopeymo- beshta samalyot
 6. Uy va imorotlar uchun باب bob (eshik)
 خانه باب هشت hasht bob xone-sakkizta uy
 7. Kitoblar uchun جلد jeld (jild, dona);
 كتاب جلد سه se jild ketob- uch jild kitob
 8. Boshqa ko'pgina predmetlar uchun دانه done (dona);
 سيب دانه پنڭ panj done sib-besh dona olma
 قلم دانه پنجاه panjoh done qalam – ellik dona ruchka

Savol va topshiriqlar:

1. Jonsiz predmetlar uchun qo'llanadigan numerativlarni yozing.
آمدن، شدن بیرون، خریدن
2. Fors tiliga tarjima qiling.
A) U menga uch jild kitob bergan edi.
B) Otam o'zi uchun bitta kastyum-shim sotib oldi.
V) Do'stimda ikki juft oyoq kiyimi bor edi.
G) U besh dona olma oldi.

Test.

1. Mashinalar, stanoklar va avtomabillar uchun qanday numerativ ishlatiladi?
A. دستگاه B. سرأ ras S.to تا (ta, dona) D. نفر
2. Uy va imoratlar uchun qanday numerativ ishlatiladi?
A. باب B. سرأ ras S. تا (ta, dona) D. نفر
3. Ko'pgina predmetlar uchun qanday numerativ ishlatiladi?
A. دانه done B. سرأ ras S.to تا (ta, dona) D. نفر
4. Ba'zi kiyimliklar uchun qanday numerativ ishlatiladi?
A. دست dast B.to تا (ta, dona) S. دستگاه

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. M. Abdusamatov "Fors tili" "Sharq" nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov "Fors tili" Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Fors tilida arabcha ko'plik.

REJA:

4. ات [at] suffiksi yordamida yasalgan ko'plik shakllar
5. ين [in], ون [un] suffiksi yordamida yasalgan ko'plik shakllar
6. Siniq ko'plik shakllari

Darsning maqsadi: Fors tiliga kirib kelgan arabcha ko'plik shakllarini tushuntirish. Arabcha ko'plik yasovchi qo'shimchalar va siniq ko'plik shakli haqida ma'lumot berish. Fors tilidagi arabcha ko'plikka doir mashqlar bajarish.

Mavzu bayoni:

ات ko'plik qo'shimchasi

Bu suffiks asosan arab tilidan fors tiliga o‘zlashgan o‘zlashmalardan ko‘plik yasaydi:

اقدامات tadbirlar
حيوانات hayvonlar

Agar so‘z [e] yoki ت [ât] ga tugagan bo‘lsa, bu qo‘shimchalar tushib qolib, ات suffiksi o‘zakka qo‘shiladi:

كلمات – كلمه
حكايات – حكايت

ko‘plik qo‘shimchasi fors tiliga shunchalik moslashib olganki, hatto haqiqiy forsiy so‘zlardan ham ko‘plik yasashi mumkin.

Masalan: دهات - ده

دستورات - دستور

Agar so‘z qisqa unli [e] ga tugasa, ات [at] ko‘plik qo‘shimchasi جات [jat] ga aylanadi:

ميوجات - ميوه mevalar

دستجات - دسته guruhlar

كارخانجات - كارخانه korxonalar

Ba‘zi paytlarda ko‘plik qo‘shimchasining qo‘shilishi natijasida so‘z o‘zagida o‘zgarishlar ro‘y beradi:

زحمت [zâhmât]

زحمات [zâhâmat]

صفحه [sâfhe]

صفحات [sâfâhat]

ين [in], ون [un] ko‘plik qo‘shimchalari

Mazkur suffikslardan [in] ko‘plik qo‘shimchasi arab tilidan fors tiliga o‘zlashgan faoliyat, mutahassislik, muayyan bir sohaning bilimdonini ifodalovchi so‘zlardan ko‘plik yasaydi.

معلمين - معلم muallimlar

متخصصين - متخصص mutaxassislar

مهندسين - مهندس muhandislar

ون [un] ko‘plik qo‘shimchasi arab tilida muzakkar jinsdagi so‘zlarning ko‘plik shakllarini yasashda ishtirok etadi:

روحانيون - روحاني ruhoniylar

انقلابيون - انقلابي inqilobchilar

Siniq ko‘plik

Siniq ko‘plik flektiv tillarda ichki fleksiya asosida yasaladigan ko‘plik shakldir. Bu shakllar soni 10dan ortiq bo‘lib, maxsus qoliqlar asosida vujudga keladi. Ularning muayyan bir qoidasi yo‘q. Ularni faqat lug‘atlar orqali aniqlash mumkin.

TESTLAR

1. Fors tilida otlarning ko‘plik shakli qanday usullar yordamida yasaladi?

- A) ko‘plik yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali;
- B) چند olmoshi yordamida;
- C) siniq ko‘plik (ichki fleksiya) orqali;
- D) A va C.

2. Arab tilidan o‘zlashgan ko‘plikqo‘shimchalari yopdamida yasalgan so‘zlarni aniqlang.

- A) معلمين, خبرنگاران, ادارات
- B) ملل, دختران, کشورها
- C) زنان, انقلا بيون, مبارزات
- D) سبزيجات, ناظرين, ميوجات

3. Siniqko‘plikqandayusuldayasaladi?

- A) Ichki fleksiya vositalari yordamida;
- B) So‘z o‘zaklari orasiga harf qo‘shilishi yoki tushib qolishi orqali;
- C) So‘zning birlik shakliga suffiks qo‘shish orqali;
- D) to‘g‘ri javob A va B.

4. ko‘plikqo‘shimchasi to‘g‘ri qo‘shilgan qatorni toping

- A) بازويان, ابروان, شهروندان
- B) هندوان, لبان, نمايندگان
- C) سخنان, سران, بازووان
- D) سرمايه داران, نماينده گان

5. Siniq ko‘plik yordamida yasalgan so‘zlar qatorini ko‘rsating

- A) ملل, كارخانجات, وسيله
- B) معلمين, وسايل, انقلا بيون
- C) كارشناسان, موثاور, نمايندگان
- D) هدايا, علما, ملل

Informatsion-uslubiy ta‘minot

- 1.M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashiryoti Toshkent 2007
- 2.A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
- 3.Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu:Sifat darajalari

Reja:

1. Sifat haqida ma‘lumot.
2. Sifat darajalari haqida ma‘lumot.

Dars maqsadi:Fors tilidagi sifat so‘z turkumi va uning yasalishi bilan tanishtirish. Sifat darajalari qo‘shimchalarini aniqlash, ularga doir mashqlar bajarish.

Mavzu bayoni:

Sifat صفت sefat

Fors tilida sifatlar asliy va nisbiy sifatga bo‘linadilar. Asliy sifatlar bevosita predmetning belgisini bildiradi. Nisbiy sifatlar esa predmetning belgisini uning boshqa biror predmet bilan bo‘lgan munosabatiga ko‘ra bilinadi.

Daraja ko‘rsatish faqat sifatlarga xos bo‘lib, bu sifatlarni boshqa so‘z turkumlaridan ajratuvchi asosiy belgilardan biridir.

Fors tilida sifatning uch darajasi bor :

- 1)oddiy daraja;
- 2)chog‘ishtirma daraja;
- 3)orttirma daraja;

Oddiy daraja.

Oddiy daraja sifatning muayyan, ma’lum bir belgisini bildiruvchi shaklidir.

Masalan:

خوب xub-yaxshi, بد bad-yomon,
قشنگ qashang-chiroyli,
جوان javon-yosh.

Chog‘ishtirma daraja.

Chog‘ishtirma daraja sifatning oddiy darajasiga tar affiksini qo‘shish orqali hosil qilinadi.

بد bad-yomon بدتر badtar-yomonroq,
جوان javon-yosh, جوانتر javontar-yoshroq.

Odatda ikki predmetni bir-biri bilan chog‘ishtirish analitik yo‘l bilan olib boriladi. Bunda chog‘ishtiruvchi predmet از predlogini qabul qilib, undan so‘ng kelgan sifat tar affiksi bilan keladi. Masalan:

است انتر جو من از احمد /ast antr jo man javontar ast-Ahmad mendan yoshroqdir.

Orttirma daraja.

Orttirma daraja oddiy darajadagi sifatlarning oxiriga tarin affiksini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan:

بزرگ bo‘zo‘rg-katta
بزرگترین bo‘zo‘rgtarin-eng katta

Sifatning chog‘ishtirma va orttirma darajasida urg‘u so‘zning oxirigi bo‘g‘iniga tushadi.

بزرگتر bo‘zo‘rgtar
بزرگترین bo‘zo‘rgtarin

Ba‘zan chog‘ishtirma darajada tar affiksi tushib qolishi ham mumkin. Bu holda به beh so‘zining o‘zi chog‘ishtirma ma’nosini bildiradi.

دانشجویین بهتر /dانشجویین بهتر behtar in doneshju-eng yaxshi talaba.

Orttirma darajadagi sifatdan soʻng kelgan soʻz koʻplik shaklida kelsa, ikki xil maʼno bildirishi mumkin. Masalan:

- **هاهتل ترين قشنگ** qashangtarin hotelho-eng chiroyli mehmonxonalar
- **هاهتل ترين قشنگ** qashangtarin-e hotelho-Mehmonxonalarining eng chiroylisi.
- Baʼzan sifatlar otlashib otga xos boʻlgan barcha morfologik xususiyatlarga ega boʻladilar. Bu hol koʻpincha maqol va matallarda kuzatiladi. Masalan:
- **سياه نشيني ديك باشوي نيك نشيني بانیک** bo nik neshini nik shavi, bo dik neshini siyoh

Topshiriqlar:

1. Quyidagi sifatlardan chogʻishtirma va orttirma darajadali sifatlar yasang.

کم kam-kam, oz

گرم garm-issiq

دراز deroz-uzun

تلخ talx-achchiq

2. Lugʻatlardan foydalanib gaplar tuzing.

Test.

7. Fors tilida sifatning nechta darajasi bor?
A. 3 ta B. 2 ta S. 4 ta D. Fors tilida sifatning darajasi yoʻq.
8. Fors tilida sifatning chogʻishtirma darajasi qanday yasaladi?
A. Oddiy darajaga **تر**- tar affiksini qoʻshish orqali hosil qilinadi.
B. Oddiy darajadagi sifatoxiriga **ترین**- tarin affiksini qoʻshish orqali yasaladi.
C. Sifatning muayyan, maʼlum bir belgisini bildiruvchi shaklidir.
D. Toʻgʻri javob yoʻq.
9. Fors tilida sifatning orttirma darajasi qanday yasaladi?
A. Oddiy darajadagi sifatoxiriga **ترین**- tarin affiksini qoʻshish orqali yasaladi.
B. Oddiy darajaga **تر**- tar affiksini qoʻshish orqali hosil qilinadi.
C. Sifatning muayyan, maʼlum bir belgisini bildiruvchi shaklidir.
D. Toʻgʻri javob yoʻq.

Informatsion-uslubiy taʼminot

1. M. Abdusamatov "Fors tili" "Sharq" nashriyoti Toshkent 2007

2. A. Kuranbekov "Fors tili" Toshkent 2006 yil.

3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Payt ergash gap.

Reja:

1. Payt ergash gap haqida.
2. Payt ergash gap bogʻlovchilari haqida

Dars masadi: Fors tilida ergash gap turlari haqida maʼlumot berish. Payt ergash gapli qoʻshma gapni tushuntirish. Ergashtiruvchi bogʻlovchilar ustida mashqlar bajarish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Chun, vaqti-ke,ke, hangomi-ke, be mahz-e in ke, to, to-ke, pas az on ke, ba'd az in ke, pish az on ke, qabl az on ke.

Dars maqsadi: Payt ergash gap belgilari haqida ma'lumot berish va ular imlosi bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Payt ergash gap qaysilar ekanligini biladi.
2. Chun, vaqti-ke,ke, hangomi-ke, be mahz-e in ke, to, to-ke, pas az on ke, ba'd az in ke, pish az on ke, qabl az on ke. belgilarining imlo qoidalarini farqlay oladi.

Mavzu bayoni:

Payt ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning paytini, qay vaqtda bajarilganini bildiradi va **key? چه وقت** dar che vaqt? (qachon, qay vaqtda?) savollariga javob bo'ladi.

Payt ergash gap bosh gapga **چون chun?**, **vaqti-ke**, **hangomi-ke**, **hamin-ke**, kabi bog'lovchilar orqali bog'lanadi. Bu ergashtiruvchi bog'lovchilar ma'nolari o'zbek tilida quyidagi vositalar orqali beriladi.

چون chun?, **vaqti-ke**, **hangomi-ke** bog'lovchilari o'zbek tiliga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshlar yordamida yoki o'tgan zamon sifatdoshidan so'ng vaqtda, paytda, chog'ida kabi so'zlarni keltirish yo'li bilan beriladi. Bu to'rt bog'lovchidan **چون chun?**, **vaqti-ke**, **hangomi-ke** asosan ergashgan gapning boshida va **ke** bog'lovchisi esa bosh gap bilan ergash gap o'rtasida keladi.

ke bog'lovchisi hech vaqt gap boshida kelmaydi.

Payt ergash gap asosan bosh gapdan oldin, ba'zi hollarda bosh gapdan so'ng keladi. Masalan: **vaqti ke man omadan dar-e xone boz bud- Men kelganimda**, uyingning eshigi ochiq edi.

hamin-ke, **be mahz-e in-ke** bog'lovchilari bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bevosita ergash gapdan so'ng, shu vaqtning o'zidayoq bajarilishini ko'rsatadi. **hamin-ke**, **be mahz-e in-ke** bog'lovchilari o'zbek tiliga egalik qo'shimchalarini olgan harakat nomini bildiruvchi otlir hamda bilan bog'lovchisi yordamida yoki –gach qo'shimchali ravishdoshlar orqali beriladi

Masalan: **باريدان بارر سیدی دریاکنار به اینکه محض به** -

be mahz-e in-ke kenor-e daryo rasidim boron borid- Dengiz qirg'og'iga yetishimiz bilan yomg'ir yog'ib yubordi.

3) **to**, **to-ke** bog'lovchilari guncha affiksi yordamida yasalgan ravishdosh yoki jo'nalish kelishigi qo'shimchasi olgan sifatdosh va undan so'ng qadar so'zini keltirish orqali **to**, **to-ke** bilan bog'langan qo'shma gapda bosh gap va ergash gap kesimidan anglashilgan ish-harakat o'tgan zamonga oid bo'lsa, bosh va ergash gapning kesimi o'tgan zamon fe'l shakllaridan birida keladi. Masalan: **to havo sard**

nasho‘d man polto‘-ye zemestoni naxaridam- Sovuq tushmaguncha, men qishki palto sotib olmadim.

Agar bosh va payt ergash gap kesimidan anglashilgan ish-harakat kelasi zamonga oid bo‘lsa, ergash gapning kesimi مضاع التامی shaklida, bosh gapning kesimi esa hozirgi-kelasi zamon yoki aniq kelasi zamon fe‘li shaklida keladi.

Masalan:

رفت پنخواهم ایجاز نکنمحل مسئلہ را این من تا - to man in mas‘alero hal nako‘nam az injo naxoham raft- Bu masalani hal qilmaguncha, bu yerdan ketmayman

پس از آنکه از پیش ba‘d az on-ke, آنکه از بعد pas az on-ke, bog‘lovchilari ergash gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bosh gap kesimi ifoda etgan ish-harakatdan oldin yoki keyin bajarilishini bildiradi. Bu bog‘lovchilarning ma‘nosi o‘zbek tilida chiqish kelishigi qo‘shimchasini olgan sifatdoshlardan so‘ng keyin, so‘ng yoki harakat nomini bildirgan otlardan so‘ng avval, ilgari so‘zlarini keltirish orqali ifoda etiladi

Masalan:

شدم خاورشناسی دانشگاه وار دکر دم تمام استان دبیری ه دور آنکه از پس - pas az on-ke do‘ure-ye dabirestonro tamom kardan vored-e doneshgoh-e xovarshenosi sho‘dam- O‘rta maktabni tamom qilgandan so‘ng, sharqshunoslik universitetiga kirdim.

پس از آنکه از پیش ba‘d az on-ke, آنکه از بعد pas az on-ke, bog‘lovchilaridan so‘ng kelgan payt ergash gapda ish-harakat kelasi zamonga oid bo‘lsa uning kesimi kesimi امی التز ع مضار shaklida keladi. Masalan:

پس از آنکه از پس pas az on-ke beyoyad man miravam- U kelgandan so‘ng, men ketaman.

Yuqoridagi bog‘lovchilar garchi o‘zlarining ma‘nolari jihatidan bir necha guruhlarga bo‘lingan bo‘lsalar ham, ularning ko‘pchiligi o‘zaro o‘rin almashishi va jumlaning ma‘nosiga qarab payt bildirgan hamma vositalar orqali tarjima qilinishi mumkin.

Muhokama uchun savollar:

1. Qanday payt ergash gap belgilarini bilasiz?
2. Chun, vaqti-ke bog‘lovchilari haqida ma‘lumot bering.

Topshiriqlar:

Payt ergash gaplarga 6 ta misol keltiring.

Payt ergash gapning xususiyatlarini izohlang.

Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

1. Vaqtim bo‘lmagani uchun, sizga telefon qila olmadim.
2. Kitobim yo‘qligi uchun dars qila olmadim.
3. Meni kutib turing, chunki, sizga aytadigan gapim bor.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

1. M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Murakkab predloglar

REJA:

1. Murakkab predloglar.
2. Izofali murakkab predloglar.
3. Izofasiz murakkab predloglar.

Dars maqsadi: Fors tilidagi predlog turlarini aniqlash. Murakkab predloglar haqida ma'lumot berish va ularga doir mashqlar bajarish.

Mavzu bayoni:

Murakkab predloglar mustaqil ma'noga ega bo'lgan ayrim so'zlarning dar, be, az predloglari bilan birikivi orqali hosil qilinadi. Murakkab predloglarning ba'zilar izofali va ba'zi birlari izofasiz bo'ladi. Izofali predloglar o'zidan keyingi so'z bilan izofa orqali va izofasiz predloglar izofasiz bog'lanadi.

Izofali murakkab predloglar

darbob-e – haqida, to'g'risida, xususida
darbore-ye – haqida, to'g'risidaxususida
darxo'susi – haqida, to'g'risida, xususida
daratrof-e – haqida, to'g'risida, xususida
darroh-e – yo'lida

bevasile-ye – orqali, vositasibilan, bilan

bevosete-ye – orqali, vositasibilan, bilan

- Izofasiz murakkab predloglar

roje'be - haqida, to'g'risida
oyedbe – haqida, to'g'risida
g'eyraz - ...danboshqa, ...danbo'lak
pasaz - ... danso'ng, ... dankeyin
ba'daz - ...danavval, ...danilgari
pishaz - ...danavval, ...danilgari
qablaz - ...danavval, ... danilgari

TOPSHIRIQLAR:

1. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.
 - a) Men Eron shoirlari she'rlarining O'zbekcha tarjimasini sotib oldim.
 - b) Toshkent metrosi juda ko'rishli va chiroyli.
 - d) Do'stim menga Afg'onistondan bir necha forscha kitoblar yubordi.
2. Quyidagi maqollarni o'qing va yod oling.
 - a) عشق آمدنی استنی اموختنی
 - b) هر خوردنی پس دادنی دارد
 - d) شدنی شددیگر خواهشد

Test

1. Murakkab predloglar qaysi predloglar birikuvidan hosil qilinadi?
A. Hamma javob to'g'ri. B. در dar S. از az D. به be
2. Izofali murakkab predloglar berilgan qatorni toping.
A. بابر dar bob-e B. بهراجع roje be S. عایدبه oyed be D. پاس pas az
3. Izofasiz murakkab predlog berilgan qatorni aniqlang.
A. بهراجع roje be B. بابر dar bob-e S. رادر dar roh-e D. باره در dar bore-ye
4. Nuqtalar o'rniga murakkab izofasiz predlogni qo'ying.
دانشجویان _____ کردند صحبت تابستانی امتحانات
A. بهراجع roje be B. بابر dar bob-e S. رادر dar roh-e D. باره در dar bore-ye
5.dan boshqa,dan bo'lak ma'nolarini anglatuvchi izofasiz murakkab predlog qaysi?
A. ازغیر g'eyr az B. بابر dar bob-e S. رادر dar roh-e D. باره در dar bore-ye

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. Abdusamatov M. "Fors tili". T. 2007.
2. Dehqonova L. "Fors tilida mustaqil ish matnlari". GulDu 2004 yil
3. Абдусаматов М. Сиз форсча сўзлашасизми? -Т. "Ўқитувчи" 1971.
4. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Sifatdosh. Hozirgi zamon sifatdoshi. فاعلى صفت

Reja:

1. Hozirgi zamon sifatdoshi فاعلى صفتning yasalishi.
2. Hozirgi zamon sifatdoshining gapdagi vazifalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

فاعلى صفت sefate foeli, انده, -ande, ان on, او o.

Dars maqsadi: Fors tilidagi فاعلى صفت haqida ma'lumot berish va uning yasalishini tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fors tilidagi فاعلى صفت haqida ma'lumot bera oladi.
2. Fors tilidagi فاعلى صفت yordamida gaplar tuza oladi.
3. Fors tilidagi fe'llardan فاعلى صفت yasay oladi.

Ishni bajarish tartibi:

1-savol bo'yicha tushuncha berish:

Hozirgi zamon sifatdoshi hozirgi zamon fe'l negiziga **انده** -ande , **ان** on, **ا** o affikslarini qo'shish orqali yasaladi.

1) **انده**-anlde affiksi juda mahsuldor bo'lib ,ko'pchilik fe'llardan sifatdosh yasaydi.

Bu affiks orqali yasalgan so'zlar sifatdosh deb atalsalar ham ,lekin hozirgi zamon Fors tilida o'zlarining sifatdoshlik xususiyatlarini yo'qotib, asosan ot bo'lib keladilar. Masalan: **نوشتن** Naveshtan **نویس** navis **نویسنده** navisande yozuvchi

خواننده xonande o'quvchi
خوان xon **شنونده** shenavande eshituvchi
خواند Xondan **شنو** sheno'u **فروشنده** fo'ro'shande sotuvchi
شیدن Shenidan **فروش** fo'ro'sh **فروختن** fo'ro'xtan

کردن شرکت sherkat kardan **کن شرکت** sherkat kun

کننده شرکت sherkat ko'nande - Ishtirok etuvchi , qatnashuvchi

Agar hozirgi zamon fe'l negizi cho'ziq unli bilan tugagan bo'lsa, **انده** ande affiksi oldidan bir **ی** y orttiriladi Masalan: **گو گفتن** go'ftan **گو** go **گوینده** guyande diktora namoyinande vakil , namoyanda delegat

انده Ande affiksi orqali yasalgan sifatdoshlar o'z xususiyatlariga ko'ra ot bo'lib kelganliklari uchun otlarga xos bo'lgan butun grammatik belgilarni qabul qiladilar.

Maslan : **نمودند ملاقات خویش آسار خوانندگان آبا از بکستان جمهوری نویسندهگان**

Navisandegone jo'mhuriye O'zbekiston bo xonandegon e osor e xish mo'loqat namudand.

O'zbekiston Respublikasi yozuvchilari o'z asarlari o'quvchilari bilan uchrashdilar .

2-savol bo'yicha tushuncha berish:

ان on affiksi ham kammahsul bo'lib sanoqli fe'llardangina sifatdosh yasaydi. Bu affiks orqali yasalgan sifatdoshlar gapda aniqlovchi va ravish holi vazisida keladi.

Masalan:

روان آب rovan e ravon **oqar suv**

گل خندان go'l e xandon **xandon gul**

Bu ikki misolda **روان** rovan va **خندان** xandon so'zlari sifatdoshdir

بچه گریه کنان گریه بچه Bache gerye ko'non az o'toq birun shud. Bola yig'lab uydan chiqdi.

Bu gaplarda **روان** rovan, **کنان گریه** gerye ko'non ravish holi vazifasida kelgan

ا O affiksi ham kammahsul bo'lib sanoqli fe'llardangina sifatdosh yasaydi. Bu affiks orqali yasalgan sifatdoshlar fe'l ma'nosida ifoda etilgan belgiga doimiy egalikni bildirib keladi. Masalan:

بین دیدن bin didan **بینا** - ko'ra oladigan , ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan **بینامرد** Uzoqni ko'radigan odam.

خواندن -xondan, **خوان** - xon , **خوانا** xono - o'qibbo'ladigan o'qiy oladigan

خواناخط xat e xono - o'qibbo'ladigan xat

شنیدن Shenidan, **شنو** sheno, **شنوا** shenavo - eshita oladigan , eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan

O affiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ham otlashgan hollarda otlar bajaragan butun grammatik vazifalarni bajaradilar. Masalan : **نیست راستش ولی شنو اچیش گوش**

gush e chapash shenavo vali gush e rostash nist. Chap qulog‘i eshitadi, lekin o‘ng qulog‘i eshitmaydi.

میرودر اهبازار در تار یک شب در نابینائی Nobino-i dar shab e torik dar bozor roh miravad.

Bir ko‘r qorong‘i kechada bozorda ketardi.

Savol va topshiriqlar:

1. Fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- میرودر اهبازار در تار یک شب در نابینائی
- نیست راستش ولی شنواچپش گوش
- است بینامر در سیده نو معلم
- است خوناشماخط
- شد بیرون اوطاق از کنان گریه بچه

2. Fors tiliga tarjima qiling.

A) Men Eron yozuvchilarining asarlarini sotib oldim..

B) Bu kitobni o‘qisa bo‘ladi.

V) Siz Eron adabiyotining yirik namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

G) Men har kuni uiniversitetga piyoda kelaman.

3. ishtirokida 4ta gap yozing. فاعلی صفت.

4. Chaqmoq, chekmoq, qidirmoq, qaramoq, bilmoq, topmoq, yoqmoq, so‘ramoq fe’llaridan فاعلی صفت yasang.

Test.

1. Hozirgi zamon sifatdoshi qanday yasaladi.

A. Hozirgi zamon fe’l negiziga **انده** – ande, ان on, ا o affikslarini qo‘shish orqali yasaladi.

B. Hozirgi zamon fe’l negiziga **انده** – ande ا o affikslarini qo‘shish orqali yasaladi.

C. Hozirgi zamon fe’l negiziga **انده** – ande affiksini qo‘shish orqali yasaladi.

D. Barcha javoblar noto‘g‘ri.

2. **انده** – ande, ان-on, ا- o affikslaridan qaysi biri sermahsul hisoblanadi?

A. **انده** – ande affiksi B. ان-on affiksi S. ا- o affiksi D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. **انده** – ande, ان-on, ا- o affikslaridan qaysi biri kammahsul hisoblanadi?

A. ان-on va ا- o affikslari B. ا- o affiksi S. **انده** - ande affiksi D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

4. **انده** – ande, ان-on, ا- o affikslaridan qaysi biri orqali yasalgan sifatdoshlar aniqlovchi va ravish holi vazifasida keladi?

A. ان-on affiksi B. **انده** – ande affiksi S. ا- o affiksi D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

Informatsion-uslubiy ta’minot

1. M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007

2. A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.

3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т. "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Matn ustida ishlash **کندهدم رباہ**

Reja:

1. Matnni o‘qish va tarjima qilish.
2. Matnn bo‘yicha og‘zaki suhbat .

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: بدام، رباہ، عیب، خودبا، کندهدم، خلاصی، نزنندطعنه، کند، کر دجمع، میاندشدکه

Dars maqsadi: Matnn o‘qish texnikasiga e‘tiborni qaratish, to‘g‘ri tarjima qilishga o‘rgatish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.1. Matnni to‘g‘ri talaffuzda o‘qiydi.
- 1.2. Matnni tarjima qiladi.

1-savol bayoni

کندهدم رباہ

در خوددم از ناچار خوددخلاصی بر ای فتاد • اسیادبدام رباہی
خود را عیب میاندشدکه خودبا • گریخت و کندر ادم گزاشت
• نزنندطعنه دم بی به اور ار فقا که پیشاندچگونه
گفت و کر دجمع خوددبور رباہر اچندپس:
- بار اینکه بجز ندار دسوده و فایده هیچ ما بر ای دم این
• ندیدیم دم از منفعتی هیچ بحال تا، میکشیم سنگینی
گفت میان از آن رباہی:
دم هم تو اگر باشی آسودی است بیدوائی چه در دبیدمی که آه
سخن را نمیگفتی این گز هر دانشی
پذدو حکمت
نیست کردار نیم چون گفتمی صدو نیست بگفتار سر اسر بزرگی
میبر دبادر آورده باد
است گردن و بال شکسته دست
مارز هر بودگر چی بکار آید داشته
است سو آید بر چی هر سوخته خانه از

Savol va topshiriqlar:

1. Fors tiliga tarjima qiling.

1. Bir tulki ovchining tuzog‘iga tushdi.
2. Tulki o‘zicha o‘yladi.
3. Dumdan bizga hech qanday foyda yo‘q.
4. Dumsizlik qanday bedavo dard.

2. Savollarga javob bering:

افتاد؟ کجار رباہی
؟ کر دچه خوددخلاصی بر ای رباہی
کرد؟ جمع کجار رباہر رباہ

گفت چه ر فقا بهر باه
گفت چه میان از آن ر باهی

3. Quyidagi maqollarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiling.

میبرد • بادر آورده باد
است • گردن و بال شکسته دست
مار • زهر بود گرچی بکار آید داشته
است • سود آید برچی هر سوخته خانه از

4. Quyidagi fe‘llar orqaligaplartuzing.

کردن • جمع، کندن، پشانیدن، زدن طعنه

5. Matnidagi mafari larni aniqlang va ular orqaligaptuzing.

Informatsion-uslubiy ta‘minot

1. M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

MAVZU: O‘tgan zamon sifatdoshi.

Reja:

1. Sifatdosh. مفعلى صفت, o‘tgan zamon sifatdoshining yasalishi.
2. مفعلى صفت, o‘tgan zamon sifatdoshining gapdagi vazifalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

o –e affiksi, aniq va majhul nisbat, o‘timsiz va o‘timli fe‘llar,
مفعلى صفت-sefat-e maf’uli.

Dars maqsadi: Fors tilidagi مفعلى صفت haqida ma’lumot berish va uning yasalishini tushintirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. Fors tilidagi مفعلى صفت haqida ma’lumot bera oladi.
2. Fors tilidagi مفعلى صفت yordamida gaplar tuza oladi.
3. Fors tilidagi fe‘llardan مفعلى صفت yasay oladi.

Mavzu bayoni:

1-savol bo‘yicha tushuncha berish

Fe‘llik va sifatlik xususiyatlarini anglatuvchi fe‘l formasi sifatdosh deyiladi.

Sifatdoshning fe‘llik xususiyati unig zamon tushunchasini ifodalashi, fe‘llar singari bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarda kelishi hamda fe‘l kabi nisbat bilan tuslanishi. Sifatdoshning sifatlik xususiyati sifat kabi predmening belgisini

anglatib kelishidir. Bunda sifatdosh ot oldidan kelib, u bilan izofa orqali birikadi va gapda aniqlovchi vazifasini bajarib kela oladi.

O'tgan zamon sifatdoshi fe'l negiziga o –e affiksini qo'shish orqali yasaladi.

O'tgan zamon sifatdoshi aniq va majhul nisbatda bo'lishi mumkin. O'timsiz fe'llardan aniq nisbat va o'timli fe'llarda majhul nisbat ma'nolaridagi sifatdoshlar yasaladi.

O'timsiz fe'llardan yasalgan sifatdoshlar

Fe'lining noaniq formasi	O'tgan zamon negizi	O'tgan zamon sifatdoshi
آمدن Omadan-kelmoq ترسیدن Tarsidan- qo'rqmoq نشستن Neshastan-o'tirmoq مردن Mo'rdan-o'lmoq رفتن Raftan-bormoq گزشتن Go'zashtan-o'tmoq	آمد Omad ترسید Tarsid نشست Neshast مرد Mo'rd رفت Raft گزشت go'zasht	آمده Omade-kelgan ترسیده Tarside-qo'rqan نشسته Neshaste-o'tirgan مرده Mo'rde- o'lgan رفته Rafta -borgan گزشته Go 'zashte-O'tgan

O'timli fe'llardan yasalgan sifatdoshlar

Fe'lining noaniq formasi	O'tgan zamon negizi	O'tgan zamon sifatdoshi
خواندن Xondan-o'qimoq نوشتن Naveshstan-yozmoq شستن Sho'stan-yuvmoq گفتن Go'ftan-aytmoq بریدن Bo'ridan-kesmoq خریدن Xaridan-sotib olmoq	خواند Xond نوشت naveshst شست sho'st گفت go'ft برید bo'rid خرید xarid	خوانده Xonde-o'qilgan نوشته Naveshste-yozilgan شسته Sho'sti-yuvilgan گفته Go'fte-aytilgan بریده Bo'ride-kesilgan خریده Xaride-sotibolingan

Ba'zife'llar birvaqtda ham o'timli, ham o'timsiz bo'lishi mumkin. Masalan:

شکستن shekastan-sinmoq va sindirmoq

آموختن omuxtan –o'rganmoq va o'rgatmoq

ریختن rixtan- quymoq va quyilmoq

Bu fe'llardan yasalgan sifatdoshlar gapning mazmuniga qarab aniq yoki majhul nisbat ma'nosini anglatishi mumkin.

شکسته shekaste-singgan va sindirilgan

آموخته omuxte- o'rgangan va o'rgatilgan

ریخته rixte-quygan va quyilgan

2-savol bo'yicha tushuncha berish.

O'tgan zamonsifatdoshigapda:

1. Aniqlovchi bo'lib keladi:

گذشته سال sol-ego'zashte- o'tgan yil

دانشجو doneshju-ye neshaste- o'tirgan talaba

خوراکیهای نخورده xoro'rokho-ye nopo'xta- pishirilmagan taomlar

2. Ba'zi bir sifatdoshlar otlashib, otdan hech qanday farq qilmay, otga xos bo'lgan morfologik belgilarni qabul qiladi va gap da ot bajargan vazifalarda keladi.

دیدید didide- ko'rilgan, ko'z

گفته go'fte- aytilgan, so'z, gap

گذشته go'zashte- o'tgan, o'tmish

مرد mo'rde- o'lgan, o'lik

Misollar: کردم نقل او به خودم اگر شته من

Man go'zashte-ye xo'dro be u naql kardam.

Men o'z o'tmishimni unga aytib berdim.

آمد خوشش من گذشته از

Az go'zashte-ye man xushash omad

-Mening o'tmishim unga yoqdi.

3. O'tgan zamon sifatdoshi ba'zi otlar bilan birikib, predmetning belgisini bildiruvchi murakkab sifatdosh yasaydi.

آزمودم کار پزشکی pezeshk-e kor-ozmude-(ish sinagan) tajribali vrach

مترجم خورده سال mo'tarjem-e sol-xo'rde- yoshi o'tgan qari tarjimon

درخت سبز شده deraxt-e sabz sho'de-ko'kargan daraxt

رسیده معلم mo'allem-e no'u- raside-yangi kelgan muallim

رشته نوکشورهای keshvarho-e nou-raste-yangi mustaqillikka erishgan

mamlakatlar

Savol va topshiriqlar:

1. Fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

• است دانشمندم در سیده نومعلم

• است آزمودم کار پزشکی که بر ادرم

• آمد خوشش من گذشته از

• کردم نقل او به خودم اگر شته من

2. Fors tiliga tarjima qiling.

A) Kitob o'qiyotgan qiz mening singlim dir.

B) O'tgan yili otam o'zi uchun bitta kastyum-shim sotib olgan edi.

V) Yangi kelgan o'qituvchido'stimnig otasi bo'ladi.

G) Aytilgan so'z otilgan o'q.

3. مفعلى صفت ishtirokida 5ta gap yozing.

4. Olmoq, yozmoq, bermoq, ko'rmoq fe'llaridan مفعلى صفت yasang

5. مفعلى صفت ishtirok etgan forsha maqollardan misollar

keltiring.

Test.

1. O'tgan zamon sifatdoshi qanday yasaladi.
 - A. O'tgan zamon fe'l negiziga –e qisqa unlisini qo'shish orqali yasaladi.
 - B. O'tgan zamon fe'l negiziga –ande o affikslarini qo'shish orqali yasaladi.
 - C. O'tgan zamon fe'l negiziga –ande affiksini qo'shish orqali yasaladi.
 - D. Barcha javoblar noto'g'ri.
2. O'tgan zamon sifatdoshi qanday vazifalarni bajaradi?
 - A. Aniqlovchibo'lib keladi.
 - B. Ba'zi bir sifatdoshlar otlashib, otdan hech qanday farq qilmay, otga xos bo'lgan morfologik belgilarni qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarda keladi.
 - C. O'tgan zamon sifatdoshi ba'zi otlar bilan birikib, predmetning belgisini bildiruvchi murakkab sifatdosh yasaydi.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri.

Informatsion-uslubiy ta'minot.

1. M. Abdusamatov "Fors tili" "Sharq" nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov "Fors tili" Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: خيام عمر رباعيات

Reja:

1. رباعياتni o'qish va tarjima qilish.
2. خيام عمر رباعيات bo'yicha og'zaki suhbat .

Dars maqsadi: رباعيات o'qish texnikasiga e'tiborni qaratish, to'g'ri tarjima qilishga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. رباعياتni to'g'ri talaffuzda o'qiydi.
- 1.2. رباعياتni tarjima qila oladi.

Mavzu bayoni:

خيام عمر رباعيات

توئی زنده و مردگار سازنده
 توئی پیراکنده چرخ این دارنده
 توئی بنده این خواه بدم گرجه من
 توئی آفریننده چو کند چهر اکس

 مکن یاد او از گزاشتست که روزی
 مکن یاد فر نیام دست که فردا
 مکن بنیاد گزاشته و نامده بر
 مکن بر باد عمر و کنون باش خوش

است خوش حور بابھشت کسان گویند
است خوش انگور آب که میگویم من
بدار نسیه آن از دست بگیر نقد این
است خوش دور از شنیدن دهل از کاو

بودست زاری عاشق من چو کوزه این
بودست نگاری زلف سر بند در
بینی می او گردن در که دسته این
بودست یاری گردن در که دست نیست

Savol va topshiriqlar:

1. Fors tiliga tarjima qiling.

1. Deydilar jannat va parilar yaxshidir.
2. Men uchun uzum suvi yaxshidir.
3. O'tgan kunlaring uchun qayg'urma.
4. Bu ko'za qorako'z nigor edi.

2. Savollarga javob bering:

- ؟گویند چه کسان
؟است خوش چه تو برای
؟کیست زنده و مرد کار سازنده
؟باشید خوش باید کی

3. Quyidagi maqollarni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

میبرد • بادر آورده باد
است • گردن و بال شکسته دست
مار • زهر بود گرچی بکار آید داشته
است • سود آید برچی هر سوخته خانه از

4. Quyidagi fe'llar orqaligaplartuzing.

میگویم • بگیر • بینی می • مکن یاد فر • شنیدن

Informatsion-uslubiy ta'minot

1. M. Abdusamatov "Fors tili" "Sharq" nashiryoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov "Fors tili" Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Yo-ye masdari

Reja:

1. Yo-ye masdari.
2. Yo-lar imlosi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: مصدری یای نوکری یای وحدت یای

Dars maqsadi: مصدرى ياي Yo-ye masdari - yasalishini tushuntirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. Sifatlardan مصدرى ياي Yo-ye masdari orqali abstrakt ot yasay oladi.

2. مصدرى ياي yasalishini izohlaydi

Kerakli jihozlar: Doska, bo‘r, tablitsa (imloga oid).

Mavzu bayoni:

مصدرى ياي Yo-ye masdari

Sifat, ot va boshqa turkumdagi so‘zlarning oxiriga urg‘uli bir ي-ي qo‘shish orqali abstrak ma‘noni bildiruvchi ot hosil qilinadi. Bu ي-ي fors grammatikasida مصدرى ياي - yo-ye masdari deyiladi.

Masalan:

بدى - bad-yomon

بزرگ - bo‘zo‘rg-katta

جوان - javon-yosh

نزدیک - nazdik-yaqin

بدى - badi-yomonlik

بزرگی - bo‘zurgi-kattalik

جوانى - javoni-yoshlik

نزدیکى - nazdiki-yaqinlik

مصدرى ياي Yo-ye masdari qisqa e unlisi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda

مصدرى ياي Yo-ye masdari oldidan bir گ g orttiriladi. Masalan:

Hafte-hafta هفته

Haste-charchash هسته

Haftegi- haftalik گى هفته

Hastegi-charchashlik هستگى

Agar so‘z cho‘ziq unilardan biri bilan tugagan bo‘lsa, -i qo‘shimchasi oldidan hamza belgisi qo‘yiladi. Masalan:

Zibo-chiroyli

Tanho-yolg‘iz

Ziboi-chiroylilik

Tanhoi-yolg‘izlik

Savol va topshiriqlar

1. Fors tiliga tarjima qiling.

A) Bu kitobni o‘qi.

B) Kutubxonadan kitob keltir..

V) Fors tilini yaxshi o‘rgan.

2. Berilgan fe‘llardan vajh-e amrida tuslang. گرفتن greftan, آوردن ovardan

3. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

خېلى رنج كشيهدو بمقصد رسیدهام

او دروغ گفته است
او مشغول شام خوردن بود

4. Nuqtalar o‘rni ga berilgan fe’llarning mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

یاد گرفته ، ندیده بودم ، گفته ، رسیدهام ، دیدنی ، بود بر
گزار گردید، شرکت کردند، کار بودند
آورده ، نیایدبدنیا آمده ،، گرفته است آمدم ، میبند ، یاد
من این فیلم را
خیلی رنج کشیدهو بمقصد
او دروغ است
رتاشکند نیز بسیار.... بودمراکز فروش کتاب د

مرسومی شعر و ادب در تاشکند

Informatsion-uslubiy ta’minot

- 1.M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashiryoti Toshkent 2007
- 2.A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
- 3.Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Harakat va holat otlari

Reja:

- 1.Harakat va holat otlari
- 2.Harakat va holat otlari vazifalari

Dars maqsadi: Harakat va holat otlari haqida ma’lumot berish, ularning yasalishini tushuntirish, mavzuni mutahkamlash uchun topshiriq va mashqlar bajarish.

Mavzu bayoni:

Harakat yoki holat nomini bildiruvchi otlar

Fe’lning hozirgi zamon negiziga -esh affikisini qo‘shish orqali harakat yoki holat nomini bildiruvchi otlar yasaladi. Masalan; doneston -dona دانش -donesh –bilish .Agar hozirgi zamon fe’l negizi cho‘ziq unli bilan tugagan bo‘lsa sh –esh affikis oldidan bir -yo orttirilib yoziladi.

Harakat nomini bildiruvchi so‘zlarga o‘rin-makon ma’nosini bildiruvchi goh -goh qo‘shimchasini qo‘shish orqali fe’ldan anglashilgan ish –harakat ning bajarish o‘rni ifoda etiladi.Masalan; namoyesh-korساتish ; namoyeshgoh -ko‘rgazma.

1- topshiriq.

Quyidagi fe’llardan harakat va holat nomini bildiruvchi otlar yasang.

xostan-xohlamoq, خواستن
orastan-bezatmoq, آراستن
omuhtan-o‘rgatmoq. آموختن

2-topshiriq.

matnini o‘qing, kitob oxirida berilgan lug‘atdan foydalanib tarjima qiling va matnda uchragan harakat nomini bildiruvchi otlarni aniqlang.

نايينا
اوبەز نش گرفت زن نابينااي
قدر چه من ببيني تانداري چشم که افسوس گفت:
جمع خاطر گفت: نابينا سفيدم و خوشگل
بودی بينايان سفيد و خوشگل اگر باش،
باقی من ای بروفته گر اتر کنون تا
اشتد دگنمی

3. Hikoyani o‘qing, o‘zbek tiliga tarjima qiling va sifatdoshlarni aniqlang.

Informatsion-uslubiy ta’minot

- 1.M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashiryoti Toshkent 2007
- 2.A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
- 3.Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Chistonlar

Reja.

1. **چيستان** ni o‘qish va tarjima qilish.
2. **چيستان** bo‘yicha og‘zaki suhbat .

Dars maqsadi: **چيستان** o‘qish texnikasiga e’tiborni qaratish, to‘g‘ri tarjima qilishga o‘rgatish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.1. **چيستان** ni to‘g‘ri talaffuzda o‘qiydi.
- 1.2. **چيستان** ni tarjima qila oladi.

Mavzu bayoni:

چيستان ها
چيزي ديدم که اورا در بيا بان خر خورد
گر به دست شاه افتاب ملك اسکندر بود
رفتنيش راه سفيد و خوردنيش خون سياه
گر زره رفتن بماند بر سرش خنجر کشند
(قلم)
قد که تاه و چتنگ دارد
گهی پنهان شود گ
قبای نو ببخشد مر دمانرا

خودش يك پير اهن بر تن ندارد

(سوزن)

به دست دارد نه پا خبر می برد همه جا (کاغذ)

دو برادر هر چة می دوند به همدیگر نمی رسند (شب و روز)

تو می روی او می رود تو می ایستی او می ایستد (سایه)

چهار تا کاکا تو يك قبا خوابیده (گردو)

Test.

1. Chistonlar nima?

A. Topishmoqlar B. Masallar S. Tez aytishlar D. Matalla

2. Chiston so 'zi qaysi tildan olingan?

A. Forscha so 'z B. Arabcha so 'z S. Turkiy so 'z D. Barcha javoblar noto 'g 'ri.

3. Chistonning javobini aniqlang. د و برادر هر چه می دوند به همدیگر نمی رسند.

A. Kecha va kunduz B. Oy va quyosh S. Ko 'z D. Barcha javoblar noto 'g 'ri.

Informatsion-uslubiy ta 'minot

1. Abdusamatov M. "Fors tili". T. 2007.

2. Абдусаматов М. Сиз форсча сўзлашасизми? -Т. "Ўқитувчи" 1971.

3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Sa 'diy Sheroziy she 'rlari

Reja.

1. Sa 'diy Sheroziyshe 'rlarini o 'qish va tarjima qilish.

2. Sa 'diy Sheroziyshe 'rlarini bo 'yicha og 'zaki suhbat .

Dars maqsadi: Talabalarni Sa 'diy Sheroziyning g 'azal matni ustida ishlashga o 'rgatish, lug 'at bilan ishlash malakasini hosil qilish, yozmava og 'zaki savodxonligini oshirish..

Identiv o 'quv maqsadlari:

1.1. Sa 'diy Sheroziyshe 'rlarini to 'g 'ri talaffuzda o 'qiydi.

1.2. Sa 'diy Sheroziyshe 'rlarini tarjima qila oladi.

Mavzu bayoni:

خواجه شمس الدين محمد حافظ شيريزي
غزل

اگر ان تر کشیر از ی بدست اردل مارا
به خال هندویش بخشم سمر قند و بخارا را
بده سالقی می باقی که در جنت نخواهی یافت
کنار ان رکناناد و گاکشت مصالارا

فغان كين لوليان شوخ شيرين كار شهر اشوب
چنان بردند صبر از دل كه تر كان يغمارا
ز عشق ناتمام ما جمال يار مستغنى است
بان و رنگ و خال و خط چه حجت روي زيبارا
من از ان حسرت روز افزون كه يوسف داشت دانستم
كه عشق از پراه ي عصمت برون ارد زايخارا
اگر دشنام فرمايى و گر نفرين دعا گويم
جواب تلخ ميزند لب لعل شكر خارا
نصيحت گوش كن جانا كه از جان دوست تر دارند
جوابان سعادت مند پند پير دانارا
حديث از مطرب و مى گو و راز دهر كمتر جو
كه كس نگشود و نگشايد بحكمت اين معمارا
غزل گفتي و در سفتي بيا و خوش بخوان حافظ
كه بر نظم تو افشاند فلک عقد ثريارا

Topshiriqlar.

1. Yangi soʻzlarning tarjimasini lugʻatdan toping.
2. Sheʼrni tarjima qiling.
3. Sheʼrni yodlash uyga vazifa.

Informatsion-uslubiy taʼminot

1. Abdusamatov M. "Fors tili". T. 2007.
2. Абдусаматов М. Сиз форсча сўзлашасизми? -Т. "Ўқитувчи" 1971.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Yangi va eski yil hisoblari

Reja:

1. Milodiy yil va xijriy yil.
2. Xijriy-qamariy , xijriy -shamsiy yil hisoblari

Dars maqsadi: Yangi va eski yil hisoblari toʻgʻrisida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

- 1 Milodiy va xijriy yil hisoblarini biladi .
2. Xijriy-qamariy ni milodiyga, milodiy yilni xijriy-qamariyga aylantira oladi

Mavzu bayoni:

Kitoblarining yozilgan va koʻchirilgan vaqti har doim ham abjad hisobida berilavermaydi. Agar siz qoʻlyozma kitoblarining tugallanmasiga eʼtibor qilgan boʻlsangiz, quyidagicha yozuvlarga koʻzingiz tushadi:

۱۲۳۱ سنه تاپتى تمام پرله كرمى و فضلى كام مسعل ايزدى

Izadi masʼul kom fazli va karami birla tamom topti sanai 1231, yoki

سنه ١٢٤٦ Tammat –ul-kitabi bia’vn –il-malik –il-vahhabi dar sanai 1246

(yoki boshqa yil Raqamii kelib chiqadigan jumla yoziladigan bo‘lishi mumkin) Yuqoridagi 1231 va 1246 raqamlari eski yil yil hisobi bo‘yicha asar tugallangan yilni bildiradi. Mana shu eski yil hisobi hijriy yil deb ataladi. Hijriy yil 622 milodiy yildan, Muhammad payg‘ambarning Makkadan Madinaga ko‘chgan davridan boshlanadi.. Hijriy yil ikki xildir biri –hijriy –shamsiy yil ikkinchisi hijriy -qamariy yil hisoblari .

Musulmon mamlakatlarining barchasida hozir ham hijriy yil hisobidan foydalanishadi. Hijriy qamariy yil hisobi o‘yning yer atrofida aylanish davriga asoslangan, hisob oy kunlari asosida olib boriladi. Bu hisob bo‘yicha yil 354 (355)kundan iborat .

Hijriy -qamariy yil 12 oydan iborat bo‘lib ,toq oylar 30, juft oylar 29 kunlik qilib olingan. Shu3 yil kabisa hisoblanib 355 kundan iborat bo‘ladi.

Hijriy -qamariy yil hisobi yerning quyosh atrofida aylanish davriga asoslangan,hisob kuyosh kunlari asosida olib boriladi. Yer quyosh atrofini bir marta aylanib chiqish davri bir yil hisoblanib, 365 kundan iborat bo‘ladi.

Hijriy -qamariy yil ham 31 va 30kunlik 12oydan iborat bo‘lib ,faqat bir oyi 28 kundan iborat bo‘ladi.Har to‘rtinchi yilda bu oy 29 kunlik hisoblanib,shu yil kabisa,ya’ni 366 kunlik bo‘ladi. Hijriy -qamariy va hijriy – shamsiy yillar orasidagi 2kunlik farq qamariy yil oylarining siljib yurishiga sabab bo‘ladi. Har 33 yilda hijriy -qamariy yili bir davrni aylanib chiqib, yana bir vaqtga to‘g‘ri keladi, qamariyning 33 yil shamsiyning 32 yiliga tengdir.

Ma’lumki, milodiy yil Grigoryan yili bo‘lib bunda oylarning ba’zilar 30 va ayrimlari 31kundan, yolg‘iz bir oy 28 kundan iboratdir. 28 kunlik oy to‘rt yilda bir marta 29 kunlik bo‘ladi vashu yil kabisa yili deb ataladi. Shunday qilib milodiy yil 365-366kundan iborat bo‘ladi.

Oyni 29,53059 kecha- kunduzda o‘zining birinchi joyiga qaytib kelishi aniqlangan. Ammo kunu hafta va oylar faqat butun sonlardan iborat bo‘lishligi lozimligidan yil oylari shartli ravishda 30 kun va 29 kecha –kunduz deb olingan. Ko‘rinib turibdiki, taqvimiy oy hisobi o‘yning haqiqiy davridan ortda qolib boradi.Bu orta qolish 30 yida taxminan 2 kecha kunduzga yetadi. Arablar bu farqni yo‘qotish uchun hijriy taqvimga har 30 yilda 2 kecha qo‘shib, 30 yilning 19 yilini odatdagidek 354 kecha kunduz, 2 yilini 355 kecha kunduz hisoblaydilar. Binobarin har 30 yillik siklning 2,5,7,10,13,16,18,21,24,26,29,yillar kabisi ,ya’ni 355 kunlik hisoblanadi.

“Kabisa” كبيسه arabcha so‘zbo‘lib «to‘ldirilgan», «orttirilgan»,degan ma’nolarni bildiradi .Demak, kabisa yili to‘ldirilgan yildir.Yilning oddiy yoki kabisa yil ekanini bilish uchun uni 30 ga bo‘lish kerak .Agar qoldiq yuqorida ko‘rsatilgan sonlardan biri bo‘lsa, shu yil kabisa yili bo‘ladi . Kabisa yilida zulxijja oyiga bir kun qo‘shilib ,30 kun hisoblanadi. Bu hisoblash shartli bo‘lib ,amalda esa mazkur ortiqcha kun istalgan oyda paydo bo‘lishi mumkin.

Topshiriqlari:

1. Quyidagi Xijriy-qamariyini milodiy yilga aylantiring:
۳۳۲۵۷۹۹۴۴۴۶۸۸۸۱۱۱۵۵۵۷۷۹۱۰۸۸
2. Quyidagi milodiy yilni Xijriy-qamariyga aylantiring:
765, 683, 777, 1754, 1865, 1986, 2004.
3. Oy necha kecha- kunduzda o‘zining birinchi joyiga qaytib keladi?
4. “Kabisa” كبيته arabcha so‘zning ma’nosini tushuntiring.
5. Qamariyning 33 yili shamsiyning necha yiliga tengdir

Informatsion-uslubiy ta’minot

1. M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: "Ўқитувчи", 1988.

Mavzu: Abjad hisobi.

Reja:

1. Abjad hisobi haqida ma’lumot.
2. Abjad hisobiga oid mashqlar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa’fas, qarashat, saxxaz, zazag‘.

Dars maqsadi: Abjad hisobi haqida ma’lumot berish. Abjad hisobiga oid mashqlar bilan tanishtirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- Abjad hisobi qaysilar ekanligini biladi.
- Abjad, havvaz, hutti, kalaman sa’fas, qarashat, saxxaz, zazag‘ so‘zlari qaysi sonlarni ifodalashini farqlay oladi.

Mavzu bayoni:

Arab harflari she’riy san’at, tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh, bezak vazifasini bajargan.

Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar.

Abjad hisobi nima?

Son tushunchasini harflar bilan ifoda etishga abjad hisobi deyiladi.

Odatda, jamiyat hayotida sodir bo‘lgan buyuk voqealar-urush, isyon, qo‘zg‘olonlar ro‘y bergan vaqt, inshootlar, tarixiy obidalarning qurilgan yili, mashhur shaxslarning tug‘ulgan yillari shuningdek, asarlarning yozilgan va ko‘chirilgan vaqtlari abjad hisobi bilan berilgan. Bu hisob usulining abjad deb

atalishining maxsus bir ma`nosi yo`q. U abjad hisobidagi sakkizta so`zning birinchisi bo`lganligi sababli shu atama bilan yuritiladi. Sakkizta so`z quyidagilardir:

Abjad,havvaz,hutti,kalaman,sa`fas,qarashat ,saxxaz,zazag`.

Abjad hisobining mohiyati shundan iboratki,har bir harf muayyan bir raqamni ifoda etadi.

Quyida abjad hisobidagi sakkizta atama va ular ifoda etgan sonlar:

- I. Abjad - ا ب ج د
- II. Havvaz - ه و ز
- III. Hutti - ح ط ي
- IV. Kalaman - ك ل م ن
- V. Sa`fas - س ع ف
- VI. Qarashat - ق ر ش ت
- VII. Saxxaz - س خ ذ
- VIII.Zazag` - ض ظ غ

Abjad - ا ب ج د

1- ا

2- ب

3- ج

4- د

II. Havvaz - ه و ز

5- ه

6- و

7- ز

III. Hutti - ح ط ي

8- ح

9- ط

10- ي

IV. Kalaman - ك ل م ن

20- ك

30- ل

40- م

50- ن

V. Sa`fas - س ع ف

60- س

70- ع

80- ف

90- ص

Qarashat - قرشت

100-ق

200-ر

300-ش

400-ت

VII. Saxxaz - نخذ

500-ث

600-خ

700-ذ

VIII. Zazag' - ضغط

800-ض

900-ظ

1000-غ

Abjad hisobini chiqarish

Abjad hisobini keltirib chiqarish uchun avvalo, kitob muallifi yoki xattotning yozuvda alohida qayd qilingan (yoki tagiga chizib ketilgan) soʻzni topamiz. Uni tashkil etgan harflarni ifoda etuvchi raqamlarini abjad hisobi jadvalidan qaraymiz va oʻsha raqamlarni qoʻshamiz.

Masalan: Alisher Navoiy oʻzining “Mahbubul -qulub” asarini yozgan vaqti haqida quyidagi tarixni bitgan:

Bu nomakim lisonim oʻldi qoyil

Qilkim tili har nav' el ishiga moyil

Tarixi “xush” lafzidin oʻldi hosil

Har kim oʻqusa ilohi boʻlgʻay xushdil.

Asarning yozilish tarixi خوش xush soʻzidan iborat boʻlib, harflarning son qiymatini jamlasak,

خ - 600

و - 6

ش - 300

$600+6+300=906$ hijriy, 1500 melodiy yil kelib chiqadi.

● Esda tuting:

Shuni bilib qoʻyish kerakki, forsiy va turkiy xalqlari tarafidan arab alifbosiga qoʻshilgan 4 (pe),(chim), (je), (gof) harflari 4(be),(jim), (ze), (kof) harflaridan olingani uchun sanoqda ham bir xil sonni bildiradi.

Masalan, "pe" 2, "chim" 3. "je" 7 va "gof" 20 ga tengdir

Topshiriqlar:

Guruhlar bilan ishlash

1. Abjad hisobiga kiruvchi soʻzlar va raqamlar jadvalini koʻchiring oling va yodlang.

2. Har biringiz oʻz ismingizni tashkil etgan harflardan abjad hisobini keltirib chiqaring.

3. Oila aʼzolaringizni ismlaridan abjad hisobini chiqaring.

4. Jumaniyozov R. Eski O‘zbek yozuvi darsligidan 143- betdagi 182- mashqni bajaring. Sharti: Mazkur raqamlarni ifoda etuvchi harflarni toping.
1,70,30,1,1,6,100,10,300,400,10,50,10,40,60,10,7,1,10,7,30,50,10,300,5,200,2,10,200,10,40,10,7,50,10,50,20,1,10,7,20,6,40,100,90,4,10,40,10,7,2,6,30,40,1,1000,10,1,7,10,40,4,6,200

Test.

1. Abjad hisobi nima?
A. Son tushunchasini harflar bilan ifoda etishga abjad hisobi deyiladi.
B. Sahifalashni bildiradi.
C. Poygirga aytiladi. D. Qiymatni bildiradi.
2. Abjad hisobi nechta so‘zdan iborat?
A. 8 ta B. 7 ta S. 6 ta D. 5 ta
3. Abjad hisobi mustaqil ma’no anglatadimi?
A. Ma’no anglatmaydi. B. Yo‘q S. Qadam olmoq degani D. A va B javoblar to‘g‘ri.

Informatsion-uslubiy ta’minot

1. M. Abdusamatov “Fors tili” “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007
2. A. Kuranbekov “Fors tili” Toshkent 2006 yil.
3. Форсча - ўзбекча ўқув луғати. -Т.: “Ўқитувчи”, 1988.
4. Ю.А.Рубинчик.
Грамматика современного персидского литературного языка ., М., “Восточная литература.” Стр.188.
5. Абдусаматов М. Сиз форсча сўзлашасизми? -Т. “Ўқитувчи” 1971.
6. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. Т. ”O‘qituvchi”.
7. T. Shermuhamedov. F. Abdullayev. L. Xalilov. O‘qish kitobi. Т. 1994 yil.
8. A. Juvonmardiyev. ”Harflar raqamlarga aylanganda”.
9. Dehqonova L. ”Fors tilida mustaqil ish matnlari”. GulDu 2004 yil
10. دستور زبان فارسی (پنج استاد) تألیف: عبدالعظیم قریب، ملک الشعراى بهار، بدیع الزمان فروزانفر، جلال همایی، رشید یاسمی. تهران، ۱۳۷۳. ص. ۱۴۱
11. دستور زبان فارسی (پنج استاد) تألیف: عبدالعظیم قریب، ملک الشعراى بهار، بدیع الزمان فروزانفر، جلال همایی، رشید یاسمی. تهران، ۱۳۷۳. ص. ۱۵۴

VII. Internet saytlari

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www.bilim.uz
4. www.literature.uz
5. www.ziyo-net.uz
6. www.kutubxona.uz
7. www.e-adabiyot.uz
8. www.ijod.uz

«Fors tili» fanidan test savollari.

I - variant

1. O`rta Osiyo territoriyasida mavjud bo`lgan qadimiy yozuvlardan qaysilarini bilasiz?
A. O`rxun-Yenisey .
B. Sug`d , kirill.
S. Uyg`ur , xorazm.
*D. A va S
2. Arab alifbosi O`rta Osiyoga qachon rasmiy yozuv sifatida kirib keldi?
A. 11-asrda.
B. 19-asrda.
*S. 7-asrning oxiri 8-asrning boshida.
D. 14-asrda .
3. Arab yozuvining necha xil turi mavjud ?
A. 2 xil.
B. 4 xil.
S. Faqat bir xil.
*D. 40 dan ortiq.
4. Arab alifbosi nechta harfdan iborat ?
*A. 28
B. 32
S. 30
D. 24
5. Quyida berilgan harflardan satr chizig`ida yoziluvchilarini ko`rsating.
A. ف ق ه
*B. ظ ت آ
S. خ م ط
D. ن و ع
6. Yozma yodgorliklar, asosan, qaysi yozuv turida bitilgan ?
A. Shikasta
B. Riqo`
*S. Nasta`liq
D. Suls
7. Arab yozuvining boshqa yozuvlardan farq qiluvchi eng asosiy xususiyati nimada ?
A. Yozuvda bosh harf bo`lmaydi.
*B. O`ngdan chapga qarab yoziladi.
S. Chapdan o`ngga qarab yoziladi.
D. To`g`ri javob yo`q.
8. Alifbodagi harflar boshqa harflar bilan bog`lanish-bog`lanmasligi jihatidan necha turga bo`linadi ?
A. 4 turga
B. 3 turga
S. 5 turga

- *D. 2 turga
9. Arab tiliga xos tovushlar to`g`ri yozilgan javobni ko`rsating .
- A. Sin, to (itqi), lom
- *B. Ayn, hoyi hutti, zol
- S. Mim, zo (izg`i), fe
- D. Alif, shin, vov
10. Ayn harfi qaysi tovushlarni ifodalaydi ?
- A. A, u, i
- B. O, e, i
- *S. A, o, i, u, tutuq belgisi
- D. Y, o, l
11. Arab alifbosiga forslar tomonidan kiritilgan harflar nechta ?
- A. 2 ta
- *B. 4 ta
- S. 3 ta
- D. 1 ta
12. Fors o`zbek yozuvida unlisini ifodalovchi qanday harflar bor ?
- *A. Alif, ayn, hoyi havvaz
- B. Alif, hoyi hutti
- S. Alif, vov, yo
- D. Ayn, vov, yo
13. Shaklan o`xshash, lekin nuqtalarining o`rni va miqdoriga qarab farqlanuvchi harflarni ko`rsating.
- A. مع طزو
- B. ضقیه
- S. مفاً
- *D. بحدر سصطعفک
14. ~ - bu qanday belgi ?
- *A. Madda belgisi
- B. Tanvin belgisi
- S. Fatha belgisi
- D. Vasla belgisi
15. Orif va ishq so`zlari to`g`ri yozilgan qatorni toping.
- A. أریفیشق
- *B. عارف عشق
- S. عریف عشق
- D. اریفایشق
16. Fors o`zbek yozuvida unli tovushlarni ifodalovchi harflar qaysilar ?
- A. Alif, lom, hoyi hutti, yo
- B. Hoyi havvaz, vov, ze
- *S. Alif, ayn, vov, hoyi havvaz, yo
- D. A va B
17. Alifboda bir qo`lli harflar nechta ?
- A. 11 ta

- B. 4 ta
 S. 25 ta
 *D. 7 ta
18. Izofa so`zining lug`aviy ma`nosi nima ?
 A. Yozish
 *B. Qo`shish va bog`lash
 S. Ajratib yozish
 D. To`g`ri javob yo`q
19. Harfush-shams («quyosh harflari») guruhidagi harflar nechta ?
 A. 2 ta
 B. 15 ta
 S. 11 ta
 *D. 14 ta
20. Atoqli otlar to`g`ri yozilgan javobni ko`rsating.
 A. فخریدین رحمتیله
 B. حصن الدین حدایت الله
 *S. عبدالرحمن صدر الدین
 D. جمالیدین یصمت الله
21. Muttasil harflar qanday harflar ?
 *A. Ikki qo`lli
 B. Bir qo`lli
 S. Shaklan o`xshash
 D. Satrda yoziluvchi
22. Bir qo`lli harflar necha xil ko`rinishga ega bo`ladi ?
 A. 1 xil
 *B. 2 xil
 S. 4 xil
 D. 3 xil
23. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni toping.
 A. زاهران اللاحده
 B. یحیا السلام
 S. غواس صلامت
 *D. رعایه خوارزم
24. Abjad hisobi nima ?
 *A. Son tushunchasini harflar bilan ifodalanishi
 B. Unlilarni ifodalanishi
 S. Qo`sh undoshlarning yozilishi
 D. B va S
25. خ - xe harfining son qiymati nechaga teng ?
 A. 8
 B. 3
 S. 400
 *D. 600
26. Fors izofasining ko`rsatkichi qaysi tovush ?

*A. ی (I,E) tovushi

B. ا (a) tovushi

S. و (u) tovushi

D. آ (o) tovushi

27. Ikki qo`lli harflar to`g`ri yozilgan qatorni toping.

A. تىورذب

B. خثازسظ

*S. عضجفنه

D. ىادطلقح

28. Assalom , hayrat-ul-abror so`zlari to`g`ri yozilgan qatorni toping.

A. هراتالاراراتلام

B. اصلمامبرارحيرتول ا

S. هراتالارارالسلام

*D. حيرتالابرارالسلام

29. Madda belgisi qaysi o`rinlarda ishlatiladi ?

A. Yopiq bo`g`inning ustiga qo`yiladi.

*B. So`z boshida alif harfining ustiga qo`yilib, o tovushini ifodalaydi.

S. Qisqa unli tushib qolganda qo`yiladi.

D. To`g`ri javob berilmagan.

30. i va e qisqa unllarini ifodalovchi belgi qanday nomlanadi ?

A. Zabar

B. Tashdid

*S. Kasra yoki zir

D. Fatha

31. Satr chizig`idan pastga tushirib yoziluvchi harflar nechta ?

A. 20 ta

B. 11 ta

S. 24 ta

*D. 21 ta

32. Eng ko`p tovushni ifodalash xususiyatiga ega harf qaysi ?

A. ع

B. ص

*S. ى

D. و

33. Hoyi havvaz harfi qaysi tovushlarni ifodalaydi ?

A. h va a

*B. h , a , i

S. Faqat h tovushini

D. h va o

34. Fors izofasi to`g`ri qo`llanilgan qatorni toping.

A. هالترجمهكارمردى

B. چرخى فلك وقتعينى

S. بخاراى شريف كارمردى

*D. بخاراى شريف مشرب ديوان

35. Soʻz oʻzagidagi yonma-yon kelgan bir xil qoʻsh undosh yoki qoʻsh unli qanday yoziladi ?

A. Odatdagi tartibda

B. Unday undoshlar va unilar yozilmaydi.

*S. Bunday undosh yoki unlining bittasigina yozuvda ifodalanadi.

D. Toʻgʻri javob yoʻq.

36. Poygir nima ?

*A. Kelgusi sahifadagi birinchi soʻzni tugallanayotgan sahifa tagiga yozib qoʻyish.

B. Harflarning son qiymati bilan ifodalanishi.

S. Izofa.

D. Qisqa unilarni belgilar bilan ifodalash.

II - variant

1. Arab izofa nima ?

A. Qoʻsh undoshlarni ifodalash.

*B. Aniqlanmish va aniqlovchi , qaralmish va qaratqich munosabatlarini ifodalovchi tushuncha.

S. Aniqlovchi va aniqlanmish , qaratqich va qaralmish munosabatlarini ifodalovchi tushuncha.

D. Satr usti belgilarini ifodalash.

2. Faqatgina arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydigan harflar qaysilar ?

A. ات عص ذ ی

B. ع ذ ص ل ن ط ث

S. ظ ص ذ ث ع ی ح ض

*D. ث ح ذ ص ض ط ظ ع

3. Z tovushini ifodalovchi harflar qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan.

*A. ز ذ ض ظ

B. ز ض ظ س

S. س ض ظ غ

D. ذ ص ث ظ

4. Muttasil harflar nechta ?

A. 15 ta

*B. 25 ta

S. 7 ta

D. 26 ta

5. Fors oʻzbek yozuvida nechta harf mavjud ?

A. 28 ta

B. 30 ta

*S. 32 ta

D. 31 ta

6. Arab yozuvida unli tovushlar qanday usulda ifoda etiladi ?

*A. Alif, vov, yo harflarini qoʻllash hamda undosh tovushlarning ostiga va ustiga diakritik belgilar qoʻyish orqali.

B. Alifbodagi harflarni yozish orqali.

S. Alif, vov, yo, ayn harflarini qoʻllash orqali.

- D. To`g`ri javob yo`q.
- 7.Fatha yoki zabar qanday belgi ?
- A. Arab izofasini ko`rsatuvchi belgi.
- B. Qo`sh undoshni ifodalovchi belgi.
- S.u , i qisqa unlilarini ko`rsatuvchi belgi.
- *D. a qisqa unlisini ifodalovchi satr usti belgisi.
- 8.Shaxsan , jismonan , tasodifan so`zlari to`g`ri yozilgan qatorni toping.
- A. طصادفأجصمانأشخسأ
- *B. تصادفأجصمانأشخصأ
- S شخصأ جصمانان . طصادفأ
- D . جصمانان شخصان طصادفأ
- 9.Arab izofasini ifodalanishi nimaga bog`liq ?
- A. Arab tilidan o`zlashgan so`zlarga.
- B. Arab tiliga xos tovushlarga.
- *S. Shamsiy va qamariy harflarga.
- D. Faqatgina qamariy harflarga.
- 10.Arab yozuvidagi raqamlar qanday yoziladi ?
- *A.Chapdan o`ngga qarab
- B. O`ngdan chapga qarab.
- S. Yuqoridan pastga qarab.
- D. A va B
11. ص – sod harfining son qiymati nechaga teng ?
- A. 800
- B. 9
- *S. 90
- D. 60
- 12.Fors yil hisobi nima deb ataladi ?
- A. Milodiy
- *B. Hijriy
- S. Kabisa
- D. Hijriy-shamsiy
13. ب – be shaklidagi harflar to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.
- A. ن ث ت ب
- B. ح ت ب
- S. ت ن ح پ
- *D. ث ت پ ب
14. Ze, zol , zod harflari to`g`ri yozilgan qatorni ko`rsating.
- A. ض ژ ظ
- B. ظ ث ز
- *S. ض ذ ز
- D. ص ذ ظ
- 15.Qisqa unlilarni ifodalovchi diakritik belgilar qaysilar ?
- *A. Fatha , kasra , zamma.
- B. Tanvin , hamza , sukun.

- S. Fatha , zabar ,pish.
D. Vasla , zir , tashdid.
16. Bir tovushni ifodalovchi harflar qatorini ko`rsating.
A. ضظسصث هحع ا
*B. ظضذزص س سث ه ح ط ت
S. ه ح ض ظ ز ص س ث
D. ظزذ ص س ث ه ح
- 17.Hijriy yil necha xil bo`ladi ?
A. 1 xil
B. 3 xil
*S. 2 xil
D. 4 xil
- 18.Arab alifbosidagi harflar, asosan ,nechta belgidan iborat.
A. 7 ta belgidan iborat.
*B. 17 ta belgidan iborat .
S. 11 ta belgidan iborat.
D. 24 ta belgidan iborat.
19. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni toping.
*A. وظيفه مصرع مخصوص مئقال فضلت
B. وظيفه مئتر همحسوس مصقال فظياط
S. وظيفه مئتر همحسوس فضلت مخصوص
D. وظيفه مصرع مخصوص فظياط مخصوص
- 20.Hijriy-qamariy yil necha kun va necha oydan iborat bo`ladi ?
A. 365 (366) kun 11 oy
B. 355 kun 12 oy
*S. 354 (355) kun 12 oydan iborat bo`lib,toq oylar 30, juft oylar 29 kunlik qilib olingan.
D. 365 (366) kun 12 oydan iborat bo`lib, 31 va 30 kunlik qilib olingan.
- 21.Isloh qilingan fors o`zbek yozuvi qachon amalga oshirildi ?
A. 1925 yilda
*B. 1921 yilda
S. 8 – asrda
D. To`g`ri javob yo`q.
- 22.So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni toping.
*A. عاصى طعام ضديت ضرورت
B. اسى تامظيدى طرورط
S. عاصى طعام ذديط ضرورت
D. عاصى تام ضديت ضرورت
- 23.Transliteratsiya nima ?
A. Chiroyli yozish.
B. Tildan tilga tarjima qilish.
S. Satr usti va satr osti belgilarini to`g`ri qo`llash.
*D. Muayyan bir xalq alifbosi asosidagi xatni ikkinchi bir xalq imlosiga o`tkazish.

24. Unli tovushni undosh tovushdan farqlash va qator kelgan ikki unlining qo`shilib ketmasligini ta`minlaydigan belgi nima deb ataladi ?

*A. Hamza

B. Kasra

S. Vasla.

D. Sukun

25. Samara , sohib , zehn , ojiz so`zlari to`g`ri yozilgan qatorni toping.

A. أجينظيهن ثاحب سماره

*B. عاجزذهن صاحب ثمره

S. عاجززيهن ساهيب ثمره

D. عاجزظيهن ثاحب ثمره

26. Bir nechta tovushni ifodalaydigan harflar qaysilar ?

A. Alif , ayn , yo

B. Hoyi hutti , hoyi havvaz , ayn.

S. Alif , vov , yo.

*D. Alif , ayn , vov , hoyi havvaz , yo.

27. Vasla satr usti belgisi qaysi o`rinda ishlatiladi ?

A. Ketma-ket kelgan undosh ustiga qo`yiladi.

*B. Arab tilidagi aniqlik artikli **al** - birikmasining ustiga qo`yiladi.

S. Fors izofasining ustiga qo`yiladi.

D. To`g`ri javob yo`q.

28. ح – hoyi hutti harfining ko`rinishlari nechta , ko`rinishlari to`g`ri yozilgan qatorni toping.

A. 2 xil ,

B. 3 xil ,

*S. 4 xil ,

D. 4 xil ,

29. Hijriy-qamariy yil oylari qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.

A. Safar, rajab, hamal, jaddi.

*B. Muharram, safar, sha`bon, ramazon.

S. Hamal, aqrab, safar, zul-qa`da.

D. Ramazon, shavol, mezon, aqrab.

30. Sof unililar qaysi harflar asosida ifodalanadi ?

*A. Alif , vov , yo

B. Alif , ayn , vov

S. Vov , yo

D. Ayn , hoyi havvaz , yo

31. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni ko`rsating.

A. حطالوداعصناعت ريباه

B. صناعت الويدا هتا رعايه

S. حتى علويداسناط ريباه

*D. حتى الوداعصناعت رعايه

32. Hijriy-shamsiy yil oylari qachondan boshlanadi ?

A. Ramazon oyining tugashi bilan boshlanadi.

*B. 21 martdan boshlanadi.

S. 1 yanvardan boshlab hisoblanadi.

D. To`g`ri javob yo`q.

33. Fors o`zbek yozuvida asosiy imlo qoidalari mavjudmi ?

A. 82 ta qoidasi bor.

B. Mavjud emas.

*S. Imlo qoidalari mavjud emas, lekin asosiy xususiyatlari bor.

D. 11 ta qoidaga asoslangan.

34. 1,70,30,1,1,6,100,10,300,20,10,200,20 ushbu raqamlarni ifodalovchi harflardan hosil bo`lgan to`g`ri jumlaning toping.

*A. كيرك او قيش اعلا

B. كيرك او قيش الع

S. لازيم او فيس اعالع

D. لازيم او فيس اعلا

35. Poygir so`zining lug`aviy ma`nosi nima ?

A. Jamlamoq.

*B. Qadam olmoq.

S. Bog`lash, qo`shish.

D. Ajratmoq.

36. ۳۷۴ bular qanday raqamlarni ifodalaydi ?

A. 2, 7, 6

B. 4, 8, 9

S. 11, 5, 3

*D. 3, 7, 4

III – variant

1. , ۱۵۹۰۸ ۲۴۵۶ bu raqamlarni hozirgi shakliga aylantiring.

A. 6542, 74590

*B. 2456, 15908

S. 2543, 70951

D. To`g`ri javob yo`q.

2. Arab alifbosidagi asosiy belgilardan nechitasi yangi harf hosil qilishda ishtirok etmaydi ?

*A. 7 ta belgi

B. 17 ta belgi

S. 4 ta belgi

D. 2 ta belgi.

3. So`zlar to`g`ri yozilgan javobni ko`rsating.

A. قنات ماموريت نسيهت وسيط

B. قساص معموريط نسيهت وصيت

S. قساص معموريط نصيحت وسيط

*D. قساص ماموريت نصيحت وصيت

4. Satr chizig`idan pastga tushirib yoziluvchi harflar qatorini ko`rsating.

A. ص ث ل ق ف ظ خ ح

B. ك ل ن ث ز ذ ح ظ

- *S. یولق عصخج ح
D. صلہی غقت
5. Fors o`zbek yozuvida **a** unlisini ifodalovchi qanday harflar bor ?
A. Ayn , vov , yo
B. Alif , hoyi hutti
S. Alif , vov , yo
*D. Alif , ayn , hoyi havvaz
6. O`zbek xalqi hozirga qadar qanday alfavitlardan o`z yozuvi sifatida foydalangan ?
A. Oromiy , arab , lotin , kirill.
*B. Qadimgi yozma yodgorliklar , arab yozuvi , lotin yozuviga asoslangan alifbo , kirill , lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosi .
S. Arab , lotin yozuviga asoslangan alifbo , kirill.
D. To`g`ri javob yo`q.
7. **e , yo , yu , ya** harflari fors o`zbek yozuvida qanday ifodalanadi ?
A. ی yo harfi bilan ifodalanadi.
B. Alif , vov , yo harflari orqali ifodalanadi.
*S. ی yo harfidan keyin alif , vov , yo harflari bog`lanadi.
D. Ayn , alif , yo harflari bilan ifodalanadi
8. ص - sod va ط - to (itqi) harflari to`g`ri qo`llanilgan qatorni toping.
A. طبابتختات رخصت احتراص
B. تباطختاطرخصت عهطراث
S. طبابتخطاطرخصت احتراص
*D. طبابتخطاطرخصت احتراص
9. Poygir nima ?
*A. Kelgusi sahifadagi birinchi so`zni tugallanayotgan sahifa tagiga yozib qo`yish.
B. Harflarning son qiymati bilan ifodalanishi.
S. Izofa.
D. Qisqa unilarni belgilar bilan ifodalash.
10. So`z o`zagidagi yonma-yon kelgan bir xil qo`sh undosh yoki qo`sh unli qanday yoziladi ?
*A. Bunday undosh yoki unlining bittasigina yozuvda ifodalanib, ikkilantirilib o`qiladi.
B. Unday undoshlar va unililar yozilmaydi.
S. Odatdagi tartibda.
D. To`g`ri javob yo`q.
11. Tanvin qanday belgi ?
A. Qo`sh undoshlarning ustiga qo`yiladi.
B. Satr osti belgisi , unlining ustiga qo`yiladi.
*S. Satr usti belgisi bo`lib , arab tilidan o`zlashgan so`zlarning oxiridagi alif harfining ustiga qo`yiladi va – **an** harfiy birikmasini bildiradi.
D. Qisqa unilarning ustiga qo`yiladi
12. Alifboda arab tiliga xos tovushlar nechta va ular to`g`ri yozilgan javobni ko`rsating .

A. 11 ta

*B. 8 ta

S. 6 ta

D. 8 ta

13. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni toping.

A. طاعت تالی ایمارت

B. تات طالی عمارت

S. طاعت طالع بیمارط

*D. طاعت طالع عمارت

14. Arab izofasining ustiga qanday belgi qo`yiladi ?

A. Hamza

*B. Vasla

S. Zabar

D. Tanvin

15. Alifboda nechta muttasil harflar mavjud va ularning ko`rinishlari necha xil ?

*A. 25 ta , 4 xil ko`rinishda.

B. 24 ta , 3 xil ko`rinishda.

S. 7 ta , 4 xil ko`rinishda.

D. 21 ta , 4 xil ko`rinishda.

16. Munfasil harflarning qaysi biri forslar tomonidan kiritilgan ?

A. Zol va re harfi

B. Ze harfi

*S. Je harfi

D. B va S

17. Satr chizig`ida yoziluvchi harflar to`g`ri berilgan qatorni ko`rsating.

A. ک چ ف ی ط

B. م غ ی ه گ

S. ش ض ط ت غ

*D. پ ف ه ط ت

18. Arab alifbosidagi asosiy belgilardan nechtasi yangi harf hosil qilishda ishtirok etmaydi ?

A. 10 tasi

*B. 7 tasi

S. 14 tasi

D. To`g`ri javob yo`q.

19. 40 , 90 , 700 , 100 son qiymatga ega bo`lgan harflarni toping.

*A. Mim , sod , zol , kof

B. Nun , ayn , zod , sod

S. Sod , sin , xe , zo

D. Kof , zo , mim , shin

20. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni ko`rsating.

A. یخاٹ تقاضا ایستعداد

B. اخلاص طقاذا عسطعداد

S. یخاٹ طقاذا الستعداد

- *D. اخلص تقاضا استعداد
21. Arab izofasini ifodalanishi nimaga bog`liq ?
- A. Arab tilidan o`zlashgan so`zlarga.
B. Arab tiliga xos tovushlarga.
- *S. Shamsiy va qamariy harflarga.
D. Faqatgina qamariy harflarga.
22. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlarni ifodalashda qanday belgidan foydalanamiz?
- A. Tanvin belgisidan
*B. Tashdid belgisidan.
S. Hamza belgisidan.
D. B va S
23. Harful-qamar («oy harflari») harflari to`g`ri berilgan qatorni ko`rsating.
- A. Shin , kof , fe , lom
B. Alif , hoyi hutti , to , re
S. Sin , be , xe , yo
*D. Alif , be , hoyi hutti , vov
24. ع – ayn harfi to`g`ri qo`llanilgan qatorni toping.
- A. عارض اجايب اعظيم
B. ارذاجايب اعظيم
*S. عارض اعجايب اعظيم
D. عارض اعجايب اعظيم
25. Arab yozuvida unli tovushlar qanday usulda ifoda etiladi ?
- *A. Alif,vov, yo harflarini qo`llash hamda undosh tovushlarning ostiga va ustiga diakritik belgilar qo`yish orqali.
B. Alifbodagi harflarni yozish orqali.
S. Alif,vov,yo,ayn harflarini qo`llash orqali.
D. To`g`ri javob yo`q.
26. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni toping.
- A. و عارت حمراه ايشوه
*B. و ارت همراه عشوه
S. و اريس همراه يشوا
D. و ارت حمراه عشوه
27. Hijriy – shamsiy yil qanday topiladi ?
- A. M - 622 = HSh
B. H – M = HSh
S. 622 – M q HSh
*D. M – 622 q HSh
28. O`zidan oldin kelgan harfga qo`shilib , keyingisiga qo`shilmaydigan harflar nima deb yuritiladi ?
- A. Mo`ttasil harflar
*B. Mo`nfasil harflar.
S. Ikki qo`lli harflar
D. To`g`ri javob yo`q.

29. Arab yozuvida qisqa unlilar qanday yoziladi ?
- *A. Yozuvda qisqa unlilar tushirib qoldiriladi.
 - B. Barcha unlilar yozuvda ifodalanadi.
 - S. Unlilarning hammasi ham yozuvda ifodalanmaydi.
 - D. To`g`ri javob yo`q.
30. Fors o`zbek yozuvi fanida arab xat turlaridan qaysi biri o`rgatiladi ?
- A. Barcha turlari
 - B. Nasx va suls
 - *S. Nasta`liq
 - D. Nasx va ta`liq
31. Hijriy-qamariy yil oylari qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan.
- A. Safar, rajab, hamal, jaddi.
 - B. Muharram, safar, sha`bon, ramazon.
 - *S. Hamal, aqrab, safar, zul-qa`da.
 - D. Ramazon, shavol, mezon, aqrab.
32. Fors o`zbek yozuvida tinish belgilari qanday qo`llaniladi ?
- A. Tinish belgilari qo`llanilmaydi.
 - *B. So`roq va vergul alomati teskari tarzda qo`llaniladi.
 - S. Hozirgi shaklda ifodalanadi.
 - D. To`g`ri javob yo`q.
33. So`zlar to`g`ri yozilgan qatorni toping.
- *A. حریت سلطان عصب
 - B. هوریت صولطان اساب
 - S. حوریا طسلطان اصب
 - D. حریط صولطان عصب
34. شادمان – shodmon واجب so`zlarining abjad hisobi to`g`ri keltirilgan qatorini toping.
- A. 100 , 2 , 10 , 5 , 40 , 6 ; 4 , 2 , 60 , 4
 - B. 200 , 4 , 40 , 1 , 2 , 50 ; 5 , 30 , 2 , 4
 - *S. 300 , 1 , 4 , 40 , 1 , 50 ; 6 , 1 , 3 , 2
 - D. 60 , 2 , 40 , 4 , 100 , 50 ; 1 , 6 , 2 , 3
35. Sukun belgisi qaysi o`rinda ishlatiladi ?
- A. Undosh tovushning ustiga qo`yiladi.
 - B. Cho`ziq unli ifodalashda qo`llaniladi.
 - S. Yonma-yon kelgan unlining ustiga qo`yiladi.
 - *D. So`zdagi yopiq bo`g`in ustiga qo`yiladi.
36. Arab izofasining artikli ال - qanday ifodalanadi ?
- *A. Izofa ko`rsatkichi hamma vaqt yozuvda ifodalanadi , lekin ba`zan tallafuz etilmaydi.
 - B. Izofako`rsatkichi yozilsada, o`qilmaydi.
 - S. Izofa ko`rsatkichi yozilmaydi , lekin o`qiladi.
 - D. To`g`ri javob yo`q.

“FORS TILI ” FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI

oson savollar

- 1.Oʻrta Osiyo territoriyasida mavjud boʻlgan qadimiy yozuvlardan qaysilarini bilasiz?
- 2.Arab alifbosida nechta harf bor? Fors yozuvida qaysi harflar arab alifbosiga qoʻshimcha kiritilgan?
- 3.Arab yozuvining boshqa yozuvlardan farqi haqida maʼlumot bering.
- 4.Arab harflari bogʻlanish-bogʻlanmasligi jihatidan necha turga boʻlinadi, yozib koʻrsating.
5. Arab satr usti belgilarini tushuntiring.
6. Hamza belgisi toʻgʻrisida gapiring.
7. ب shaklidagi harflarni ayting va ularni koʻrinishini yozib bering.
8. Arab alifbosidagi yozuvda satr chizigʻida va satr chizigʻidan pastga tushirib yoziladigan harflarni yozib koʻrsating
- 9.Shaklan oʻxshash,lekin nuqtalarining oʻrni va miqdoriga qarab farqlanuvchi harflarni ayting.
- 10.Arab alifbosidagi qaysi harflar tili tiliga xos boʻlmagan tovushlarni ifoda etadi.
11. Arab yozuvidagi unli tovushlar qanday ifoda etiladi.
- 12.Fors tili yozuvidagi unli tovushlarni ifoda etuvchi harflarni taʼriflab bering.
- 13.Arab satr osti belgisi qaysi, misollar yozing.
14. Zir qanday belgi , misollar yozing.
- 15.Sukun belgisi haqida maʼlumot bering.
- 16.Vasla belgisi haqida maʼlumot bering.
- 17.Zabar belgisi haqida maʼlumot bering.
- 18.Zamma (pish) ning yozuvdagi vazifasi nimadan iborat.
- 19.Alif harfining vazifalari haqida soʻzlang.
- 20.Fors tili yozuvidagi e, yo , yu , ya unililari qanday ifoda etiladi?
- 21.Yo harfining vazifalari haqida soʻzlang.
- 22.Vov harfi qanday tovushlarni ifodalaydi?
- 23.Quyosh harflarini sanang va ular haqida maʼlumot bering.
- 24.Arab izofasi toʻgʻrisida nimalar bilasiz?
- 25.Fors izofasining xususiyatlari nimalardan iborat?
- 26.Arab izofasining xususiyatlari nimalardan iborat.
- 27.Fors tili yozuvida raqamlarning ifodalanishini tushuntiring.
- 28.Oy harflari toʻgʻrisida soʻzlab bering,ularni yozib koʻrsating.
- 29.Yangi va fors yil hisoblari haqida maʼlumot bering.
- 30.Tanvin belgisi toʻgʻrisida soʻzlang.
31. ة bu qanday belgi ?Uning yozuvdagi funktsiyasi haqida soʻzlang.
- 32.Hamza belgisi haqida soʻzlab bering.
- 33.Harakatlar nima?Ularga misollar yozing.
- 34.Arab alifbosiga forslar tomonidan kiritilgan harflarga misollar yozing.
- 35.Tashdid belgisiga misollar yozing

- 36.Xoyi havvaz harfining yozuvdagi vazifasi to‘g‘risida so‘zlab bering.Misollar keltiring
- 37.Arab kalendari oylarining nomlarini sanab bering.
- 38.Isloh qilingan fors tili yozuvi to‘g‘risida so‘z yuriting.
- 39.Ayn va hoyi xutti harflarining xususiyatlari haqida so‘zlab bering.
- 40.Dol,sin,zod va nun harflarini ta’riflab bering,ular ishtirokida so‘zlar yozing.
41. ح shaklidagi harflarni ayting harflar va ularning 4 –xil ko‘rinishini yozib bering.
- 42.Poigir to‘g‘risida nimalar bilasiz?
- 43.Fors tili yozuvida 3ta maqol yozing
- 44.Qisqa unlilarning ifodalanishi haqida ma’lumot bering.
- 45.Tug‘ilgan yilingizni xijriy yil hisobida ifodalang.
- 46.Shamsiy harflar qaysilar. Misollar keltiring
- 47.Ajratilgan harflarga 5 ta misol yozing.
- 48.5ta topishmoqni fors tili yozuvida yozing.
- 49.Oltin kuz mavzusida matn tuzing.
- 50.Kollegrafiya nima?

Q i y i n savollar

- 1.Men sevgan kasb mavzuida kichkina matn tuzing.
- 2.Bizning oila mavzusida kichik matn yozing.
3. Zumrad qish mavzusida matnni fors tili alifbosida yozing.
- 4.«Ikki oshno» hikoyatini qisqacha matnini fors tili yozuvida yozing.
- 5.«Beodob» hikoyatini qisqacha matnini fors tili yozuvida yozing.
- 6.«Nodonlik» hikoyatidan 5 ta jumla yozing.
- 7.«Ittifoq» hikoyatidan qisqacha matn yozing.
- 8.«Qanoat» matnidan 5 ta jumla yozing.
- 9.Shamsiy harflar ishtirokida 5 ta so‘z va gap misol keltiring.
- 10.Qamariy harflar ishtirokidagi izofiy birikmaga misollar yozing.
- 11.Arab izofasiga 5 ta misol yozing.
- 12.Fors izofasiga 5 ta misol yozing.
- 13.Al aniqlik artikli ishtirok etgan 4 ta misol yozing.
14. 5 ta maqolni fors tili yozuvida yozib bering.
- 15.Biror she’rni fors tili yozuviga o’giring.
- 16.Fors tilida 3ta topishmoq yozing.
- 17.Yozuvlar haqida ma’lumot bering.
- 18.Mening oilam mavzusida matn tuzing.
- 19.5ta gap donolar hikmatidan misol keltiring.
- 20.Men sevgan adib mavzuida kichkina matnni fors tili yozuvida yozing.
- 21.Al aniqlik artikli funktsiyasi haqida so‘zlang.
- 22.10 ta maqolni fors tili yozuvida yozib bering.
23. Yoqtirgan she’ringizni fors tili yozuvida yozing.
- 24.Mening ish kunim mavzusida fors tili yozuvida matn tuzing.
- 25.Tuliston Respublikasi Madhiyasini fors tili yozuvida yozing.
- 26.Satr usti va satr osti belgilari haqida ma’lumot bering.

27. Bizning universitet mavzusida matn tuzish.
28. Bahor mavzusida fors tili yozuvida matn tuzing.
29. Navruz - milliy bayramimiz mavzusida fors tili yozuvida matn tuzing.
30. Sportimiz iftixorlari mavzusida fors tili yozuvida matn tuzing.
31. Yoshlar kelajak tayanchi mavzusida matn tuzing.
32. Mening do‘stim mavzusida matn tuzing.
33. Kitoblar - ma’naviy xazinamiz mavzusida matn tuzish.
34. Bobur ruboiysidan fors yozuvda namuna keltiring.
35. Muqaddas ayol mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
36. Yil fasllari mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
37. Milodiy yilni hijriy qamariy yilga aylantiring.
38. Oila a’zolaringiz tug‘ilgan yillarni hijriy yilga aylantiring.
39. Tug‘ilgan yilingizni hijriy yilga aylantiring va izohlang.
40. Mustaqillik- oliy ne’mat mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
41. Qadimiy shaharlarimiz mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
42. Qadimiy obidalar mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
43. Tarixiy shaxslar mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
44. Fakultetingiz haqida fors yozuvda kichik matn tuzing.
45. Guruhingiz haqida fors yozuvda kichik matn tuzing.
46. Oila a’zolaringizni muchal yilini aniqlang.
47. O‘zingiz yoqtirgan she’rni fors yozuvda yozing.
48. Mening mahallam mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
49. Mening shahrim mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
50. Temur tuzuklaridan fors yozuvda namunalar keltiring.

O‘ r t a c h a qiyin savollar

1. Tanvinli so‘zlarga misolar keltiring va ular ishtirokida gap tuzing.
2. A. Qodiriyning 3ta yirik asarini nomini fors yozuvda yozing.
3. A. Navoiyning asarlari nomini fors yozuvda yozing.
4. A. Temur haqida fors yozuvda ma’lumot bering.
5. Temur tuzuklaridan fors yozuvda namunalar keltiring.
6. Tarixchi olimlar haqida fors yozuvda m’lumot bering.
7. 2008, 1938, 1960, 1991, 1989 milodiy yillarini hijriy qamariy yil hisobiga aylantiring.
8. Quyidagi tashdidli so‘zlarni fors yozuvda yozing: mahalla, naqqosh, attor, makkor, avval, tabassum, munaqqid, tafakkur, shiddat.
9. Arab raqamlari haqida ma’lumot bering.
10. 59, 74, 160, 246, 4075, 2008, 1991, 43, 100 raqamlarini fors yozuvda yozing.
11. Quyidagi tanvinli so‘zlarni fors yozuvda yozing: tarixan, haqiqatan, taqriban, shaklan, tasodifan, avvalan, jismonan, xususan, zotan, binoan.
12. Quyidagi izofiy birikmalarni fors yozuvda yozing: dardisar, dardi bedavo, mardi maydon, taxti ravon, tarjimai hol, ofati jon, qomati zebo.
13. Quyidagi arabiy izofiy birikmalarni fors yozuvda yozing: ”Lison -ut tayr”, ”Mahbub-ul-qulub”, ”Bayn-al-minal”, ”Hayrat-ul-abror”, ”Lug‘at-ut-turk”.

14. Quyidagi kishi nomlarini arab alifbosida yozing: Alisher, Nodira, Davron, Ikrom, Sherali, Dilshod, Bahrom, Mohira, Bilolbek, Bobur, Shoxruh, Dilfuza, Nazira.
15. Har bir oila a'zolarining nomlarini arab yozuvida yozing.
16. Birdan o'ttizgacha bo'lgan raqamlarni fors tili yozuvida yozib chiqing.
17. "Men sevgan kasb" mavzusida fors yozuvda kichik matn tuzing.
18. Quyidagi hamzali so'zlarni fors tili yozuvida yozing:
taassurot, oila, ta'sis, masala, qiroat, taomil, muallif, ma'mur, ta'kid.
19. Tanvin, tashdid belgilari ishtirok etgan 10 ta so'z yozing.
20. Fatha, zamma, kasra ishtirokida 10 ta misol yozing.
21. Zir, zabar, pish ishtirokida 12 ta so'z yozing.
22. Izofa haqida ma'lumot bering.
23. Al anqlik artikli imlosi haqida ma'lumot bering.
24. Fors yozuvda sahifalash-tartiblash usullari haqida yozing.
25. Cho'ziq unlilar haqida ma'lumot bering.
26. Uy ro'zg'or asboblari va uy hayvonlari nomini arab alifbosida yozing.
27. O'zingiz bilgan daraxt nomlarini arab alifbosida yozing.
28. O'zingiz bilgan shahar nomlarini arab alifbosida yozing.
29. Har bir oila a'zolarining nomlarini arab alifbosida yozing.
30. ع unlisi ishtirok etuvchi so'zlardan fors tili imlosida yozing.
31. Abjad hisobi nima? Misol keltiring.
32. Arab xat turlaridan qaysilarini bilasiz ?
33. Muchal hisobi nima?
34. Satr usti belgilari haqida ma'lumot bering.
35. Satr osti belgilari haqida ma'lumot bering.
36. Sukun belgisi haqida ma'lumot bering.
37. Zamma (pish) ning yozuvdagi vazifasi nimadan iborat.
38. Alif harfi ning vazifalari haqida so'zlang.
39. Vov harfi qanday tovushlarni ifodalaydi.
40. Fors tili yozuvida rakmlarning ifodalanishini tushuntiring.
41. Tanvin belgisi to'g'risida so'zlang.
42. ُ bu qanday belgi? Uning yozuvdagi funktsiyasi haqida so'zlang.
43. Diakritik belgilar haqida so'zlab bering
44. Arab alifbosiga forslar kiritgan harflarga misollar yozing.
45. Isloh kilingan fors tili yozuvi to'g'risida so'z yuriting.
46. Mo'ttasil harflar haqida so'zlab bering
47. Mo'nfasil harflar haqida yozing va misollar keltiring.
48. ِ shaklidagi harflarni 4-xil ko'rinishini yozing.
49. Ajratilgan harflarga 10 ta so'z misol yozing.
50. Qo'shilgan harflar ishtirokida 5 ta so'z yozing

**“FORS TILI” FANI BO'YICHA MUSTAQIL ISH BAJARISH BO'YICHA
USLUBIY KO'RSATMALAR**

“Fors tili ” fani bo`yicha talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 343-son qaroriga muvofiq ravishda olib boriladi.

“Fors tili ” fani o`quv rejasida belgilanganidek o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishida 1-2- 3 - kurslarida o`qitiladi. Fan uchun jami 266 soat ajratilgan, shundan 154 soat amaliy mashg`ulot, 112 soat mustaqil ish belgilangan.

Talabaning mustaqil ishi o`quv rejasida “Fors tili ” fanini o`zlashtirish uchun belgilangan o`quv ishlarining ajralmas qismi bo`lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta`minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o`qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o`quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda har bir talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash;
- qo`lyozma asarlarni nasx va nastaliqda ko`chirish;
- matnlarda tushinilishi qiyin bo`lgan so`zlar lug`atini tuzish.
- matn tarjimasini bilan shug`ullanish
- lug`at ustida ishlash
- grammatikaga oid mashqlar bajarish
- fors tilida to`g`ri o`qish ko`nikma, malakasini hosil qilish
- og`zaki nutqni rivojlantirish
- fors tilida o`zaro muloqotni shakllantirish.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o`quv mashg`ulotlarini olib boradigan o`qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedrada o`quv mashg`ulotini bevosita olib boruvchi o`qituvchi tomonidan tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o`quv qo`llanmalar, metodik qo`llanma va ko`rsatmalar, ma’lumotlar to`plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog`idagi tegishli ma’lumotlar, berilgan mavzu bo`yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

“Fors tili ” fani bo`yicha talabalarning mustaqil ishlari o`quv semestri davomida baholanishi mumkin.

Mustaqil ish mavzulari

1. Arab yozuvi haqida. Harflar.
 2. Alif, be, pe, te, se harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar tuzib yozish.
 3. Jim, chim, hoyihutti, xe harflarini 4 qatordan yozish, soʻzlar tuzish.
 4. Dol, zol, re, ze, je harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar tuzish.
 5. Sin, shin harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar yozishni mashq qilish.
 6. Sod, zod harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar yozishni mashq qilish.
 7. To, zo harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar yozishni mashq qilish.
 8. Ayn, g`ayn harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar yozishni mashq qilish.
 9. Fe, qof, kof, gof harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar tuzish.
 10. Lom, mim, nun harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar tuzish.
 11. Vov, yo, hoyi havvaz harflarini 4 qatordan yozish va soʻzlar tuzish.
 12. Harfiy birikmalarni va 20 ta suz yozish.
 13. Mo`nfasil va mo`ttasil harflar bo`yicha soʻzlar yozish.
 14. Harakatlar bo`yicha so`zlar yozish.
 15. Abjad hisobi bo`yicha misollar yozish.
 16. Hijriy yil hisobi.
 17. Arabiy izofa.
 18. Forsiy izofa.
 19. Qo`lyozmaasarlargaxosyozuvusullari.
- Arabyozuviningo`zigaxosxususiyatlari.Hikoyatninasxvanasta`likdayozish.
20. Fors o`zbek tilida tinish belgilari. Hikoyatni nasx va nasta`likda yozish.

MUSTAQIL ISHLAR BAJARISHDA FOYDALANISHGA TAVSIYA QILINGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. "Fors tili". –T., 2007.
 2. Abdusamatov M. "Siz forscha so`zlashasizmi?" –T., O`qituvchi, 1971
- #### Qo`shimcha adabiyotlar:
1. Qurbonbekov A. "Fors tili". T., 2007.
 2. "Gulshan-e forsi". ToshDU, 1975.
 3. Shukurov Sh. "Alif va uning vazifalari". O`zbek tili va adabiyoti, 1990, 5-son.
 4. Habibullo Solih. "Alifbo". Toshkent, 1989
 5. Yadulloh Samara.. Fors tili darsligi (Ozfo), birinchi kitob, boshlang'ich kurs, (tarjimon Ahmadjoan Quronbekov). – Eron– Tehron: 1999.

6. Ivanov V. B. Uchebnik persidskogo yazika. chast 1, Moskva: 1999.
7. Gladkova E. L. Uchebnik persidskogo yazika. Moskva: Izdatelskiy Dom “Muravey–Gayd”, 1999.
8. Ovchinnikova I. X. Mamed – Zade A.X. Uchebnik persidskogo yazika. Moskva: Universitet, 1966.
 1. Rustamov A. Karimov X. Umarov Z. Forscha o‘zbekcha o‘quv lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
 2. Voskanyan G. A. Russko–persidskiy slovar. – Moskva: Ruskiy yazik, 1986

GLOSSARIY

ابجد – **Abjad** – **abjad** - **абжад** - son tushunchasini harflar bilan ifoda etish.

اليافى مقصوره - **Alifi maqsura** – **aliphe maksoure** – **алифи максура**- yozuvda yoziladi, ammo talaffuz qilinmaydi.

ايزغى - **Izg‘i** – **ithge** – **изги** - arab alifbosidagi zo harfi.

اضافه - **Izofa** – **ethope** – **изафет** - aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish munosabatlarini ifodalovchi tushuncha.

اصلاح - **Islah** – **perform** – **реформа** - tuzatish, o‘zgartirish degan ma‘noni anglatadi.

ايتقى - **Itqi** – **etke**- **итки**- arab alifbosidagi to harfi.

كليگرافيه - **Kalligrafiya** – **kolligraphion** - **калиграфия** tub ma‘nosi husnixat,chiroyli yozuv degani.

كبيسه - **Kabisa** – **cabisa**– **кабиса** - to‘rt yilda bir marta keladigan 29 kunlik fevral oyi.

كسره - **Kasra** – **casra**- **арабский знак** - arab satr usti belgisi, qisqa i- unlisini bildiradi.

كوفى - **Kufiy** – **koofa**– **куфий**- arab xati turi, Kufa shahrida VII asrda asos solingani uchun xati kufiy deyiladi. Qur‘on nushasi ham dastlab kufiy harflarda ko‘chirilgan.

كاتب - **Kotib** – **secretary** - **секретар** - yozuv bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

لطف - **Lutf** – **favour**- **комплимент**- yumshoq, yaxshi muomila.

مده - **Madda** – **madde** - **арабский знак** - arab satr ustki belgisi, harfni cho‘zib o‘qishga ishora qiladi.

معقلى - **Ma‘qaliy** – **makali** – **макали**- arab xati turi.

حروف متصله - **Muttasil harflar** – **letter moottasel** - **выделенные буквы** - har ikki tomondan qo‘shilib yoziluvchi harflar.

حروف منفصله - **Mo‘nfasil harflar** – **letter moonfasel** - **добавленные буквы** - o‘zidan oldingi harfga qo‘shilib, keyingisiga qo‘shilmaydigan harflar.

نسخ - **Nasx** – **naskh** – **насх** - arab xati turi, “to‘g‘ri” degan ma‘noni bildiradi.

نستعليق - **Nastaliq** – **nastalekh** - **насталик** - arab xati turi, “nasx” va “ta‘liq” xatlarining o‘zaro birikuvidan vujudga kelgan yozuv turidir.

پيش - **Pish** – **push** - **арабский знак** - fors diakritik belgisi harakat ham deyiladi, o‘- qisqa unlisini ifodalaydi.

حروف قمرى - **Qamariy harflar** – **letter kamari** - **лунный буквы** arabcha oy harflari, ular 14 ta.

ريقا - **Riqo** – **reqo** - **рика** arab xati turi.

-سكون Sukun – sookoon - арабский знак - arab satr ustki belgisi, undosh harf ustiga qo'yiladi.

-ثلاث Suls – sools – суле- arab xati turi bo'lib arab tilida “uchdan bir” degan ma'noni anglatadi.

-سغد So'g'd (Oromiy) – sougd - сугд - O'rta Osiyodagi qadimgi yozuv turiidir.

-تعلق Ta'liq – talek – талик - arab satr turi bo'lib, taliq ya'ni osilib turuvchi, ilingan yozuv uslubi bo'lib XV asrda ijod etilgan.

-توقع Tavqe' – touvke – тавке- arab xati turi.

-تنوين Tanvin – tanven - арабский знак - arab satr usti belgisi, alif harfiga qo'yiladi, fathali tanvin-an o'qiladi, kasrali tanvin-in, zammali tanvin-un o'qiladi.

-تشديد Tashdid – tashded - арабский знак- arab satr usti belgisi, “kuchaytirish” degan ma'noni ifodalab, bu belgi ostidagi undosh ikkilantirib o'qiladi.

-ترانسليترتسي Translitratsiya – transmission - транскрипсия -muayyan bir xalq alifbosi asosidagi xatni ikkinchi bir xalq imlosiga o'tkazishdir. Tildan tilga o'girish tarjima bo'lsa, bir alfavitdan ikkinchi alfavitga o'tkazish translitratsiyadir.

-خطاويغورى Uyg'ur yozuvi – inscription uygur - уйгурский письмо- O'rta Osiyodagi qadimgi yozuv turi.

-وصله Vasla – vasle - арабский знак - arab satr usti belgisi, “qo'shish” degan bildiradi, aniqlik shaklini bildiradi.

-خطات Xattot – khatot – каллиграф- arab imlosida chiroyli husnixat bilan yozuvchi kishidir.

-خطخوارزمى Xorazm yozuvi – inscription khorezm - харезмский письмо- O'rta Osiyodagi qadimgi yozuv turi.

-خط Yozuv – inscription – письмо- insoniyat tafakkuri yaratgan ma'naviy boyliklarni asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga yetkazuvchi bebaho vosita. U insonning eng oliy kashfiyotlaridan biri.

- **Zabar** – **zabere** - **арабский знак** - fors diakritik belgisi, a- qisqa unlisini ifodalaydi.
- **Zamma** – **zamme** - **арабский знак** - arab satr usti belgisi, qisqa u- unlisini bildiradi.
- **Zir** – **zeer** - **арабский знак** - fors diakritik belgisi, harakat ham deyiladi, e- qisqa unlisini ifodalaydi.
- **Orxon-enasoy** – **orkhon yenisey-урхун-енисэй-** O‘rta Osiyodagi qadimgi yozuv turi.
- **Shamsiy harflar** – **letter shamse** - **солнечный буквы-** arabcha quyosh harflari, al-artiklidan keyin ikkilantiriladi.
- **Shikaste** – **shekaste** – **шикасте** - fors xat turi, “siniq” degan ma’noni anglatadi.
- **Fatha** – **fatkhe** - **арабский знак** - arab satr usti belgisi, qisqa a unlisini bildiradi.
- **Hamza** – **khamthe** - **арабский знак** - arab satr usti belgisi, unli bilan undosh tovushni bir-biridan ajratadi.
- **Hoye** – **havvaz** - **hoye** – **hawaz** - **арабская буква** - arab alifbosidagi eng yumshoq talaffuz qilinuvchi ”h” harfi.
- **Hoye hutti** – **hoye hoote** - **арабская буква** - arab alifbosidagi o‘rtacha yumshoq talaffuz qilinuvchi harf.
- **Harakatlar** – **actions** – **знаки-** qisqa unli larni ifodalovchi diakritik belgilar.